Mamarajab TOJIYEV,
Bo'ri ZIYAMUXAMEDOV,
Mavjuda O'RALOVA

# PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA PEDAGOGIK MAHORAT

## FANINING O'QUV MASHG'ULOTLARINI LOYIHALASH



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**M.Tojiyev, B.Ziyamuxamedov, M.O'ralova**

# PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA PEDAGOGIK MAHORAT FANINING O'QUV MASHG'ULOTLARINI LOYIHALASH

**(Pedagogik texnologiya milliy modelining amaliyotga tatbig'i)**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan barcha magistratura mutaxassisliklarining talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashri

«TAFAKKUR-BO'STONI»
TOSHKENT — 2012

UDK: 37.013 (042)
74p
T60 5'07

Iqtisod fanlari doktori, professor **B.H.Rahimov**ning
umumiy tahriri ostida

Taqrizchilar: **A.A. Abduqodirov**, pedagogika fanlari doktori, professor,
**N.A.Ashurov**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent,
**A.M.Mavlonov** – fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.

**T60 Tojiyev M.**
«Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat» fanining o'quv mashg'ulotlarini loyihalash (Pedagogik texnologiya milliy modelining amaliyotga tatbig'i): magistratura mutaxassisliklarining talabalari uchun o'quv qo'llanma/M.Tojiyev; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ; B.H. Rahimovning umumiy tahriri ostida. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashri. – T. : «Tafakkur-Bo'stoni», 2012. – 224 b.

**1. Bo'ri Ziyamuxamedov**
**2. Mavjuda O'ralova**

Ushbu o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar, shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar, pedagoglar jamoasi va ilmiy tadqiqotchilar uchun zarur manba bo'lib, pedagogik texnologiyani ta'lim jarayoniga joriy etish masalasida barcha fanlar o'quv mashg'ulotlarining loyihalarini yaratishda andaza hamda ta'lim-tarbiya amaliyotiga tatbiq etish bo'yicha uslubiy yordam vazifasini o'taydi.

**UDK 37.013 (042)**
**KBK 74p**

© Tojiyev M. va boshqalar, 2012.
© «Tafakkur-Bo'stoni», 2012.

ISBN 978-9943-362-51-2

*O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 21 yilligiga bag'ishlanadi.*

**«Eng yangi zamonaviy o'quv vositalari bilan ta'minlangan ta'lim muassasalarida eskidan qolgan o'qitish usullarining davom etishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi».**

*I. Karimov,*
*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.*

**2005 va undan keyingi yillarda «Ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanadi, o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanadi».**

*O'zbekiston Respublikasining*
*«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»*

## KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil qilib, uni jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga tatbiq etish davom etmoqda. Shu kunda ta'lim tizimida ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiya bilan ta'minlash, unga oid o'quv adabiyotlarni tayyorlash va amaliyotga tadbiq etish — asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 20-maydagi «Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1533-sonli Qarorining chiqishi ta'lim jarayoniga sanoat pedagogik texnologiyani

SAMARQAND ... VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
461018

yanada kengroq tatbiq etish jarayonini jadallashtirishni taqozo etadi. Qarorning «Yuqori malakali kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va mutaxassisliklarini muqobillashtirish, davlat ta'lim standartlarini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuyi»ning 7-bandida «Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni tatbiq etish hisobiga ta'lim jarayoni sifatini yaxshilash» [9] lozimligi ta'kidlangan. Qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar jamoasi hududimizga mos bo'lgan zamonaviy pedagogik texnologiya tamoyillarini to'liq tushungan holda, o'zlari o'qitayotgan fanlarning o'quv mashg'ulotlarini bosqichma-bosqich loyihasini tuzib chiqishlari talab etiladi.

Bu vazifaning asosiy yechimlaridan biri pedagogik texnologiyaning o'zbek milliy modelini ta'lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq qilishdir. Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o'quv mashg'ulotlari loyihalarini tuzish nazariy jihatdan asoslangan bo'lib, bugungi kunda uni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish kechiktirib bo'lmaydigan masaladir.

Ta'lim-tarbiya sohasida mehnat qilayotgan har bir mutaxassis bugungi kunda pedagogikada yuzaga kelayotgan yangi tushunchalarni anglashi, shuningdek, darslarni loyihalash asosida o'qitish usulini egalashlari kerak. Mualliflar qo'l urgan ushbu o'quv va ilmiy-uslubiy qo'llanma professor-o'qituvchilar vaqtdan unumli foydalanib, chuqur va puxta bilim berishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining «Vazirlik tizimida 2007–2011-yillarga mo'ljallangan fundamental tadqiqotlar dasturlari» doirasidagi OTF-8208 – «Ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg'or tajribalarni joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari» mavzusidagi fundamental loyiha asosida tayyorlangan ushbu o'quv qo'llanma shu maqsadga xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiyani ta'lim amaliyotiga kengroq joriy etish maqsadida va amalga oshirilgan ishlarning tadrijiy davomi sifatida vazirlikning Rivojlantirish markazi ilmiy xodimlarining yetakchiligida respublikamizning ko'zga ko'ringan pedagog olimlari va Farg'ona, Qarshi davlat universitetlari professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda «Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat» fanining o'quv mashg'ulotlarining «Pedagogik texnologiya» qismi loyihalandi va uning natijasi sifatida o'quv jarayonida ijtimoiy fanlar bo'yicha ilk marotaba loyihalangan o'quv va ilmiy-uslubiy qo'llanma tayyorlandi.

Ushbu o'quv qo'llanma magistraturada o'qiyotgan talabalar bilan birgalikda, respublikamizda faoliyat yuritayotgan pedagogik jamoatchilik uchun ham pedagogik texnologiyaning o'zbek milliy modelini amaliyotga tatbiq qilish va shu asosda o'zlarining o'quv fanlari o'quv mashg'ulotlarini loyihalashda hamda uni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etishda andaza vazifasini bajaradi.

O'quv qo'llanmani tayyorlashda va ba'zi boblarini shakllantirishda pedagogika fanlari doktori, professor **E.A. Seytxalilov** va pedagogika fanlari doktori, professor **O'.Q. Tolipov**larning maslahatlari e'tiborga olingan.

O'quv qo'llanmani tayyorlashda O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayonini yanada rivojlantirish sohasida uzoq mehnat qilgan va ishimizga ilmiy, uslubiy va amaliy maslahat bergan fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent **A.M.Mavlonov**, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent **X.X.Nazarov**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent **N.Ashurov** va **G.Bahodirova**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent **Mahkam Mahmudov**larga minnatdorchiligimizni bildiramiz.

*Mualliflar.*

## MILLIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA «PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA PEDAGOGIK MAHORAT» FANI O'QUV MASHG'ULOTLARINING LOYIHALARI

**Ushbu loyihani tuzish jarayonida bajarilgan amallar:**

1. «Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat» fanini bir butunlik deb qarab, «makro modul» deb qabul qilindi, unda beriladigan materiallarning hajmi va mazmunidan kelib chiqib, «katta», «o'rta» va «kichik» modullarga ajratildi, so'ng ularning maqsad va maqsadchalari hamda ularga ajratilgan vaqt belgilandi.

2. Har bir kichik modul yordamida beriladigan bilimlar tizimi ichidan tayanch tushunchalar ajratildi.

3. Tayanch tushunchalar asosida nazorat savollari tuzilib, talabalar bilim va ko'nikmalarini baholash tur va mezonlari belgilandi.

4. O'quv mashg'ulotlarining har bir kichik modulida qo'llaniladigan dars turi va tipi aniqlanib olindi.

5. Har bir kichik modulda qo'llaniladigan pedagogik uslublar aniqlanib, joylari topib qo'yildi.

6. O'quv muassasasida mavjud axborot texnologiyalardan hamda har bir kichik moduldagi o'quv mashg'ulotining xarakteridan kelib chiqib, o'quv mashg'ulotida foydalaniladigan axborot texnologiyalarning qo'llanish joylari belgilandi.

7. O'quv mashg'uloti jaryayonida har bir kichik modulda foydalaniladigan didaktik materiallarnng turi va joyi aniqlandi.

8. O'rta modul mazmuni va o'qitish jarayonining borishini ifoda etuvchi o'quv mashg'uloti ssenariysi yozildi.

### 1.1. O'quv maqsadlarini belgilash usullari

Loyiha tuzishni o'quv fanining vazifasidan kelib chiqqan holda, makro va mikro modullarning o'quv maqsadlarini aniqlashdan boshlash lozim. Chunki, mana shu joyda o'quv jarayonini loyiha-

lash amali bevosita namoyon bo'ladi. Aynan shu bosqichda loyihalovchi modullar ustida ishlab, o'quv maqsadlarini aniqlaydi.

Pedagogik amaliyotdan mustahkam o'rin olgan o'quv maqsadlarini aniqlashning quyidagi an'anaviy usullari mavjud:

a) Maqsadlarni o'rganiladigan o'quv materialining mazmuni orqali aniqlash. Masalan: «Elektromagnit induksiya hodisasini o'rganish», «Vietta teoremasini o'rganish» yoki biror bob mazmunini, teoremalar, hodisalar, qonunlar va hokazolarni an'anaviy usulda o'rganish, bu kabi maqsadlarni belgilash faqat bitta dars yoki bir necha darslarda o'tiladigan materialni o'rgatishga ishora qilish, xolos, unda o'quv jarayonini tashkil etish uchun aniq bir yo'nalish yo'q. Shuningdek, bunday shaklda ifodalangan maqsadlarga erishilganlik yoki erishilmaganlikni ham aniqlab bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, bunday usulda belgilangan o'quv maqsadlari o'quv jarayonini tashkil etishning instrumental (amalga oshiruvchi) qismi ham bo'la olmaydi. Shuning uchun ham pedagogik texnologiya tarafdorlari bunday o'quv maqsadlarni o'ta noaniq deb hisoblab, tanqid qilganlar.

b) An'anaviy o'quv maqsadlarini o'qituvchi faoliyati orqali aniqlash. Masalan: o'quvchilarni «ichki yonuv dvigatelining ishlash tamoyili bilan tanishtirish», «Om qonunini namoyish qilish», «geografik xaritadagi shartli belgilarni o'qishga o'rgatish» va h.k. O'quv maqsadlarini bunday usulda aniqlash, o'qituvchining shaxsiy faoliyatiga qaratilgan bo'lib, ishdagi tartib va tushuntirish haqida taassurot qoldiradi, xolos. O'qituvchi o'quv maqsadlarini olinadigan natijaga taqqoslash imkoniyatiga ega bo'lmagan holda harakat qiladi, chunki o'quv maqsadlari bu usulda aniqlanganda olinadigan natijaning o'zi aniq ifodalanmaganligi ko'rinib turibdi.

d) O'quv maqsadlarini o'quvchining intellektual, hissiy sohaga oid ichki rivojlanish jarayonlari orqali an'anaviy aniqlash. Masalan: «kuzatilayotgan hodisalarni tahlil qilish malakalarini shakllantirish», «ifodali o'qish malakasini shakllantirish», «fizikadan masalalar

yechishda o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish» va h.k. Bunday o'quv maqsadlari o'quv yurti fan yoki fanlar sikli darajasidaga umumiy maqsadlarni ifodalaydi, xolos, lekin ular hatto dars yoki darslar turkumi maqsadlarini ham anglatmaydi.

Pedagogik texnologiya tarafdorlari bunday maqsadlarni inkor etadilar. Haqiqatan ham, ularga erishganlikka yoki bir dars davomida bu maqsadlarga, hatto yaqinlashib borilganligiga ham ishonib bo'lmaydi. Bu usullar orqali maqsadga erishish yo'nalishlari haqida ham fikr yuritib bo'lmaydi, chunki ular nihoyatda umumiy shaklda ifodalangan. Ammo, bizning fikrimizcha, bu usullar butunlay samarasiz emas, faqat maqsadlarga jiddiy aniqlik kiritish kerak. Bu o'rinda ham maqsadlarni aniqlashtirishning pedagogik texnologiya doirasida yaratilgan uslublari yordam beradi.

e) An'anaviy o'quv maqsadlarini talabalar hatti-harakati va faoliyati orqali belgilash. Masalan: «kvadrat ildizli tenglamani yechish», «aylana uzunligini hisoblash», «o'simlikning to'qimali tuzilishini o'rganish», «gaz taqsimlash mexanizmini qismlarga ajratish yoki yig'ish» va h.k.

Bir qarashda o'quv maqsadlarini bunday ifodalashda darsni rejalash va o'tkazishga aniqlik kiritilganga o'xshaydi. Biroq, bu usulda ham eng muhim ko'rsatkich — o'qitishdan kutiladigan natija e'tibordan tushib qolgan. Lekin bu natija talabaning o'z shaxsi rivojlanishi tomon ichki siljish bo'lib, u talabaning ba'zi bir faoliyatida o'z aksini topadi.

Pedagogik texnologiya tarafdorlari taklif etgan o'quv maqsadlarini aniqlash usuli o'zining yuqori darajada instrumentalligi (o'ta amaliyligi) bilan ajralib turadi. O'quv maqsadlari o'quvchining ishonchli o'lchash va tashqaridan bilib olish mumkin bo'lgan xatti-harakatida ifodalanib, ular o'qitish natijalari orqali shakllantiriladi. Shu bilan birga, o'quvchilarning bu xatti-harakatlarini o'qituvchi yoki ekspert aniq kuzatib baholashi mumkin bo'ladi.

Biroq, bu samarali g'oya dastlab ko'p qarshiliklarga uchradi. Qanday usul bilan o'qitish natijasini o'quvchi-talabaning xatti-harakatlariga o'tkazish mumkin? Bu o'tkazishda qat'iy bir xil ma'noni qanday saqlab qolish mumkin? Bu kabi muammolar asosan quyidagi ikki xil usul bilan hal etilgan:

a) O'quv maqsadlarining shunday majmuyini tuzish kerakki, uning ichida o'quv maqsadlarining toifalari va darajalari ketma-ketligi aniq belgilangan bo'lsin. O'quv maqsadlarining bunday majmuyi pedagogik **taksonomiya** deb ataladi.

b) O'quv maqsadlarini ifodalash uchun shunday aniq va tushunarli tilni topish kerakki, o'qituvchi bu til orqali maqsadlarni aniq ifodalaydigan bo'lsin.

Demak, o'quv maqsadlarini belgilashga yuqorida qayd qilingan aniqliklarni kiritish, pedagogik texnologiyaning odatdagi o'qitish usullaridan tubdan farq qiluvchi dastlabki, eng muhim jihatlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

O'quv maqsadlarining o'ta aniq belgilanishi unga erishganlikni yaqqol nazorat qilishga imkon beradi. Bu esa, o'z navbatida, talaba shaxsini rivojlanib borayotganlik darajasini hamda o'qituvchi faoliyatidagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlab, ularni bartaraf qilish imkonini beradi.

O'quv fani maqsadlarini pedagogik taksonomiya asosida aniqlash ikki bosqichda bajariladi. Birinchi bosqichda fan o'qitilishining umumiy maqsadi aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda esa kundalik va joriy o'quv faoliyatining maqsadlari aniqlanadi, ya'ni fanni qismlarga ajratib aniqlangan o'quv maqsadlarini va talabaning bu bo'limlarni o'zlashtirishdagi intellektual faoliyatining asosiy turlari aniqlaniladi [55].

## O‘quv maqsadlarining nazorat shakllari va ularni test topshiriqlariga aylantirish

*1-jadval*

| Harakatni ifodalovchi fe’llar | Aniq harakat turlari (ko‘rinishlari) | Test topshiriqlari namunasi |
|---|---|---|
| Tatbiq doirasini chegaralang | Obyekt yoki hodisalarning alohida qismlarini ko‘rsating, belgilang, guruhlarga ajrating. | Quyidagilardan qaysi biri dalil (D), qaysilari esa fikr (F) ekanligini aniqlang. |
| Ta’riflang | Aniq qiymat yoki muhim tavsiflarni ifodalaydigan og‘zaki yoki yozma ta’rifni bayon qiling. | Quyidagi iboralarning har biriga ta’rif bering. |
| Yozma ravishda ifodalang | Asosiy belgilar, xususiyatlar va o‘zaro maqsadlarni xarakterlovchi og‘zaki, yozma ta’rifni bayon qiling. | Havo namligini o‘lchash yo‘llarini bayon qiling. |
| Konstruksiyalash | Aks ettirish, yasash, yig‘ish, tayyorlash. | Berilgan kattaliklarni aks ettiruvchi diagramma tuzing. |

## 1.2. «Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat» fanining katta modullari, ulardan ko'zlangan maqsadlar va ular tarkibidagi o'rta modullar soni

*2-jadval*

| T/r | Katta modullar nomi | Modullardan ko'zlangan maqsadlar | O'rta modullar soni |
|---|---|---|---|
| 1. | **Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari:** Kadrlar tayyorlash milliy modeli va pedagogik texnologiyaning rivojlanish tarixi hamda uning zamonaviy tasnifi (8 soat) | Talabalarga zamon talabiga javob bera oladigan mutaxassisni tayyorlashda ta'limga yangicha yondashish zarurligini, pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish ijtimoiy zaruriyat ekanligi va O'zbekistonda pedagogik texnologiyani ta'lim amaliyotiga joriy etishning dolzarbligini, uni ta'lim jarayoniga qo'llashda kvantlar nazariyasidan kelib chiquvchi sinergetikaning majmular nazariyasi va uning hosilasi sifatida obyektiv borliqqa majmuiy yondashuv tamoyilining o'rni va ahamiyatini ochib berish. | 3 ta ma'ruza, 1 ta amaliy mashg'ulot |
| 2. | Talabalar faoliyatini faollashtirish va intensivlashga asoslangan ta'lim texnologiyasi (4 soat) | Talabalarda tahsil oluvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish (intensifikatsiya)lashga asoslangan ta'lim texnologiyalari haqida DTSda ko'rsatilgan hajmdagi bilimlarni shakllantirish va bo'lajak pedagog faoliyatida muammoli ta'lim, loyihaviy ta'lim, o'yinli ta'lim usullarini qo'llash uchun zaruriy ko'nikma va malakalarni, | 1 ta ma'ruza, 1 ta amaliy mashg'ulot |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | ta'limga insonparvar yondashuvni, kelajakda har bir o'quvchi-talabada shaxsni ko'ra olish va uni hurmat qilish, tahsil oluvchilar qobiliyatiga ishonch hissini shakllantirish, shuningdek, talabalarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini, ta'limiy vazifa va muammoli vaziyatlarni yaratish, ularni yechish va maqsadli faoliyat ko'nikmalarini paydo qildirish. | |
| 3. | Ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda qo'llaniladigan pedagogik usullar (6 soat) | Talabalarning pedagogika bilan psixologiya o'rtasidagi bog'liqlikni anglashlariga erishish, analitik tafakkurni rivojlantiruvchi usullar bilan tanishtirish, talabalarda usullarni ta'lim maqsadidan kelib chiqib tanlash va qo'llash ko'nikma, malakalarini shakllantirish, shuningdek, analitik tafakkurni rivojlantiruvchi uslublar asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkillashtirish orqali ularda liderlik (yetakchilik), mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. | 1 ta ma'ruza, 2 ta amaliy mashg'ulot |
| 4. | O'quv materialini didaktik takomillashtirish va rekonstruksiyalash asosidagi ta'lim usullari (4 soat) | Talabalarda jamiyat va fanning hozirgi rivojlanish bosqichida axborotning tutgan o'rni, ta'lim mazmunini shakllantirishga zamonaviy yondashuv, ta'lim jarayonida ta'lim mazmuni va unga kiritilgan ma'lumotni tahsil oluvchida hosil qilishda o'quv vositalarning roli, modulli ta'lim usuli | 1 ta ma'ruza, 1 ta amaliy mashg'ulot |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | bilan tanishtirish, ularda ta'lim mazmunini rekonstruksiya qilish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda mustaqil bilim olish va katta hajmdagi ma'lumotlarni o'rganish va rekonstruksiya qilish uchun zarur bo'lgan sifatlarni shakllantirish. | |
| 5. | O'quv mashg'ulotlarini loyihalash (6 soat) | Talabalarda ta'limga texnologik yondashuvni, ta'lim jarayoniga qo'yiladigan talablar, o'quv jarayonini tashkillashtirish va amalga oshirish bosqichlari, o'quv-tarbiya jarayonini loyihalash ko'nikmalari va malakalarini shakllantirishni amalga oshirish bosqichlari, o'quv-tarbiya jarayonini loyihalash ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish. | 1 ta ma'ruza, 2 ta amaliy mashg'ulot |
| 6 | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (4 soat) | Talabalarda ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishga oid bilimlarni shakllantirish, ta'lim jarayonida ushbu texnologiyalarni qo'llash hamda ta'lim mazmunini raqamli informatsiyaga aylantirishning pedagogik-psixologik jihatlari bilan tanishtirish, axborot texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash uchun zaruriy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, shuningdek, ularda dasturlashtirilgan ta'limning maqsad va mohiyati, ushbu ta'lim texnologiyasining yutuqli tomonlari hamda kamchiliklari | 1 ta ma'ruza, 1 ta amaliy mashg'ulot |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | haqida tushuncha hosil qilish, turli manbalardan, jumladan Internet orqali kirib kelayotgan yangi axborotlarga tanqidiy yondashuvni shakllantirish va kompyuterga nisbatan to'g'ri munosabatni, ya'ni uni qulay vosita sifatida qabul qilishni va qo'llashni o'rgatish, kompyuterning inson ruhiyati va salomatligiga yetkazishi mumkin bo'lgan zararlarini anglashlariga erishish. | |

## O'rta modullar va o'quv soatlarining umumiy soni

*3-jadval*

| T/r | O'rta modullar | Soni va soati |
|---|---|---|
| 1. | O'rta modullarning umumiy soni | 16 |
| 2. | Ma'ruza o'quv soatlari | 16 |
| 3. | Amaliy mashg'ulot soatlari | 16 |
| 4. | Mustaqil ta'lim soatlari | 14 |
| 5. | Jami o'quv soatlari | 46 |

# I. BIRINCHI KATTA MODUL –
## *Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari: Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va pedagogik texnologiyaning rivojlanish tarixi hamda uning zamonaviy tasnifi*

(3 ta ma'ruza va 1 ta amaliy mashg'ulot modullari)

## 1. BIRINCHI KATTA MODULNING BIRINCHI O'RTA MODULI (ma'ruza) – Ta'limni modernizatsiya qilish masalasining dolzarbligi va pedagogik texnologiya g'oyasining vujudga kelishi hamda kvantlar nazariyasi va sinergetika, majmular nazariyasi va majmuiy yondashuv tamoyili

### 1.1. Birinchi katta modul tarkibidagi birinchi o'rta modulning umumiy maqsadi

*1.1.1-jadval*

| |
|---|
| O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov tashabbusi va bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan Kadrlar tayyorlash Milliy modelining bosh maqsadi barkamol inson va yetuk malakali mutaxassis yyetishtirish va shaxsga yangicha qarashning tub mohiyatini, jamiyat va iqtisodiyotning bugungi rivojlanish bosqichida ta'lim oldiga yangicha talablarning qo'yilishi va buning natijasida o'qitishning yangicha konsepsiyasi, yangicha yondashuvning vujudga kelishini va pedagogik texnologiyaning paydo bo'lish omillarini hamda bu omillarning tarixan va mantiqan bog'liqligini, shuningdek, O'zbekistonning zamonaviy milliy pedagogik texnologiya modelini yaratish zaruriyatini, buning uchun esa talabalarda ilm-fanning hozirgi rivojlanish bosqichidagi sinergetika g'oyalaridan kelib chiquvchi majmuiy yondashuv tamoyilini belgilab berayotganligi va buning barcha fanlar rivojlanishiga, shu jumladan, pedagogika faniga ham ko'rsatayotgan ta'sirini talabalar ongiga yetkazish. |

## 1.2. Birinchi o'rta modulning kichik modullarining nomlari va maqsadlari

*1.1.2-jadval*

| | | |
|---|---|---|
| 1. | Jamiyat taraqqiyoti va erkin fikrlovchi shaxsni shakllantirish va pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish – ijtimoiy zaruriyat bo'lganligi tufayli «ta'lim texnologiyasi»ning vujudga kelishi va uning rivojlanish bosqichlari. | «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da belgilangan O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlar strategiyasini va «Kadrlar tayyorlash Milliy modeli»ning tub mohiyatini va shaxsga yangicha qarashni, ta'lim tizimidagi islohotlarda pedagogik texnologiyaning o'rnini, pedagogik texnologiyaning vujudga kelishi omillarini, pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish mohiyatini, hozirda ta'lim sohasining oldiga qo'yilayotgan vazifa – ta'limga pedagogik texnologiyani tatbiq etish g'oyasini bilish va uning vujudga kelish bosqichlarini talabalarga o'rgatish. |
| 2. | Jahondagi didaktik tizimlar va pedagogik texnologiyaning vujudga kelishi hamda ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyani samarali joriy etish yo'lidagi muammolar. | Talabalarga O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiya o'zbek milliy modelining yaratilishi va uni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llash zarurligini uqtirish, pedagogik texnologiya beshta sababiy shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbir ekanligini va pedagogik texnologiyani boshqa ta'lim usullaridan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish, ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyani samarali joriy etish yo'lidagi muammolarni ularga ochib berish. |
| 3. | Kvantlar nazariyasidan kelib chiquvchi sinergetik dunyoqarashning hosilasi bo'lgan majmular nazariyasi va ta'lim-tarbiya sohasida majmuiy yondashuv tamoyilidan foydala[illegible] | Talabalarga kvant nazariyasi va sinergetika g'oyalariga oid bilimlarning mohiyatini tushuntirish, majmu tushunchasini ta'riflab berish, unga xos belgilarni aytib, turlarini, tamoyillarini sanab berish, «majmuiy» yondoshuv tamoyilini ta'lim jarayoniga bog'lay olishni va darsni majmu sifatida ta'riflay olishni hamda majmuiy yondashuvning ahamiyatini to'g'ri tushuntirish. |

## 1.3. Kichik modullardagi tayanch tushunchalar va ular asosida tuzilgan nazorat savollari

*1.1.3-jadval*

| T/r | Tayanch tushun-chalar | Nazorat savollari |
|---|---|---|
| 1. | Ta'lim moderni-zatsiyasi, barkamol shaxs, kadr-lar sifati, demokrat-lashtirish, pedagogik texnika («ta'lim texnikasi») | 1. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maq-sadi nima?<br>2. Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiya-ning asosiy g'oyasini tahlil qilib ko'ring.<br>3. Zamonaviy malakali mutaxassis sifatlarini sanab bering.<br>4. Shaxsda zamonaviy malakali mutaxassis ega bo'lishi kerak bo'lgan sifatlarni shakllantirish uchun qanday ishlarni amalga oshirish zarur?<br>5. Ta'lim jarayonida shaxs qanday rollarni ijro etadi?<br>6. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'limiy islohotlarda pedagogik texnologiyaning tutgan o'rnini baholab bering.<br>7. Ta'lim texnologiyasi g'oyasining vujudga kelish bosqichlarini sanab bering, ularni sharhlab bering. |
| 2. | Didaktik tizim, texnologik jarayon, pedagogik jarayon, obyekt, subyekt | 1. Jahondagi didaktik tizimlarni tahlil qilib bering. |
| | | 2. Texnologik jarayon deb qanday jarayonga ay-tiladi? |
| | | 3. Ishlab chiqarishda texnologik jarayon nima maqsadda qo'llaniladi? |
| | | 4. Ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonning qaysi jihatlarini ta'lim jarayoniga qo'llash mum-kin, deb o'ylaysiz? |
| | | 5. «Tahsil oluvchi talim jarayoni subyektiga aylanishi kerak» degan fikrni qanday tushunasiz? |
| | | 6. Tahsil oluvchini ta'lim jarayoni subyektiga ay-lantirish uchun nima qilish kerak? |
| | | 7. Tahsil oluvchini ta'lim jarayoni subyektiga aylantirish nima [illegible] |

SAMARQAND IQTISODIYOT [illegible] INSTITUTI
AXBOROT [illegible] MARKAZI
461018

| | | |
|---|---|---|
| 3 | Kvant nazariyasi, sinergetika, fuksional aloqadorlik, sistemalar nazariyasi, tizim, majmua, majmu, zamonaviy dars, «pog'onadorlik» (ierarxiyalilik) | 1. «Kvant nazariyasi» va «Sinergetika»ning mohiyatini aytib bering.<br>2. Sistemalar nazariyasini tushuntirib bering.<br>3. «Tizim», «majmua» va «majmu» tushunchalari farqini aytib bering.<br>4. Majmu turlari, tamoyillarini sanab bering, ularni sharhlang.<br>5. Majmu tushunchasini ta'lim jarayoniga nisbatan qo'llang.<br>6. Har bir ishda majmular nazariyasidan kelib chiqish qanday natija beradi?<br>7. Ta'lim jaryonida darsning o'rnini izohlang. |

**Izoh.** Kichik modullardagi nazorat savollaridan talabalar mustaqil ta'limida ham foydalanadilar.

## 1.4. Kichik modullarning nazorat savollari asosida tuzilgan test

*1.1.4-jadval*

| T/r | Savollar | Mumkin bo'lgan javoblar | |
|---|---|---|---|
| 1. | Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida islohotlar boshlab yuborilganligining asosiy sababi nima? | 1 | Rivojlangan mamlakatlardan andaza olingani. |
| | | 2 | Texnik taraqqiyot natijasida o'quv vositalarining takomillashganligi. |
| | | 3 | Kadrlar sifatiga qo'yiladigan talablarning o'zgarganligi. |
| | | 4 | Davlat ta'lim standartlarining qabul qilingani. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2. | Kadrlar sifatiga qo'yiladigan talablarning o'zgarganligi, eng avvalo, ta'limning qaysi tarkibiy qismining o'zgarishini keltirib chiqardi? | 1 | Ta'lim shakli. |
| | | 2 | Ta'lim tizimi. |
| | | 3 | Ta'lim mazmuni. |
| | | 4 | Ta'lim maqsadi. |
| 3. | Nima sababdan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ta'limga pedagogik texnologiyani joriy qilishga muhim ahamiyat qaratilgan? | 1 | Pedagogik texnologiyani joriy qilish – zamon talabiga aylanganligi. |
| | | 2 | Ta'limda kompyuter texnologiyalarni qo'llash zaruriyati tug'ilganligi. |
| | | 3 | O'zgargan ta'lim maqsadi ta'lim jarayoniga bo'lgan yondashuvni tubdan o'zgartirishni talab qilishi. |
| | | 4 | Dunyo mamlakatlariga integratsiyalashuv uchun O'zbekiston ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi kabi tashkillashtirilishi zarur ekanligi. |
| 4. | Nima sababdan hozirda mutaxassisdan mustaqil ta'lim olish, o'z malakasini mustaqil oshirib borish ko'nikmasi shakllangan bo'lishi talab qilinmoqda? | 1 | Barcha sohalarda raqobatning kuchayganligi. |
| | | 2 | Axborotlarning tezkor sur'atda ko'payib borishi, yangilanishi. |
| | | 3 | Globallashuv jarayoni mutaxassisga turli mamlakatlarga qarashli korxonalarda ishlash imkoniyatini berayotganligi. |
| | | 4 | Mutaxassislarning ta'limga bo'lgan motivatsiyasining tobora kuchayib borayotganligi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 5. | An'anaviy ta'limga asoslangan pedagogik jarayonda shaxsda qaysi sifatlarni shakllantirish ayniqsa qiyin? | 1 | Mustaqil tafakkur, ijodkorlik. |
| | | 2 | Mustahkam bilim, ko'nikma. |
| | | 3 | Mustahkam xotira, mas'uliyat. |
| | | 4 | Kasbiy bilimlar, intizom. |
| 6. | Tahsil oluvchining ta'lim jaryoni subyektiga aylanishi nimani anglatadi? | 1 | O'quvchining o'qituvchiga aylanishini. |
| | | 2 | O'quvchining mustaqil ta'lim olishini. |
| | | 3 | O'quvchi ta'lim jarayonining teng huquqli, faol qatnashchisiga aylanishini. |
| | | 4 | O'quvchilar o'z-o'zini nazorat qilishini. |
| 7. | «Texnologik jarayon» ta'rifi qaysi javobda to'g'ri berilgan? | 1 | Eng zamonaviy texnik jihozlar qo'llaniladigan murakkab jarayon. |
| | | 2 | Zamon talablariga javob bera oladigan, zamonaviy texnikada samarali ishlay oladigan mutaxassislar qatnashadigan jarayon. |
| | | 3 | Muhandis-texnologlar tomonidan loyihalashtirilgan, texnik jihozlar vositasida amalga oshiriladigan jarayon. |
| | | 4 | Muayyan mahsulotni ishlab chiqarish maqsadida xomashyoni tanlashdan mahsulotni iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan jarayon. |
| 8. | «Majmu»ni «majmua»-dan farqlovchi asosiy jihat. | 1 | Tarkibiy qismlarining o'zaro funksional aloqadorlikda ekanligi. |
| | | 2 | Tarkibiy qismlari tizimli joylashgani. |
| | | 3 | Tarkibiy qismlari o'rtasida funksional aloqalarning yo'qligi. |
| | | 4 | Tarkibiy qismlari o'rtasida ko'p tarmoqli bog'lanishlarning mavjudligi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 9. | Ta'lim-tarbiya tizimiga majmu sifatida yondashib, uning belgilarini aniqlang. | 1 | Tartibli, tezlikka ega, ikki qarama-qarshi tizimli, markazalshmagan. |
| | | 2 | Tizimli, ochiq tipdagi, rivojlanib boruvchi, tiklanuvchi, tartibli, ko'p pog'onali, markazlashgan, immanent, murakkab. |
| | | 3 | Variativ, ochiq tipdagi, rivojlanib boruvchi, tizimli, turg'un, murakkab, tiklanuvchi, ko'p pog'onali, markazlashgan, immanent. |
| | | 4 | Tizimlashgan, yopiq tipdagi, tugallangan, murakkab, minimal, immanent, qadrli, to'liq, ko'p pog'onali. |
| 10. | Sinergetikaning asosiy tamoyillari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan? | 1 | Bir butunlik, pog'onadorlik, majmu qismlarining o'z pog'onasidagi qismlar bilan barobar, boshqa pog'onadagi qismlar bilan ham aloqada bo'la olishi. |
| | | 2 | Muhimlik, pog'onadorlik, bir butunlik, majmu qismlarining o'z pog'onasidagi qismlar bilan barobar, boshqa pog'onadagi qismlar bilan ham aloqada bo'la olishi. |
| | | 3 | Nisbiylik, bir butunlik, majmu qismlarining o'z pog'onasidagi qismlar bilan barobar, boshqa pog'onadagi qismlar bilan ham aloqada bo'la olishi. |
| | | 4 | Kafolatlanganlik, majmu qismlarining o'z pog'onasidagi qismlar bilan barobar, boshqa pog'onadagi qismlar bilan ham aloqada bo'la olishi, pog'onadorlik. |

## 1.5. Kichik modullarning o'quv mashg'uloti turi va tipi, unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar

*1.1.5-jadval*

| | |
|---|---|
| O'quv mashg'uloti-ning shakli | Kirish, dialogli, ko'rgazmali, muammoli ma'ruza. |
| O'quv mashg'uloti-ning turi va tipi | Aralash dars; yangi bilimlarni egallash; bilimni ko'nikmaga aylantirish. |
| Qo'llaniladigan uslublar | Tushuntirish; aytib berish; illustratsiya; FSMU; muammoli munozara; ko'rgazma-li, muammoli ma'ruza, test. |
| Ta'lim vositalari | PowerPoint dasturida ishlangan taqdimot, FYOTV (fikrlarni yozish va taqdim etish uchun vositalar). |
| Ta'lim shakllari | Yakka holda, jamoaviy, ommaviy. |
| O'qitish sharoitlari | Multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash | FSMU usuli bo'yicha yozma ishlar, ku-zatish, munozaralar davomida beriladigan javoblar, test. |

## 1.6. Kichik modullarning pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot-komunikatsion texnologiyalar va didaktik materiallar

*1.1.6-jadval*

| **O'qitishning texnik vositalari** | **Didaktik materiallar** |
|---|---|
| Birinchi, ikkinchi va uchinchi kichik modullar davomida mavzuga mos slaydlar namoyish qilinadi. Shuningdek, nazorat savollari va shu savollar asosida tuzilgan test slaydlar orqali namoyish qilinadi. | Pedagogik texnologiyaga oid darsliklar, uslubiy qo'llanmalar va ko'rgaz-mali qurollar |

| Ish bos-qichlari va vaqti | O'quv jarayoni | |
|---|---|---|
| | **ta'lim beruvchi** | **ta'lim oluvchilar** |
| 1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa) | 1.1. Fanning talabalarning bo'lajak kasbi uchun bo'lgan ahamiyati, boshqa fanlar orasida tutgan o'rnini yoritib beradi. O'quv kursini tashkillashtirish jihatlarini talabalarga yetkazadi.<br>1.2. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot muammoli ta'lim texnologiyasi asosida tashkillashtirilishi, uning bosqichlarini ma'lum qiladi, talabalar bilimlarini baholash tartibini tushuntirib beradi. | 1.1. Tinglaydilar, aniqlashtiruvchi savollar berishlari mumkin. |
| 2-bosqich. Asosiy (65 daqiqa) | 2.1. Muammoli savol berish orqali muammoli vaziyatni shakllantiradi: «Nima uchun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarida o'quv-tarbiya sohasiga pedagogik texnologiyani joriy etishga katta ahamiyat berilmoqda?»<br><br>2.2. Asosiy muammoni yechish uchun kichik muammolarni shakllantirish faoliyatini boshqaradi:<br>- *Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarida pedagogik texnologiya qanday o'rin egallaydi?*<br>- *«Texnologiya» tushunchasini pedagogikaga qo'llash nimaga asoslangan?*<br>- *Ta'lim samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyaning ahamiyati ilmiy asoslanganmi?* | 2.1. Muammoli savolni tinglaydilar, unga javob topishga harakat qilib, turli fikrlar bildiradilar.<br>2.2. Kichik muammolarni shakllantirishda qatnashadilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | 2.3. Birinchi va ikkinchi muammoli savollar yechimini izlashga qaratilgan faoliyatni tashkillashtiradi.<br>Birinchi kichik modul bo'yicha slaydlar namoyish qilib, axborot beradi (1-katta modulning birinchi o'rta moduli slaydlari).<br>Ma'ruzaning ikkinchi kichik moduli bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash, nazoratni amalga oshirish maqsadida test o'tkazadi (19 ta test) va test kalitini taqdim qilib, talabalarga o'z bilimlarini tekshirishlari uchun sharoit yaratadi.<br>Yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashtiradi va ularni to'g'rilash bo'yicha faoliyatni tashkillashtiradi: testni to'g'ri yechgan talabalarga so'z beradi, zarur holatda o'zi qaytadan ma'lumotni tushuntiradi.<br>- *Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarida pedagogik texnologiyalar qanday o'rin egallaydi?*<br>- *«Texnologiya» tushunchasini pedagogikaga qo'llash nimaga asoslangan?* muammoli savollar yechimini topishga qaratilgan munozarani tashkillashtiradi va javoblarni umumlashtiradi. | 2.3. Axborotni tinglaydilar, muhim ma'lumotlarni yozib boradilar.<br>Test yechadilar, test kaliti yordamida o'z-o'zlarini nazorat qiladilar, xatolar ustida ishlash jarayonida qatnashadilar.<br>Muammoli savol yechimini topishga qaratilgan munozarada qatnashadilar. |
| | 2.4. Ikkinchi kichik modul bo'yicha slaydlar namoyish qilib, axborot beradi (1-katta modulning ikkinchi o'rta moduli slaydlari).<br>Ma'ruzaning ikkinchi kichik moduli bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash maqsadida suhbat o'tkazadi. | 2.4. Axborotni tinglaydilar, muhim ma'lumotlarni yozib boradilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | Ma'ruzaning ikkinchi kichik moduli bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash, nazoratni amalga oshirish maqsadida test o'tkazadi (10–12 ta test) va test kalitini taqdim qilib, talabalarga o'z bilimlarini tekshirishlari uchun sharoit yaratadi.<br>Yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashtiradi va ularni to'g'rilash bo'yicha faoliyatni tashkillashtiradi: testni to'g'ri yechgan talabalarga so'z beradi, zarur holatda o'zi qaytadan ma'lumotni tushuntiradi.<br>- *Ta'lim samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyaning ahamiyati ilmiy asoslanganmi?* muammoli savol yechimini topishga qaratilgan munozarani tashkillashtiradi va javoblarni umumlashtiradi. | Test yechadilar, test kaliti yordamida o'z-o'zlarini nazorat qiladilar, xatolar ustida ishlash jarayonida qatnashadilar. Muammoli savol yechimini topishga qaratilgan munozarada qatnashadilar. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa) | 3.1. Refleksiya faoliyatini tashkillashtiradi – talabalarni mashg'ulot natijasida o'rganilgan mavzu bo'yicha o'zlarida shakllangan bilim, tasavvur, munosabatlarni tahlil qilishga undaydi; shu yuzasidan 56 talabaning fikrini so'raydi. | 3.1. Refleksiyani amalga oshiradilar. |

*1.6.1-ilova*

**«FSMU» usuli**

| | |
|---|---|
| F | Har qanday mamlakatning rivojlanishida ta'lim eng muhim omildir. |
| S | |
| M | |
| U | |

F — «fikr» so'zini anglatib, ma'lum bir fikrni ifodalaydi. Berilgan fikr muammo xususiyatiga ega bo'ladi va talaba ko'rilayotgan masalaga o'z munosabatidan kelib chiqib, uni qo'llab-quvvatlaydi yoki inkor qiladi — buning uchun fikrni o'zgartirishsiz qoldiradi yoki inkor gap shakliga aylantiradi.

S — «sabab» so'zini anglatib, talabadan o'z nuqtayi nazarini sababni keltirish orqali ochishga undaydi.

M — «misol» so'zini anglatib, fikrini isbotlash uchun misol keltirishni nazarda tutadi.

U — «umumlashtirish» qatorini to'ldirish uchun talaba oldin yuqoridagi fikrlarini qaytadan o'qib chiqadi, ular asosida berilgan masala bo'yicha yakuniy xulosa chiqaradi va uni yozib qo'yadi.

## 1.7. O'rta modulning mazmunini ifoda etuvchi matn ssenariysi

### Birinchi kichik modul

Mamlakatimizda yetuk mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqdaki, bu muammoni ijobiy hal qilmasdan turib, mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirib bo'lmaydi. Respublikamizda barkamol shaxs va yetuk mutaxassislarni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov tashabbusi va bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan Kadrlar tayyorlash Milliy modelining bosh maqsadi komil inson va yetuk malakali mutaxassis yetishtirish, shu asosda jahon hamjamiyatida o'z o'rni va nufuziga ega bo'lishdan iboratdir. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida shaxsga yangicha qarash g'oyasi ilgari surilgan.

Kadrlar tayyorlash Milliy modeli: shaxs, davlat, jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarishdan iborat.

Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat:

— ta'lim jarayonida shaxs obyekt emas, subyekt hisoblaniladi;

– har bir tahsil oluvchi qobiliyat egasi, kamchiligi esa iste'dod egasi hisoblanadi;

– etnik qadriyatlar (sahiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustuvor hislatlari hisoblanadi.

Munosabatlarda demokratlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– tahsil oluvchi va ta'lim beruvchi huquqlarini hurmatlash;

– xatoga yo'l qo'yish huquqi;

– o'z nuqtayi nazariga ega bo'lish huquqi;

– tahsil oluvchi va ta'lim beruvchi munosabati zayli: ta'qiqlamaslik; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish.

Shaxs ta'lim jarayonining obyekti emas, balki endi uning subyektiga, asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. O'qituvchi, ta'lim muassasasining zo'ravoni emas, «pedagogik hamkorlikni» ta'minlovchi bo'ladi. «Tahsil oluvchini hayotga tayyorlash» tamoyili «Tahsil oluvchi ta'limning barcha bosqichida to'laqonli, faol hayot bilan yashaydi» tamoyili bilan almashadi, ta'lim jarayonidagi barcha qatnashuvchilarning vazifasi tahsil oluvchilar faoliyatining samarali, ijodiy bo'lishini ta'minlashdan iborat bo'ladi.

Jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqeyi kundan-kunga ortib bormoqda. Ammo ijtimoiy sohada va, ayniqsa, ta'lim-tarbiyada (ba'zi ilg'or o'quv muassasalari bundan mustasno) depsinish va umumiy taraqqiyotdan orqada qolish sezilmoqda. Bunday noxush vaziyatdan chiqib ketish yo'llaridan biri ta'lim-tarbiya jarayonini qabul qilingan davlat standarlari asosida texnologiyalashtirishdir.

Ma'rifatli va rivojlangan mamlakatlarda muvafaqqiyat bilan qo'llanib kelinayotgan pedagogik texnologiyani o'rganib, xalqimizning milliy pedagogika an'analaridan hamda ta'lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda O'zbekistonning zamonaviy milliy pedogik texnologiya modelini yaratish zaruriyati paydo bo'ldi.

Texnologiya sohasi ijtimoiy zarurat mahsulidir. Uning takomillashib borishi qisqa vaqt oralig'ida, kam kuch va vaqt sarflagan holda yuksak sifatli mahsulot ishlab chiqarish, xomashyoni qayta ishlash sohalarida mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv an'anasi yuzaga kelgan.

Texnologik yondashuv ishlab chiqarish jarayonining umumiy tavsifini yoritishga xizmat qiladi. Muayyan mahsulotni ishlab chiqarish maqsadida xomashyoni tanlash (dastlabki bosqich)dan mahsulotni iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan (so'nggi bosqich) davrni o'z ichiga olgan jarayon texnologik jarayon sifatida e'tirof etiladi; muayyan sohalarda islohotlarni tashkil etish, ularning muvaffaqiyatini ta'minlash, erishilgan yutuqlarni boyitib borish kabi maqsadlarga erishishning samarali omili sifatida namoyon bo'ladi.

Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o'ta qat'iy hamda murakkab talablar qo'yilmoqda. Chunonchi, murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to'laqonli anglash imkoniyatiga ega, favqulodda ro'y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal eta oluvchi malakali mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj ta'lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etishni taqozo etmoqda.

Shu bois, ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanib borayotgan pedagogika fanining vazifalari doirasi kengayib bormoqda. Ayni vaqtda **respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va ko'p sohalarni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda tahsil oluvchiga yetkazib berishni jadallashtirishni ham yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi**. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani

tatbiq etish yuqorida aytilgan dolzarb muammolarni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Yevropa hamda AQSHda ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash va bu borada muayyan muvaffaqiyatga erishish borasidagi ijtimoiy ehtiyojni qondirishga urinish natijasida vujudga kelgan.

**30-yillarda** nashr etilgan maxsus adabiyotlarda **«pedagogik texnika»** bu o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkillashtirishga imkon beruvchi usul, vositalar yig'indisi deyilgan.

**50-yillarda** pedagogik texnologiyalarning asosiy ko'rsatkichi deb ta'lim jarayonida o'qitishning texnik vositalarini qo'llash deb tushunilgan.

**60-yillar** boshida **«pedagogik texnologiya»** atamasining ta'rifi ta'lim jarayonini dasturlash asosida tashkillashtirish, degan g'oyaga asoslandi.

**70-yillarda** «pedagogik texnologiya» atamasi qo'llanilib, u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini ifodalagan.

Mustaqillik sharoitida O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalari faoliyati jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani olib kirishga qaratilgan harakat bir qator yetakchi tashkilotlar tomonidan olib borilmoqda. So'nggi besh yil davomida yuqorida nomlari keltirilgan tashkilotlarning ko'magi va rag'bati asosida respublikaning bir qator yetakchi oliy ta'lim muassasalari qoshida innovatsion (pedagogik texnologiya) markazlar tashkil etildi [44].

Ilmiy jamoa hamda ilmiy jurnallar faoliyatining asosiy mazmuni ta'lim texnologiyasi muammolari bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar mazmuni va natijalarini umumlashtirib, tahlil etib borish, shuningdek, ushbu tadqiqotlar natijalarining tahlili asosida muayyan tavsiyalarni ishlab chiqish, eng samarali tadqiqotlarni ommalashtirishdan iboratdir.

Lekin, ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyani joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan andaza va ko'rsatmalar yetarli emas. Xususan, aksariyat manbalarda pedagogik texnologiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi, faqat uning nazariy asoslarinigina ochib berishga harakat qilingan; o'rganilgan aksariyat manbalarda «pedagogik texnologiya»ning ta'rifi ham yoritib berilgan bo'lsada, bu sohada hanuz yagona bir ta'rif yaratilgan emas; mavjud adabiyotlarning deyarli barchasida asosiy urg'u ta'lim texnologiyalari, ularning mohiyati va afzalliklari kabi masalalarning tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, u ham bo'lsa «majmuiy yondashuv» asosida qilinmagan hamda tarbiya texnologiyasi va uning mohiyatini ochib berish borasida muayyan yutuqlarga erishilmagan; amalga oshirilgan tadqiqotlarda uzluksiz ta'lim tizimining ma'lum bosqichida ta'lim muassasalari o'quv faoliyatini texnologiyalashtirish muammolari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

## Ikkinchi kichik modul

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida, ko'p marotaba ilg'or pedagogik texnologiyani o'rganib, ularni o'quv muassasalarimizga olib kirish zarurligi uqtirilgan.

Respublikamizning pedagogik olim va amaliyotchi pedagoglariga ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan o'zbek milliy ta'lim texnologiyasini yaratish va uni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llash vazifasi qo'yilgan.

Ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayoniga majmular nazariyasiga to'la suyanuvchi zamonaviy pedagogik texnologiyani joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan andaza va ko'rsatmalar yetarli emas edi. Xususan, aksariyat manbalarda pedagogik texnologiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi, faqat uning nazariy asoslarinigina ochib berishga harakat qilingan; o'rganilgan aksariyat manbalarda «pedagogik texnologiya»ning ta'rifi yoritib berilgan

bo'lsada, mavjud adabiyotlarning deyarli barchasida asosiy urg'u ta'lim texnologiyalari, ularning mohiyati va afzalliklari kabi masalalarning tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, u ham bo'lsa majmuiy yondashuv tamoyili asosida qilinmagan, inchunun tarbiya texnologiyalari va ularning mohiyatini ochib berish borasida muayyan yutuqlarga erishilmagan; amalga oshirilgan tadqiqotlarda uzluksiz ta'lim tizimining ma'lum bosqichida ta'lim muassasalari o'quv faoliyatini texnologiyalashtirish muammolari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ayni vaqtda uzluksiz ta'lim tizimining muayyan bosqichida ta'lim muassasalari, shu jumladan, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyani joriy qilish muammosi dolzarb pedagogik muammo sifatida tadqiq etilishga muhtoj bo'lib kelayotgan edi.

2009-yilga kelib, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi tomonidan bu masala nazariy jihatdan hal qilindi. Biroq shuni ham qayd etish kerakki, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga tatbiq etilishini keng tus oldirish lozim. Ayni vaqtda bu sohada muayyan muammolar ham mavjud. Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida quyidagi muammolar mavjud ekanligi aniqlandi:

1. Zamonaviy pedagogik texnologiya, shuningdek, ta'lim texnologiyasi nazariyasining mohiyati, uning nazariy va amaliy asoslari borasida ma'lumotlar berishga xizmat qiluvchi manbalar, maxsus adabiyotlar va metodik ishlanmalar hamda pedagogik texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq qilish bo'yicha andazalarning yetarli emasligi.

2. Uzluksiz ta'lim muassasalari, shu jumladan, OTM lar pedagoglarining ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyani tatbiq etish borasida yetarli tajriba orttirilmaganligi.

3. Uzluksiz ta'lim muassasalari, shu jumladan, OTM larda zamonaviy pedagogik texnologiyadan foydalanish uchun moddiy-

texnik baza bilan yetarli darajada ta'minlash muammosini ijobiy hal qilinmaganligi.

4. Ommaviy axborot vositalari (OAV) xizmati orqali zamonaviy pedagogik texnologiya nazariyasining mohiyati hamda pedagogik texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq etish borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, yangi tajribalar haqida ma'lumot beruvchi tahliliy chiqishlarning uyushtirilishiga yetarli darajada e'tibor qaratilmaganligi.

6. Ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi xalqaro donor tashkilotlarining imkoniyatlaridan foydalangan holda, zamonaviy pedagogik texnologiya nazariyasi va uning ilmiy-amaliy asoslarini targ'ib etishga yo'naltirilgan keng ko'lamli harakatning tashkil etilmaganligi.

7. Uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichiga pedagogik texnologiyani tatbiq etishning nazariy va amaliy asoslarini ochib berishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining sust olib borilayotganligi, maxsus tavsiyanomalarning kamligi.

Yuqorida aytilgan muammolarning ijobiy yechimga ega bo'lishini ta'minlash uzluksiz ta'lim muassasalari, shu jumladan, OTMlar ta'limi jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyani joriy qilish muvaffaqiyatini kafolatlaydi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq qilish bo'yicha quyidagi tadbirlarni amalga oshirish kerak bo'ladi:

– pedagogik texnologiyani joriy etish va ularni qo'llash bo'yicha xalqaro tajribalar almashish tizimini takomillashtirish;

– respublika ta'lim tizimida o'qitiladigan barcha fanlar o'quv mashg'uloti va darslarining loyihasini ishlab chiqish;

– ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyani joriy etish bo'yicha maxsus qo'llanma va andazalarni yetarli darajada yaratish, mustaqil ishlarni baholashda pedagogik texnologiyani alohida baholashning usullarini ishlab chiqish;

– ta'lim muassasalarini zamonaviy pedagogik texnologiyani ta'lim jarayoniga yuqori darajada tatbiq qilishga asos bo'ladigan texnik vositalar, auditoriya jihozlari, asbob-uskunalar bilan ta'min-

lash, slayd prezentatsiyalarini o'tkazish mumkin bo'lgan kattaroq (50—60 nafar talabaga mo'ljallangan) xonalarni multimedia majmualari bilan jihozlash;

— yangidan-yangi vaziyatli muammolarni talabalarga tavsiya etish va ularni hal qilishning qulay usullarini o'ylab topish, tarqatma materiallarni yangi ma'lumotlar asosida to'ldirib va yangilab borish, laboratoriya darslarida axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha dasturlar tuzish va ularni talabalar tomonidan foydalanilishiga erishish;

— zarur o'quv-uslubiy majmularni tayyorlash uchun kafedralarni yetarli orgtexnikalar bilan ta'minlash va professor-o'qituvchilarni kompyuter savodxonligi hamda alohida zamonaviy pedagogik texnologiya bo'yicha malaka oshirish yoki qayta tayyorlashni yanada takomillashtirish;

— ta'lim texnologiyasi g'oyalarining ta'lim jarayoniga to'laqonli tatbiq etilishi uchun mintaqaviy ichki imkoniyatlarni puxta o'rganish;

— fanlarning o'qitilishi jarayoniga ilg'or texnologiyalarni joriy etish choralarini belgilash, zarur shart-sharoitlarni yaratish;

— barcha turdagi ta'lim muassasalarining pedagog xodimlarini qayta tayyorlash, ularning ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish malakalarini oshirish;

— ta'lim subyektlarining texnikaviy savodxonligiga erishish;

— tezkor axborot xizmatini yo'lga qo'yish;

— pedagogik jarayonning demokratlashuv va insonparvarlashuviga erishish;

— tahsil oluvchining individuallashuviga alohida ahamiyat berish;

— tadqiqotlar natijalarini tahlil etish, umumlashtirsh, tavsiyalarni ishlab chiquvchi markazni tashkil etish.

Mazkur muammolarning ijobiy hal etilishi ta'lim-tarbiya jarayonlarida muayyan samaradorlikka erishish bilan bir qatorda barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalashga imkon beradi.

**Jahondagi didaktik tizimlar. Pedagogik texnologiyaning vujudga kelishi.** Aslida, insoniyat paydo bo'lishi bilan, ta'lim-tarbiya ham shakllana boshlagan. Chunki, katta yoshdagilar hayotiy tajribalari orqali orttirgan bilim va ko'nikmalarini o'sib kelayotgan avlodga o'rgatganlar. Natijada tarbiya berishning ham bilimlari to'plana boshlagan. Ya'ni, kimlarga o'rgatish (nimalarga o'rgatish) va qanday o'rgatish, degan savollarga javob topa boshlaganlar. Bunday tarbiya berish sir-asrorlarini Qadimgi Xitoyda Konfutsiy; O'rta Osiyoda Avesto, Qur'on, Forobiy, Zamaxshariy, Ibn Sino va Beruniy; Hindistonda Budda va Vedalarda hamda Misr va Yunoniston faylasuflarining asarlarida uchratsa bo'ladi. Ammo ta'lim va tarbiyaga oid bilimlarni ilmiy asoslangan ma'lum bir tizimga solib, ularni bir necha bor sinovdan o'tkazib, ravon bir pedagogik nazariya ko'rinishida birinchi bor insoniyatga taqdim etgan olim bu — buyuk chex faylasufi va pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592—1670) bo'lgan. U o'zining «Buyuk didaktika» asarida «Bolalarni necha yoshdan o'qita boshlash lozim? Guruh-guruh qilib o'qitganda guruhdagi bolalar soni qancha bo'lishi kerak? O'sib kelayotgan avlodga nimalarni o'rgatish kerak? Bilim berishda qanday tamoyillardan (prinsiplar) kelib chiqilishi shart? Bilim berishda qanday usullardan foydalanish maqsadga muvofiq? O'qituvchilarning moddiy ta'minoti qanday bo'lishi kerak?» va boshqa bir qator savollarga ilmiy asoslangan va tajribadan o'tgan javoblarni bergan. Yan Amos Komenskiy fikricha, sinfdagi bolalar soni 12 dan oshmasligi kerak, oshib ketsa dars ijro bo'lmaydi. Yoki o'qituvchilarning oylik ish haqi, shaharning birinchi shaxsi oyligidan ko'p yoki uning ish haqi bilan barobar bo'lishi shart. Aks holda o'qituvchining obro'si bo'lmaydi, deb ta'kidlagan. Boshqa masalalarga ham shunday, amalda isbotlangan va ilmiy asoslangan javoblarni bergan edi, alloma.

XVII asr o'rtalaridan boshlab, pedagogika nazariyasi hamda uni o'rganuvchi fan «Didaktika» shakllana boshlagan ekan, o'tgan davr mobaynida ko'pgina pedagog olimlar tomonidan talaygina

didaktik tizimlar taklif etilib, amaliyotga singdirilgan. Ammo ularning hammasi ham tarix sinovidan o'tib, jahonga keng tarqalmadi. Jahondagi ko'pgina mamlakatlar pedagogik amaliyotiga singdirilib, shu kungacha nufuzini saqlab turganlari uchtani tashkil qiladi. Bu ham bo'lsa, chexiyalik faylasuf va pedagog Ya.A.Komenskiyning didaktikasi, olmon pedagogi va psixologi I.F. Gerbart va amerikalik faylasuf, psixolog va pedagogi J.Dyuining didaktik tizimlaridir. Hozirgi zamonda bu tizimlarning ijobiy tomonlarini birlashtiruchi hamda ancha takomillashgan **yangi didaktik tizim** mavjud.

Bular orasida ko'pgina umumiylik bo'lgani bilan farqlari ham ancha. Chunonchi, Ya.A.Komenskiyning didaktik tizimi o'ta gumanistik bo'lib, u bilim berish va bilim olish jarayonini boshqarish o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi degani bilan, bilim olishlik to'la talabalar ixtiyorida bo'lishi kerak, deb hisoblar edi. Ya'ni talabalar bilim olgilari kelsagina ularga bilim berish lozim. Ammo bilimga qiziqtirish o'qituvchiga bog'liq, deyilgan. Shu bois, dars berish usul va uslublari o'ta yumshoq, ya'ni bolalarga tazyiq o'tkazmasdan, ularning xohish-istaklariga qarab dars olib borilishini taqozo etgan.

Muhammad Forobiy «Hudus ul-ulum» («Ilmlarning kelib chiqishi»), «Ixso al-ulum» («Ilmlarning xosiyatlari», «Ilmlar tasnifi» ham deyiladi), «Aflotun qonunlar mohiyati haqida» asarlarida moddiy, texnikaviy bilimlarni (tilshunoslik, matematika, ilmi xiyal — mexanika, manozir — optika ilmlarini) bilishdan avval inson ruhini, ma'naviyatini kamol toptirish zarurligini aytadi. Forobiy inson — Koinotdagi tizimlarning bir qismi, tabiat qonunlariga muvofiq yashashi, haddidan oshmasligi, nafsini jilovlashi, go'zal fazilatlarni egallashi kerakligini uqtiradi.

Qanday va qancha bilim berilishi kerak, degan savolga Ya.A. Komenskiy, bilim turi va hajmi qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik yaxshi, degan aqidadan kelib chiqqan. Shuning uchun Komenskiy didaktikasida, o'qituvchi bilimni berib, o'quvchi uni eslab qolishining o'zi kifoya deyilgan. Sotsialistik inqilob g'alaba

qozongan sho'rolar hokimiyatida aynan Ya.A.Komenskiyning didaktik tizimi qabul qilingan edi. Boshqa deyarli barcha xorijiy mamlakatlarda, shu jumladan, Yevropa mamlakatlari va Amerikada, nisbatan qattiqqo'llikka va zo'rlashga asoslangan I.F.Gerbart didaktik tizimi keng qo'llanilgan.

Gerbartning fikri bo'yicha, maktabning asosiy vazifasi o'quvchilarni aqliy rivojlantirish, ya'niy ularga bilim berishdan iborat bo'lmog'i lozim. Gerbart axloqiy tarbiyaning barcha masalalarini oila hal qilishi kerak deb hisoblaydi. Shu bois, ta'lim berishning asosiy maqsadi tayyor bilimlarni berish, o'quvchilar esa bu bilimlarni yodlab olishlari bilan belgilangan. Gerbart ham, «qancha ko'p bilim berilsa, shunchalik yaxshi», degan aqidadani to'g'ri deb bilgan. Dars jarayonida faollik faqat o'qituvchiga ruxsat berilgan, o'quvchilar esa o'qituvchi aytganlarini mulohazasiz qabul qilib, eslab qolishlari talab qilingan. Gerbart o'quvchilarga jismoniy jazoni ham qo'llashlikni mumkin deb bilgan. Komenskiy esa, bu holga juda qarshi bo'lgan. Bu masalada Forobiy, «ba'zi o'quvchilarga yumshoq usul orqali bilim berilsa, ba'zilariga qattiq usul qo'l keladi» deb turib, ketidan, «ammo yumshoq usul qattiq usuldan afzal» degan edi.

Aziz kitobxon, endi tafakkuringizni yaxshilab ishlatib, bir eslab ko'ringchi, sizning hayotingizda shunga o'xshash usullardan foydalanuvchi o'qituvchilar bo'lganmi? Albatta bo'lgan, chunki bu ikki didaktik tizim qariyb ikki asr davomida yer yuzida hukmronlik qilgan. Garchi, rasmiy sho'rolar hokimiyati Ya.A.Komenskiyning gumanistik dars berishini da'vo qilsalar hamki, ko'pchilik o'qituvchilar Gerbart didaktik tizimini bilmagan holda, uning qoidalariga toyib ketaverganlar. Chunki, Gerbart o'z didaktik tizimini real hayotdan olgan bo'lib, psixologiyaning qonun-qoidalariga suyangan. Undan tashqari, bu usul nisbatan oson bo'lib, o'qituvchidan faqat qattiqqo'llikni talab etib, undan katta intellektual kuch sarflashni talab qilmagan.

XX asr boshlarida amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Jon Dyui, Gerbart didaktik tizimiga qarama-qarshi bo'lgan o'zining didaktik tizimini taklif qildi va uni Chikago maktablaridan birida sinab ko'rdi. Dyui darsda o'qituvchi emas, o'quvchi faol bo'lmog'i lozim degan g'oyani olg'a surdi. Darsda beriladigan bilimlar talabalar ehtiyojiga mos va ularning xohishidan kelib chiqqan bo'-lishi kerak, deydi Dyui. U kitobdagi bilimlarni quruq yod olish hech narsaga olib bormaydi, aksincha, o'quvchilarni o'qishdan sovutib, tafakkurini zanglatadi, deb hisoblaydi. Ta'lim-tarbiyaga Dyuining qo'shgan asosiy hissasi bu – «aql yuritishning to'liq jarayoni»dir. Aql yuritish to'liq jarayonining yetakchi halqasi muammoning paydo bo'lishidir, deydi Dyui. Muammo paydo bo'lganidan keyin, o'quvchi qiyin holatga tushib, uning yechimini izlaydi va faol fikr yuritib, bir qator mulohazalardan keyin bu muammoning yechimini topadi va sinab ko'radi, noto'g'ri bo'lgan taqdirda, yana aql yuritadi va bu jarayon bir necha marotaba qaytarilganidan keyin, oxir-oqibatda uning to'g'ri yechimini topadi. Natijada fikr yuritishning to'liq jarayoni amalga oshadi. Keyinchalik bunday didaktik tizim muammoli dars o'tish, deb nomlanib ketildi.

Bu uch didaktik tizimlarning anchagina ijobiy tomonlari bilan birgalikda salbiy tomonlari ham mavjud. Shuning uchun, amerikalik bir qator pedagog olimlar tomonidan, avvalgi didaktik tizimlarning ijobiy tomonlarini birlashtiruvchi didaktik tizim yaratildi va unga **yangi didaktik tizim** deb nom qo'yildi. Yangi didaktik tizimda ilgari surilgan g'oyalar juda yaxshi, ammo ularni amalga oshirish o'ta qiyin ekani amaliyotda ma'lum bo'ldi. Dunyoda bo'lgan barcha didaktik tizimlarning eng yaxshi tomonlarini birlashtirib, yangi didaktik tizim asosida dars o'tishni oddiy pedagoglar u yoqda tursin, tajribali pedagog olimlar ham uddasidan chiqishi qiyin bo'ldi. Shu munosobat bilan, hamma pedagoglar foydalana oladigan, o'zining qat'iy tuzilishiga va amaliy yakuniga yo'naltirilgan hamda dunyodagi barcha didaktik tizimlarning yaxshi tomonlarini birlashtira

olish xususiyatiga ega bo'lgan **o'qitishning pedagogik texnologiyasi** ishlab chiqildi va rivojlangan mamlakatlar pedagogik amaliyotiga singdirildi.

### Uchinchi kichik modul

XX asr o'rtalarida kvant nazariyasi yaratilib, butun olam nur (kvant) to'lqinining maydoni sifatida idrok etilgan bir paytda, olamni yaxlit bir jonli mavjudot deb tan olingan edi. Undagi barcha unsurlar olam deb atalmish tirik vujudning a'zolari ekani isbotlangan.

Bu nazariyani Demokrit, Arastu, Forobiydan so'ng Maks Plank bilan Albert Eynshteynlar «Qora o'ra» sirini o'rganish jarayonida yaratdilar. Bu shu kungacha shakllangan dunyoqarashning butunlay o'zgarib ketishiga olib keldi. Shu yo'l orqali «Kvant nazariyasi» va uning tarkibiy qismi sifatida «Kvant mexanikasi» yaratildi. Kvantli fikr yuritish, Olamni shu mahalgacha mavjud bo'lgan ilmlar kashf qilgan bilimlardan yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Butun Olam va undagi narsalar tartib ichidagi tartib orqali boshqarilishi g'oyasidan kelib chiqib, ilm-fanda «sinergetika» oqimi paydo bo'ldi.

Dastavval, fizika-matematikaning nazariyasi sifatida bu oqimga germaniyalik olim G.Xaken sinergetika deb nom berdi.

Faqat XX asrning 50-yillariga kelib, o'rganilayotgan obyektga o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan bo'laklardan tashkil topgan bir butunlik sifatida qaraydigan bo'lishdi.

Dastavval, sistemalar nazariyasi o'z maqsadini jamiki narsa va hodisalar, ularni tashkil qiluvchi qismlarda birday ishlaydigan umumiy tamoyillarni aniqlashga qaratdi. Texnik sistemalarni modellashtirishni kibernetika o'z zimmasiga olgan bo'lsa, axborot beruvchi sistemalarni o'rganish jarayonida informatsion nazariya vujudga keldi va oxirida hammasini integratsiyalashtiruvchi **umum sistemalar nazariyasi** paydo bo'ldi.

Sistemalar nazariyasidan dunyoni anglash usuli sifatida foydalanuvchi fanlar kundan-kunga ortib bormoqda. Shu kunga kelib, muayyan fanning taraqqiy etganligi va har bir olimning yetuklik darajasi ularning sistemalar nazariyasidan naqadar unumli foydalana olishligi bilan belgilanmoqda.

Majmualar nazariyasi va majmuali yondashuv degan so'z birikmalaridagi «majmua» tushunchasi biz nazarda tutgan voqelikni mutlaqo ifoda etmaydi. Chunki, «majmua» *(e'tibor bering, «majmu» so'zidan «a» harfi bilan farqlanadi)* atamasi ruschadagi «kompleks» degan tushunchani bildiradi.

Majmu deganda, o'zaro funksional aloqadorlikda bo'lib, bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar birikmasi tushuniladi.

Har qanday majmu ikki va undan ortiq qismlardan tashkil topgan bo'lib, ayni vaqtda, o'zi ham o'zidan yuqori pog'onadagi majmuga qism bo'lib kiradi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, majmularning xususiyatlaridan biri **pog'ona (ierarxiya)dorligidir.**

**Majmular nazariyasi (теория систем)** bo'yicha, majmuni tashkil qiluvchi qismlaridan birining xususiyati o'zgarsa va buning natijasida boshqa qismlarining hamda butun majmuning xususiyati ham qonuniy ravishda o'zgarishga uchrasa, uni **fuksional aloqadorlik** deyiladi.

Majmu holatining ketma-ket namoyon bo'lishi **jarayon** deyiladi.

Bir majmuni tashkil qiluvchi qismlarning har biri o'z pog'onasidagi majmu qismlari bilan barobar boshqa pog'onadagi majmu qismlari bilan aloqadorlikda bo'lsa, u bir vaqtning o'zida, o'zining majmusi bilan bir qatorda, boshqa majmuni tashkil qilishda ishtirok etgan bo'ladi.

Majmular o'z asoslari, ya'ni funksional aloqadorliklar proyeksiyasining shakliga qarab, quyidagi guruhlarga ajraladi: tartibli va tartibsiz; tezlikka ega va sust; ikki qarama-qarshi va ko'p tomonlama; nuqtaviy va tizimli; tiklanuvchi va tiklanmaydigan; oddiy va murakkab; markazlashgan va markazlashmagan; bir va ko'p pog'onali.

Majmular holatiga qarab ham guruhlarga ajratiladi: birlamchi, majmu muayyan xususiyatga azaldan ega bo'lganda va ikkilamchi, u majmu bo'lib shakllangandan keyin muayyan xususiyatga ega bo'lganda; tugallangan va tugallanmagan; immonent va immonentsiz majmular; minimal majmular; turg'un va turg'un bo'lmagan; kuchli va kuchsiz; gomogen va geterogen; qaytarilib turuvchi va qaytarilmaydigan; qadrli va qadrsiz; chala va to'liq; variativ va variativsiz.

**Ta'lim-tarbiya jarayoni** ham o'ta murakkab bo'lganligi tufayli, majmular nazariyasidan foydalanmay turib, uni zamonaviy tarzda amalga oshirib bo'lmaydi; ikkinchidan, har qanday faoliyatni to'g'ri amalga oshirish garovi bo'lib xizmat qiladi; uchinchidan, muayyan narsa va hodisani boshqalarga tushuntirishni osonlashtiradi hamda beriladigan bilimni tez tushuntirib, tez o'zlashtirib, esda uzoq saqlab turishga xizmat qiladi.

**Sinergetika va undan kelib chiquvchi majmular nazariyasining asosiy tamoyillari:**

o'rganilayotgan narsa va hodisalarga o'zaro funksional bog'liqda bo'lgan qismlardan tashkil topgan **bir butunlik** sifatida yondashish;

**pog'onadorlik** (yoki **ierarxiyalilik);**

majmuni tashkil qiluvchi qismlarining har biri **o'z pog'onasidagi majmu qismlari bilan barobar boshqa pog'onadagi majmu qismlari bilan ham aloqada bo'la oladi.**

Ta'lim-tarbiyada sinergetikaning majmuiy yondashuv tamoyilidan va qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, juda ko'p majmularni aniqlash mumkin ekan. Chunonchi, butun uzluksiz rasmiy ta'lim-tarbiya tizimini majmu sifatida ko'rish mumkinligini yuqorida ko'rdik. Shu bilan bir qatorda uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida majmu sifatida ko'rsa ham bo'ladi. O'qituvchining butun faoliyatini, uni alohida darslarga tayyorgarlik ko'rish jarayonini, dars o'tishini va hokazolarni alohida-alohida majmular sifatida o'rgansa ham bo'ladi.

**Dars** – ta'limning asosiy tashkiliy shakli bo'lib, u muayyan miqdordagi doimiy o'quvchilar tarkibi bilan qat'iy tartibda uyushtiriladigan va aniq maqsadga yo'naltirilgan didaktik tadbir. Darsga majmu nuqtayi nazaridan yondashadigan bo'lsak, unda oldimizga qo'ygan maqsaddan kelib chiqqan holda, bir darsning o'zida bir necha turdagi majmularni ajratsa bo'ladi. Birinchisi darsning dars deb atalashi uchun unda ishtirok etadigan unsurlarni o'zaro funksional bog'liqlikda ko'rib, ko'p tomonli, statik majmuni aniqlaymiz.

Dars rasmiy ta'lim-tarbiya sohasining birlamchi asosi, uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil qiluvchi g'ishti, o'qituvchi va pedagoglarning faoliyat ko'rsatish joyi ekan, u qanday qismlardan tashkil topgan? *Javob:* Darsning amalga oshishi uchun, avvalo, **o'quvchi yoki talabalar** bo'lishi shart. To'g'rimi? To'g'ri, bu darsning tarkibiy qismlaridan biri. Ikkinchisi, darsni olib borish uchun **o'qituvchi yoki pedagog** bo'lishi shartmi? Albatta, bu darsning navbatdagi tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, darsni amalga oshirish uchun sinf xonasi yoki auditoriya, uning ichidagi jihozlar –




1-rasm.

doska, stol va hokazo, shu jumladan axborot uzatish moslamalari, ya'ni **texnik vositalar** zarurmi? Zarur, bu darsning uchinchi qismi. O'qituvchi va pedagoglarning dars o'tishlari uchun reja, dastur, darslik va boshqa bir qator **me'yoriy hujjatlar**ning kerak bo'lishi ham bahs qilinmaydigan haqiqat. Har qanday ta'limiy jarayon dars bo'lib hisoblanishi, u suhbat yoki oddiygina muloqot bo'lib qolmasligi uchun o'qituvchilar pedagogik **usul va uslublar** bilan qurollangan bo'lishlari shart. Bu dars degan bir butunlikning ajralmas beshinchi bo'lagi hisoblanadi (1-rasm).

## BIRINCHI KATTA MODULNING IKKINCHI O‘RTA MODULI (ma’ruza) – Ta’limga texnologik yondashuv mohiyati, o‘qitish jarayoniga texnologik yondashish xususiyatlari va «Texnologiya» so‘zining ma’nosi hamda pedagogik texnologiyaning zamonaviy ta’rifi, pedagogik texnologiyaning mohiyati

### 2.1. Birinchi katta modul tarkibidagi ikkinchi o‘rta modulning umumiy maqsadi

*1.2.1-jadval*

| |
|---|
| Talabalar tomonidan moddiy ishlab chiqarishdagi texnologiya hamda ijtimoiy ishlab chiqarish texnologiyasi o‘rtasidagi farq va umumiylikni, moddiy ishlab chiqarish texnologiyasining ta’lim jarayoniga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan qonuniyatlarini, ta’limga majmuiy yondasha olishiga, pedagogik jarayonning tarkibiy qismlari va ular o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniq ko‘ra olishi va o‘zaro bog‘liq hodisalarni majmu sifatida ko‘ra olishni o‘rgatish orqali ularning sintez qilish qobiliyatini rivojlantirish va bitta fenomenni boshqa fenomen bilan o‘zaro qiyoslash, bitta fenomenga xos bo‘lgan xususiyatni boshqa fenomenga nisbatan qo‘llashga o‘rgatish orqali talabalarda umumlashtirish qobiliyati hamda moddiy va ijtimoiy ishlab chiqarishdagi loyihlash bilan tanishtirish orqali loyihaviy tafakkurini rivojlantirish, shuningdek, mehnat jarayonini to‘g‘ri, samarali loyihalashtirish g‘oyalari bilan tanishtirish orqali tartiblilik, o‘z faoliyati, vaqtini to‘g‘ri tashkillashtirish sifatlarini va pedagogik texnologiyaning mavjud ta’riflarini tahlil qilinishi asosida majmu tamoyiliga asoslangan zamonaviy ta’rifni o‘rgatish. |

## 2.2. Ikkinchi o'rta modulning kichik modullari nomlari va maqsadlari

*1.2.2-jadval*

| T/r | Kichik modullar nomi | Kichik modullarning maqsadlari |
|---|---|---|
| 1. | O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishga yondashuvning o'ziga xosligi va «Texnologiya» so'zining ma'nosi | Talabalar «texnologiya», «pedagogik texnologiya», «metodika», «texnologik jarayon» tushunchalari, pedagogik texnologiya va usul o'rtasidagi farq, «texnologiya» so'zining ma'nosi va texnologik jarayon xususiyatlarini ta'limga joriy qilish yo'llarini bilishlari kerak. |
| 2. | Pedagogik texnologiyaning nazariy g'oyalari, zamonaviy ta'rifi va uning mohiyati | Ta'lim texnologiyasi nazariy asoslari va PTning markaziy muammosi hamda o'quv jarayoni bosqichlarini va «pedagogik texnologiya» tushunchasiga har xil olimlar tomonidan berilgan ta'riflar mohiyatini tushunishlari kerak. |

## 2.3. Ikkinchi o'rta modulning tayanch tushunchalari va ular asosida tuzilgan nazorat savollari

*1.2.3-jadval*

| T/r | Tayanch tushunchalar | Nazorat savollari |
|---|---|---|
| 1. | «Texnologiya», «texnologik jarayon», «pedagogik» texnologiya» | 1. «Texnologiya» so'zining lug'aviy ma'nosi va mohiyatini tushuntirib bering.<br>2. O'zbekiston milliy pedagogik texnologiyasini yaratishdan ko'zlangan maqsad nima?<br>3. O'zbekiston milliy pedagogik texnologiyasi nima asosida yaratiladi? |

| | | |
|---|---|---|
| | | 4. Hozirda «texnologiya» tushunchasiga berilayotgan turli mazmunlarni hamda «zamonaviy texnologik jarayon» tushunchalarini tahlil qilib, ularni pedagogik jarayonga nisbatan qo'llab ko'ring.<br>5. Texnologik jarayon xususiyatlarini ta'limga joriy qilish yo'llarini aytib bering. |
| 2. | «Pedagogik texnologiya», «pedagogik jarayon», «loyiha», o'quv jarayoni bosqichlari | 1. Nima uchun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarida o'quv-tarbiya sohasiga pedagogik texnologiyani joriy etishga katta ahamiyat berilmoqda?<br>2. «Pedagogik texnologiya» tushunchasiga V.P.Bespalko, V.M.Monaxov, M.V.Klarin, I.Ya.Lerner, N.Saydahmedov, A.Ochilov, B.L.Faberman, O'.Q.Tolipov, T.Sakamoto va YUNESKO hamda B.Zyoimuhammadov va M.Tojiyev tomonidan berilgan ta'riflarni o'rganib, har bir ta'rifdagi asosiy g'oyani ifodalovchi so'zlarni ajrating, ta'riflarni o'zaro solishtiring va guruhlashtirib ko'ring, guruhlashga nimani asos qilib olganingizni ko'rsating.<br>3. Pedagogik texnologiyaning kimlar tomonidan berilgan ta'riflarida majmuiy yondashuv yaqqol ko'ringan?<br>4. Ta'limga texnologik yondashuvga mos holda o'quv jarayon qaysi bosqichlarda amalga oshiriladi?<br>5. Ta'lim texnologiyasi nazariyasining umumiy asoslarini nimalar tashkil qiladi? |

## 2.4. Ikkinchi o'rta modulning nazorat savollari asosida tuzilgan test

*1.2.4-jadval*

| T/r | Savollar | Mumkin bo'lgan javoblar | |
|---|---|---|---|
| 1. | «Milliy pedagogik texnologiya modeli» nimani anglatadi? | 1 | Ma'lum bir davlatda yaratilgan texnologiya. |
| | | 2 | Ma'lum bir mamlakat olimlari tomonidan kashf etilib, joriy qilingan pedagogik texnologiya. |
| | | 3 | Ma'lum bir xalqning ehtiyoj va xususiyatlaridan kelib chiqib tuzilgan pedagogik texnologiya. |
| | | 4 | Ma'lum bir hududning pedagogik sharoitidan, xalqning mentaliteti hamda pedagoglarning intellektual salohiyatidan kelib chiqib yaratilgan pedagogik texnologiya. |
| 2. | «Texnologiya» so'zining lug'aviy ma'nosi nima? | 1 | Texnik vositalarni qo'llash tartibi. |
| | | 2 | Hunar (san'at) haqidagi fan. |
| | | 3 | Texnik uskunalarni qo'llash haqidagi fan. |
| | | 4 | Texnik taraqqiyot haqidagi fan. |
| 3. | Texnologik jarayon ta'rifiga kiruvchi so'zlar qaysi javobda keltirilgan? | 1 | Ma'lum operatsiyalarni muayyan ketma-ketlikda bajarish. |
| | | 2 | Faoliyatning mutaxassis tomonidan bajarilishi. |
| | | 3 | Sifatli zamonaviy jihozlarning qo'llanilishi. |
| | | 4 | Faoliyatning maqsadga yo'naltirilganligi. |
| 4. | «Metodika» tushunchasi ta'rifi qaysi javobda to'g'ri berilgan? | 1 | O'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha yo'riqnoma. |
| | | 2 | Ta'lim usullari. |
| | | 3 | Ta'lim jarayoni qatnashchilari faoliyati. |
| | | 4 | Ta'lim jarayoni loyihasi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 5. | V.P.Bespalkoning «pedagogik texnologiya» tushunchasiga bergan ta'rifida tushirib qoldirilgan so'zlarni aniqlang: «PT – bu ... bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvafaqqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir». | 1 | Ta'lim maqsadiga. |
| | | 2 | O'qituvchi mahoratiga. |
| | | 3 | O'quvchi qobiliyatiga. |
| | | 4 | Qo'llanilayotgan didaktik vositalarga. |
| 7. | O'.Q.Tolipovning «pedagogik texnologiya» tushunchasiga bergan ta'rifida tushirib qodirilgan so'zlarni aniqlang: «PT – vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning ... aniq belgilangan tizim». | 1 | Barcha bosqich va qismlarining vazifalari. |
| | | 2 | Qatnashchilari va ularning faoliyati. |
| | | 3 | Maqsadi, mazmuni. |
| | | 4 | Didaktik vositalari, tamoyillari. |
| 8. | Ta'limga texnologik yondashuvning mohiyatli belgisi qaysı javobda berilgan? | 1 | O'quv jarayonini pedagogning mahoratidan xalos etish va qayd etish, pedagogik jarayonni samarali boshqarish. |
| | | 2 | Talabalarga qat'iy talablarning qo'yilishi. |
| | | 3 | Turli ta'limiy usullarning bir vaqtda qo'llanilishi, samarali ta'lim shakllarini to'g'ri tanlash. |
| | | 4 | Mustaqil ta'limning qo'llanilishi, zamonaviy axborot texnologiyalarning qo'llanilishi. |

## 2.5. Ikkinchi o'rta modulning dars turi va tipi, unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar

*1.2.5-jadval*

| | |
|---|---|
| O'quv mashg'ulotining shakli | Dialogli, ko'rgazmali, muammoli, ma'ruza. |
| O'quv mashg'ulotining turi va tipi | Aralash dars; yangi bilimlarni egallash. |
| Qo'llaniladigan usul va uslublar | Muammoli bayon qilish, tushuntirish-illustrativ, «Assotsiatsiya» ta'limiy o'yini; muammoli munozara; ko'rgazmali, muammoli ma'ruza, suhbat, tushuntirish, test. |
| Ta'lim vositalari | PowerPoint dasturida ishlangan taqdimot, FYOTV. |
| Ta'lim shakllari | Ommaviy, yakka tartibda. |
| O'qitish sharoitlari | Multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash | «Assotsiatsiya» ta'limiy o'yini davomida berilgan assotsiatsiyalar, kuzatish, munozaralar davomida beriladigan javoblar, test. |

## 2.6. Kichik modullarning pedagogik jarayonda foydalaniladigan axborot-komunikatsion texnologiyalari va didaktik materiallar

*1.2.6-jadval*

| T/r | O'qitishning texnik vositalari | Didaktik materiallar |
|---|---|---|
| 1. | Birinchi, ikkinchi va uchinchi kichik modullar davomida mavzuga mos slaydlar namoyish qilinadi. Shuningdek, nazorat savollari va shu savollar asosida tuzilgan test slaydlar orqali namoyish qilinadi. | Boshlang'ich sinf matematika o'qitish metodikasi faniga oid darsliklar, uslubiy qo'llanmalar va ko'rgazmali qurollar. |

| Ish bosqichlari va vaqti | O'quv jarayoni | |
|---|---|---|
| | ta'lim beruvchi | ta'lim oluvchilar |
| 1-bosqich. O'quv mash-g'ulotiga kirish (10 daq.) | 1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot muammoli ta'lim texnologiyasi asosida tashkillashtirilishini, uning bosqichlarini ma'lum qiladi.<br>1.2. Talabalarni faollashtirish va mavzuga yo'naltirish uchun «Assotsiatsiya» ta'limiy o'yinini tashkillashtiradi (2.6.1-ilova). | 1.1. Tinglaydilar, aniqlashtiruvchi savollar berishlari mumkin.<br>1.2. «Assotsiatsiya» ta'limiy o'yinida ishtirok etadilar. |
| 2-bosqich Asosiy (65 daq.) | 2.1. O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishga yondashuvning o'ziga xos jihatlarini tushuntiradi, «texnologiya» so'zining ma'nosini ochib beradi (1-katta modulning ikkinchi o'rta moduli slaydlari).<br>Ma'ruzaning birinchi kichik moduli bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash, nazoratni amalga oshirish maqsadida test o'tkazadi (14 ta test) va test kalitini taqdim qilib, talabalarga o'z bilimlarini tekshirishi uchun sharoit yaratadi.<br>Yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashtiradi va ularni to'g'rilash bo'yicha faoliyatni tashkillashtiradi: tetsni to'g'ri yechgan talabalarga so'z beradi, zarur holatda o'zi qaytadan ma'lumotni tushuntiradi. | 2.1. Axborotni tinglaydilar, muhim ma'lumotlarni yozib boradilar.<br>Test yechadilar, test kaliti yordamida o'z-o'zlarini nazorat qiladilar, xatolar ustida ishlash jarayonida qatnashadilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | 2.2. Ikkinchi kichik modul mazmuniga talabalar diqqatini quyidagi savol bilan qaratadi: *Ma'ruzaning bu qismida «pedagogik texnologiya» tushunchasiga berilgan bir necha ta'riflar bilan tanishamiz. Shularning ichidan Sizning nuqtayi nazaringizda «eng to'g'ri»sini aniqlashga harakat qiling.* Pedagogik texnologiyaning zamonaviy ta'rifi, «pedagogik texnologiyaning mohiyati» kichik moduli mazmunini tushuntiradi (1-katta modulning ikkinchi o'rta moduli slaydlari). | 2.2. Axborotni tinglaydilar, muhim ma'lumotlarni yozib boradilar, berilgan savol yuzasidan fikrlaydilar. |
| | Ma'ruzaning birinchi kichik moduli bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash, nazoratni amalga oshirish maqsadida test o'tkazadi (58 ta test) va test kalitini taqdim qilib, talabalarga o'z bilimlarini tekshirishlari uchun sharoit yaratadi. Yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashtiradi va ularni to'g'rilash bo'yicha faoliyatni tashkillashtiradi: tetsni to'g'ri yechgan talabalarga so'z beradi, zarur holatda o'zi qaytadan ma'lumotni tushuntiradi. | Test yechadilar, test kaliti yordamida o'z-o'zlarini nazorat qiladilar, xatolar ustida ishlash jarayonida qatnashadilar. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 daq.) | 3.1. Refleksiya faoliyatini tashkillashtiradi – talabalarni mashg'ulot natijasida o'rganilgan mavzu bo'yicha o'zlarida shakllangan bilim, tasavvur, munosabatlarni tahlil qilishga undaydi; shu yuzasidan 56 talabaning fikrini so'raydi. | 3.1. Refleksiyani amalga oshiradilar. |

**«Assotsiatsiya» ta'limiy o'yini:**

O'yin tavsifi: o'qituvchi tushuncha, atamani aytadi, talabalar ushbu tushunchalarga bir necha assotsiyatsiya keltiradilar (o'yin yuqori tezlikda kechadi, assotsiatsiyalar zudlik bilan berilishi talab qilinadi). Mazkur mashg'ulotda o'qituvchi tomonidan beriladigan so'zlar: *soha, o'qituvchi, ta'lim, islohot, texnologiya, pedagogik texnologiya, majmu.*

## 2.7. O'rta modulning mazmunini ifoda etuvchi matn ssenariysi

### Birinchi kichik modul

O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq o'zgarishlar o'zida ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uning mazmuniga milliy ruh singdirish, samarali an'anaviy uslublarni saqlab qolgan holda ilg'or uslublarni yaratish va ularni amaliyotda qo'llash kabi masalalarni aks ettiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llash bo'yicha respublikamizning ko'zga ko'ringan olimlari tomonidan rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelaniyotgan pedagogik texnologiyalarni ilmiy asosda qiyosiy tahlil qilib, xalqimizning milliy pedagogika an'analaridan hamda ta'lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda O'zbekistonning **milliy pedagogik texnologiyasini yaratishga** harakat qilinmoqda va bu sohada ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirildi.

Ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarimizning bugungi kundagi asosiy vazifasi bu texnologiyani chuqur o'rganib, o'zining kundalik pedagogik amaliyotida qo'llashdir.

Pedagogik texnologiyani boshqa ta'lim usullaridan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardir:

**Birinchidan**, avval bir necha bor ta'kidlaganimizdek, pedagogik texnologiya sinergetik dunyoqarashdan kelib chiquvchi obyektiv narsa va hodisalarga majmuiy yondashuv tamoyiliga asoslanadi. Avvalgi pedagogik usullar, tuzilishi jihatidan erkin bo'lib, dars tarkibini belgilash faqat o'qituvchi ixtiyorida bo'lgan.

**Ikkinchidan**, pedagogik texnologiyada oldindan belgilangan asosiy maqsadga erishish kafolatlangan. Boshqa barcha pedagogik usullarda ta'lim-tarbiya faoliyatining kafolatlangan natijasi mavjud bo'lmay, stixiyali natijalar bilan kifoyalanib kelingan.

**Uchinchidan**, pedagogik texnologiyada, asosiy maqsadga erishish bosqichma-bosqich amalga oshirilib, har bir bosqichda oldinga qo'yilgan maqsadlar, bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar va talab qilinadigan vositalar hamda usul va uslublarning aniq modullari hosil qilinadi. Boshqa pedagogik usullarda ta'lim-tarbiya jarayonining yakunida umumiy maqsad qo'yilib, unga erishish yo'llari o'qituvchining ixtiyoriga havola qilingan.

**To'rtinchidan**, pedagogik texnologiya universal xususiyatga ega bo'lib, uni har bir mutaxassis, a'lo bo'lmasa ham, yaxshi amalga oshira oladi. Darsning intensivligiga va samaradorligiga pedagogning mahorati va shaxsiy sifatlari deyarli ta'sir etmaydi. Chunki darsning loyihasi, avvaldan, mahoratli metodist-o'qituvchilar tomonidan tuziladi. Avvalgi dars berish usullarini amaliyotda qo'llashda ma'lum darajada o'qituvchining pedagogik mahorati, shaxsiy sifatlari yetakchilik qilgan.

**Beshinchidan**, pedagogik texnologiya yordamida dars o'tganda, ta'lim jarayonini doimiy va to'liq nazorat qilish imkoni mavjud. Avvallari o'qituchilar bunday imkoniyatga ega emas edilar.

**Oltinchidan**, pedagogik texnologiya yordamida ta'lim jarayonini amalga oshirganda uning natijasi talabalarda ko'nikma hosil qilish bilan yakunlanadi. Boshqa pedagogik usullar yordamida dars berganda, talabalar berilgan bilimni zo'rg'a eslab qola olardilar, xolos.

**Yettinchidan,** pedagogik texnologiya Davlat ta'lim standartlariga erishishni kafolatlaydi va sarflanishi talab qilingan vaqt, kuch hamda vositalarni me'yorga keltiradi.

Pedagogik texnologiya (PT) deganda nimani tushunamiz?

**«Texnologiya»** tushunchasi yunoncha «texnos» (techne) va «logos» (logos) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, «hunar fanini o'rganish» degan ma'noni anglatadi. Bu tushuncha texnik taraqqiyot mazmunini ifodalashga xizmat qiluvchi tushuncha sifatida ilk marta 1872-yilda qo'llanilgan.

**Texnologiya** – san'at, mahorat, ko'nikma, uslublar yig'indisi, muayyan holatni o'zgartirishga xizmat qiluvchi jarayon; inson faoliyati va tafakkuri bilan bog'liq bo'lgan madaniy tushuncha; texnik jihatdan ahamiyatli sifat va qobiliyatning intellektual qayta ishlanishi; qandaydir jarayonni amalga oshirish uslublari haqidagi bilimlar yig'indisi; amaliyotga joriy qilinishi talab etilayotgan ma'lum bir tizim loyihasi.

«Zamonaviy texnologik jarayon» deganda zarur vosita va sharoitlardan foydalanilgan holda ma'lum operatsiyalarni muayyan ketma-ketlikda bajarishga yo'naltirilgan faoliyat tushuniladi. Aniqroq qilib aytganda, mehnat qurollari va predmetlari vositasida bosqichma-bosqich ta'sir etish orqali tayyor mahsulot yaratishga yo'naltirilgan faoliyat tushuniladi.

Ana shu ta'rifni tadqiqot mavzusiga ko'chiradigan bo'lsak, pedagogik texnologiya – o'qituvchi (pedagog)ning ta'lim-tarbiya vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan sharoitlarda tizimli ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan hamda oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisadir, degan g'oya ifoda etiladi. Yuqorida keltirilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, pedagogik texnologiya tushunchasini izohlashda texnologiya jarayoni asos qilib olindi.

## Ikkinchi kichik modul

MDHga kiruvchi mamlakatlar olimlari ichida pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini birinchilar qatorida har tomonlama ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim V.P. Bespalkoning fikricha, **«PT – bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvafaqqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir»** [17].

Rossiya olimlaridan V.M. Monaxov: **«PT – avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir»** [32], degan qisqacha ta'rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratadi.

«PT – o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining subyektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi» [32], deydi.

M.V. Klarin fikricha, **«PT – o'quv jarayoniga texnologik yondoshgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashdir»** [27].

V.P. Bespalkoning o'zbekistonlik shogirdlaridan Nurali Saydahmedov va Abdurahmon Ochilovlarning fikricha, **«PT – bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ulardan oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir»** [46].

O'.Tolipovning fikricha, **«Pedagogik texnologiya – vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizim»** [44].

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan shakllantirilgan «O'qitish metodlari va pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish» ijodiy guruhining ta'rifi bo'yicha,

**«Pedagogik texnologiya — ta'lim oluvchi shaxsiga yo'naltirilgan, demokratik hamda takrorlanuvchan o'qish natijalarini kafolatlaydigan ta'lim jarayonini loyihalash, amalga oshirish va baholashning tizimiy metodidir».**

Bu ta'riflarni xorijda berilgan ta'riflar bilan solishtirib ko'rish uchun yapon pedagog olimi T.Sakomoto bergan ta'rifni keltiramiz: **«PT — bu majmuli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir majmuga keltirishdir»** [56].

Birlashgan millatlar tashkilotining nufuzli idoralaridan YUNESKOning ta'rifi bo'yicha, «**PT — bu bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'liq holda ko'rib, butun ta'lim jarayonini loyihalashda va amalda qo'llashda majmuiy yondashuv tamoyilidan foydalanishdir**» [55]. AQSH va Germaniya olimlarining pedagogik texnologiyaga bergan ta'rifi YUNESKO bergan ta'rifga yaqin keladi.

Keltirilgan ta'riflarni ilmiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, uzoq xorijda berilgan ta'riflar bilan MDH mamlakatlari olimlarining bergan ta'riflari bir-biriga yaqin kelsada, lekin farqi ham anchaligini ko'ramiz. Jumladan, Sakomoto, YUNESKO va boshqa xorijiy mamlakatlarda berilgan ta'riflarda majmuiy yondashuv tamoyiliga alohida urg'u berilgan. MDH olimlarining PTga bergan ta'riflarida majmuiy yondashuv eslatib o'tilmaydi ham. Bunga izohning hojati bo'lmasa kerak. Haqiqatda esa, obyektiv borliqqa majmuiy yondashuv tamoyilini yaxshi bilgan kishiga, Sakomoto aytganidek, «PT — o'quv jarayonini muayyan bir majmuga keltirishdir», degan tushuncha kifoya qiladi. Bu tushuncha orqali pedagogik texnologiyaning boshqa hamma xususiyatlarini, ya'ni maqsadga yo'naltirilganligini, bir necha o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan tashkil topganligini va boshqalarni anglab olsa bo'ladi. Chunki bu xususiyatlarning hammasi, majmular nazariyasiga binoan, majmu deb nom olgan narsa va hodisalarning ajralmas sifatlaridir.

Pedagogik texnologiyaning yuqorida qayd etilgan xususiyatlaridan va majmular nazariyasining qonuniyatlaridan kelib chiqib, unga quyidagi kengaytirilgan ta'rifni beramiz.

Professor B. Ziyomuhammadovning fikricha, «**PT – bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiquvchi, oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiradigan va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini majmu sifatida ko'rib, uni tashkil qiluvchi qismlari bo'lgan o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda va ma'lum bir pedagogik usullardan foydalanib, ko'rsatgan ta'sirini nazoratda tutuvchi va ta'lim natijasini baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbirdir**» [15].

Bizning fikrimizcha, «**Pedagogik texnologiya – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini majmu sifatida qarab, ushbu maqsadning natijalarini kafolatlovchi ta'lim jarayoniga texnologik yondoshadigan ta'limiy tadbirdir**» [41].

Pedagogik texnologiya tushunchasini oydinlashtirishga qaratilgan ta'riflarning xilma-xilligi, bir tomondan, rivojlangan mamlakatlarda bu mavzuning u yoki bu darajada o'rganilayotganini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, pedagogik texnologiyani pedagogik amaliyotga joriy etishga bo'lgan urinishlarning ma'lum natijasini ifodalaydi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy tushunchasi, so'zsiz, o'quv jarayoniga majmu sifatida yondoshishdir. Bunda ta'lim-tarbiyada ishtirok etuvchi barcha narsa va hodisalar o'zaro funksional bog'liqlikda bo'lib, bir butunlikni, ya'ni majmuni tashkil qiladi. Pedagogik jarayon majmuyining muayyan bir vaqt mobaynida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi pedagogik texnologiya deyiladi.

**Pedagogik texnologiyaning an'anaviy usul (metod)lardan asosiy farqi**, uning to'la-to'kis majmular nazariyasi qonuniyatlaridan kelib chiqqanligidadir.

**Pedagogik texnologiyaning avvalgi usullardan afzalligi,** u ta'lim jarayonini bir butunlikda ko'rib, ta'lim maqsadi, uning mazmuni, bilim berish usullari va vositalari hamda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarni majmuga keltirib, ta'lim natijalarini avvaldan belgilab, ta'lim jarayonini nazorat qilish va baholash kabi qismlarini o'zaro uzviy bog'lab majmuga keltirib turib, jarayon loyihasini tuzishidadir.

**Uning an'anaviy usullardan farqi,** u talabalarning o'zlariga berilgan bilimni yodlab aytib berishiga emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonining yakunida konkret bir harakatlarni bajarishga yo'naltirilganligidadir.

**Pedagogik texnologiyaning boshqa ta'lim usullaridan navbatdagi farqi,** uning yordamida o'quv jarayoni tashkil etilganda, dars natijasi bilim beruvchining pedagogik mahoratiga bog'liq emasligidadir.

## 3. BIRINCHI KATTA MODULNING UCHINCHI O'RTA MODULI (ma'ruza) – Pedagogik texnologiya tamoyillari va ularning izohlari, pedagogik maqsadlarni belgilash yo'llari, pedagogik maqsadlar taksonomiyasi va pedagogik texnologiya turlari

### 3.1. Birinchi katta modul tarkibidagi uchinchi o'rta modulning maqsadi

*1.3.1-jadval*

| |
|---|
| Talabalarda ta'lim-tarbiya jarayonini majmuiy yondashuv asosida samarali tashkillashtirish uchun o'qituvchi amal qilishi shart bo'lgan tamoyillar, ta'lim maqsadlari va ularni shakllantirish yo'llari, maqsadga erishganlik darajasini aniqlash usullari, ta'lim jarayoniga tuzatishlar kiritish, ta'lim jarayoni natijalarini baholash haqidagi bilimlar va pedagogik jarayonni pedagogik texnologiya tamoyillari asosida loyihalashtirish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ko'nikmalarni va pedagogik texnologiyaning har xil turlari mavjudligi haqida tasavvur hosil qilish, ularni pedagogik texnologiyaning O'zbek milliy modelidagi pedagogik texnologiya bilan tanishtirish, talabalarda pedagogik texnologiya guruhlari va ularga kiruvchi texnologiyalar turlari, ularning ahamiyatli xususiyatlari haqida bilimlar shakllantirish, shuningdek, ta'lim jarayonini loyihalashtirishga o'rgatish orqali talabalarda loyihaviy, mantiqiy, ijodiy tafakkur va hodisalarga ilmiy yondashish xususiyatini rivojlantirish hamda pedagogik texnologiya tasnifini o'rganish orqali talabalarda qiyoslash, guruhlash, umumlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish va loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni obyektiv, ilmiy baholashga o'rgatish orqali talabalarda o'z-o'zini, o'z faoliyatini baholash sifatlarini tarbiyalash. |

## 3.2. Kichik modullarning nomlari va maqsadlari

*1.3.2-jadval*

| T/r | Kichik modullar nomi | Kichik modullarning maqsadlari |
|---|---|---|
| 1. | Pedagogik texnologiya tamoyillari | Talabalarga PT tamoyillarini, ta'lim jarayonini ishlab chiqarish jarayoni bilan o'zaro taqqoslay olish, ta'lim samaradorligini kafotlash uchun ularning zarurligini, muayyan bir pedagogik jarayonni PT tamoyillari nuqtayi nazaridan tahlil qila olishi va ta'lim jarayonining natijaviyliliga texnologik yondashuvning ahamiyatini hamda buni asoslay olishligini tushuntirish. |
| 2. | Pedagogik maqsadlarni belgilash texnologiyasi va pedagogik maqsadlar taksonomiyasi | Ta'lim (tarbiya) maqsadi tushunchasiga to'g'ri ta'rif bera olish, pedagogik jarayon samaradorligi uchun uning maqsadini aniq shakllantirish, ta'lim (tarbiya) maqsadlarini aniqlash, ushbu maqsadlarni an'anaviy va texnologik yondashuvga asoslangan ta'limda shakllantirish yo'llarini tavsiflay olish va ularni o'zaro taqqoslay olish hamda aniq, tekshiriluvchan maqsadlarni tuza olish, boshqalar tomonidan tuzilgan maqsadlarni to'g'ri baholay olish va Blumning maqsadlar taksonomiyasining darajalarini tushunish hamda ushbu taksonomiya tuzilishini, maqsadlarni Blum taksonomiyasi bo'yicha tartiblay olish va ta'limga texnologik yondashuv uchun Blum taksonomiyasining ahamiyatini to'g'ri baholay olishni, ta'lim (tarbiya) maqsadlarini texnologik yondashuv tamoyillariga mos holda shakllantirishning o'qituvchi va o'quvchi uchun bo'lgan ahamiyatini o'rgatish. |

| | | |
|---|---|---|
| 3 | Pedagogik texnologiya turlari, ta'lim usullari va uning toifalari | Talabalarga pedagogik texnologiyani sifatlovchi, farqlovchi jihatlar, B.Ziyomuhammadov va M.Tojiyevlarning pedagogik texnologiyaning O'zbek milliy modeliga asoslangan holda pedagogik texnologiya turlari, o'qituvchi tomonidan nomi ko'rsatilgan pedagogik texnologiya xususiyatlarini va ularni pedagogik texnologiyaning qaysi turiga mansubligini bildirish. |

## 3.3. Tayanch tushunchalar va ular asosida tuzilgan nazorat savollari

*1.3.3-jadval*

| T/r | Tayanch tushunchalar | Nazorat savollari |
|---|---|---|
| 1 | Tamoyil, texnologik yondashuv, tabaqalashgan modul, dars turi | 1. PT umumiy didaktik tamoyillariga rioya qilishni inkor etadimi?<br>2. PT ning aynan o'ziga xos bo'lgan tamoyillarini sanab bering, izohlang.<br>3. Didaktikaning tamoyillari (prinsip) va qonun-qoidalarini aytib bering.<br>4. Maqsadlarning natijalari fe'llar shaklida berilishi deganda nimani tushunasiz?<br>5. Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o'quv mashg'ulotini loyihalashda qanday vazifalar amalga oshiriladi? |
| 2 | Ta'lim maqsadi, taksonomiya, Blum taksonomiyasi, instrumentallik, etalon | 1. «Ta'lim maqsadi» tushunchasiga ta'rif bering.<br>2. Ta'lim maqsadlarining aniqligi ta'lim jarayoni samaradorligiga qanday ta'sir qiladi?<br>3. Pedagogik jarayonning umumiy maqsadi hamda xususiy maqsadi o'rtasidagi farqni ko'rsating. |

| | | |
|---|---|---|
| | | 4. Ta'lim maqsadi qanday sifatlarga ega bo'lishi zarur?<br>5. Ta'lim maqsadlarini tartiblash zaruratini asoslab bering.<br>6. Blum taksonomiyasi tuzilmasini aytib bering.<br>7. O'qituvchi tomonidan misol uchun berilgan maqsadlar kataloglarini tahlil qiling, ularda yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlang. |
| 3 | Texnologiya turlari, tasnif, ta'lim-tarbiya usullarining toifalari | 1. Nima sababdan pedagogik texnologiyaning har xil turlari mavjud?<br>2. Pedagogik texnologiyani tasniflashda nimalar asos qilib olinadi?<br>3. B.Ziyomuhammadov va M.Tojiyevlarning pedagogik texnologiyaning O'zbek milliy modeli mohiyatini sharhlab bering.<br>4. Ixtiyoriy tanlangan o'quv fanining biror-bir moduliga maqsadlar katalogini tuzing.<br>5. Ta'lim-tarbiya usullarining toifalarini sanab bering. |

## 3.4. Nazorat savollari asosida tuzilgan test

*1.3.4-jadval*

| T/r | Savollar | Mumkin bo'lgan javoblar | |
|---|---|---|---|
| 1. | O'quv fanini tabaqalashgan modullarga ajratish tamoyilini qo'llaganda nima e'tiborga olinadi? | 1 | Bilimlarning turi va ichki bog'lanishlar. |
| | | 2 | Mavzudagi ta'lim mazmunining hajmi. |
| | | 3 | Ta'lim mazmunining murakkablik darajasi. |
| | | 4 | Mashg'ulotda qo'llaniladigan usul va vositalar. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2. | Berilgan bilimni talabalar anglashlari, xotirasida saqlashlari va amaliyotda qo'llashlarini bir vaqtning o'zida olib borishlikni ta'minlash tamoyili qanday amalga oshiriladi? | 1 | Turli vazifalar bajarish davomida ma'lumotlarni bir necha bor takrorlanishi orqali. |
| | | 2 | Ta'lim mazmunini soddalashtirish orqali. |
| | | 3 | Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'lash orqali. |
| | | 4 | Mashg'ulotlarni qiziqarli tashkillash orqali. |
| 3. | Maqsadlarning natijalari fe'llar shaklida bo'lishligi tamoyili nimani ta'minlaydi? | 1 | Ta'lim jarayonining qiziqarli bo'lishini. |
| | | 2 | Ta'lim jarayonida tahsil oluvchilarning faol bo'lishini. |
| | | 3 | Ta'lim jarayonining tekshiriluvchanligini. |
| | | 4 | Ta'lim jarayonini osonlashtiradi. |
| 4. | Tayanch tushunchalarni belgilash tamoyili nimani ta'minlaydi? | 1 | Tayanch tushunchalar butun ta'lim mazmunini tashkillashtirish bilimlarni tizim sifatida tasavvur qilishga yordam beradi. |
| | | 2 | Ta'lim mazmunini soddalashtiradi. |
| | | 3 | Ta'lim jarayonini to'g'ri tashkillashtirishga yordam beradi. |
| | | 4 | Nazorat savollarini tuzish uchun ishlab chiqiladi. |
| 5. | Pirovard natijaga (ta'lim maqsadiga) qo'yilajak asosiy talablar. | 1 | Soddalik, qisqalik. |
| | | 2 | Murakkablik, to'lalik. |
| | | 3 | Aniqlik va tekshiriluvchanlik. |
| | | 4 | Murakkablik, aniqlik. |
| 6. | Texnologik yondashuvda ta'lim maqsadlari nima orqali belgilanadi? | 1 | Mavzu nomi orqali. |
| | | 2 | Pedagogning harakati orqali. |
| | | 3 | O'lchanadigan natijalar orqali |
| | | 4 | O'quvchining shaxsiy rivojlanishidagi o'zgarishlar orqali. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 7. | Pirovard natijalar qanday so'zlar bilan ifodalanadi? | 1 | Ta'lim jarayonini tasvirlovchi o'qituvchining harakatlarini ifodalovchi so'zlar. |
| | | 2 | Nazorat usulini ifodalovchi so'zlar. |
| | | 3 | O'quvchining tugallangan xatti-harakatini ifodalovchi so'zlar. |
| | | 4 | Baholash turini ifodalovchi so'zlar. |
| 8. | Ta'lim maqsadlarini ifodalashda qaysi so'z turkumidan foydalanish zarur? | 1 | Ot. |
| | | 2 | Sifat. |
| | | 3 | Fe'l. |
| | | 4 | Ravish. |
| 9. | Nima maqsadda o'zlashtirish darajasi Blum taksonomiyasiga asoslanib aniqlanadi? | 1 | Baholash jarayonini osonlashtirish uchun. |
| | | 2 | Baholash jarayonini murakkablashtirish uchun. |
| | | 3 | Qisqa muddatda baholash uchun. |
| | | 4 | Har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasini to'g'ri aniqlash uchun. |
| 10. | B.Blumning o'quv maqsadlari taksonomiyasi bo'yicha tahlil qilish bosqichi nechanchi bosqich deb hisoblanadi? | 1 | 1. |
| | | 2 | 3. |
| | | 3 | 4. |
| | | 4 | 6. |

## 3.5. Dars turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar

*1.3.5-jadval*

| | |
|---|---|
| O'quv mashg'u-lotining shakli | Dialogli, ko'rgazmali ma'ruza. |
| O'quv mashg'u-lotining turi va tipi | Aralash dars, yangi bilimlarni egallash. |
| Qo'llaniladigan usul va uslublar | Muammoli bayon qilish, illustrativ tushuntirish, suhbat; ishbilarmon o'yini, ko'rgazmali ma'-ruza, test. |
| Ta'lim vositalari | PowerPoint dasturida ishlangan taqdimot, «Ishbilarmon» o'yini bo'yicha uslubiy ko'rsat-ma (tarqatma material), FYOTV |
| Ta'lim shakllari | Yakka holda, ommaviy, jamoaviy. |
| O'qitish sharoitlari | Multimedia vositalari bilan jihozlangan audi-toriya. |
| Monitoring va baholash | Suhbat davomida olingan javoblar, «Ishbilar-mon» o'yini natijasi, kuzatish, munozaralar da-vomida beriladigan javoblar, test. |

## 3.6. Kichik modullarning pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot-kommunikatsion texnologiyalar va didaktik materiallar

*1.3.6-jadval*

| O'qitishning texnik vositalari | Didaktik materiallar |
|---|---|
| Uchinchi kichik modul oxirida va to'rtinchi modul boshlanishida uslubga mos slaydlar namoyish qilinadi. Shuningdek, nazorat savollari va shu savollar asosida tuzilgan test slaydlar orqali namoyish qilinadi. | Faniga oid darslik-lar, uslubiy qo'llan-malar va ko'rgaz-mali qurollar. |

| Ish bosqichlari va vaqti | O'quv jarayoni | |
|---|---|---|
| | ta'lim beruvchi | ta'lim oluvchilar |
| 1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.) | 1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi.<br><br>1.2. Talabalarni faollashtirish va mavzuga yo'naltirish uchun suhbat o'tkazadi (3.6.1-ilova). | 1.1. Tinglaydilar, aniqlashtiruvchi savollar berishlari mumkin.<br>1.2. Suhbatda qatnashadilar. |
| 2-bosqich Asosiy (65 daq.) | 2.1. Pedagogik texnologiya tamoyillari va ularning izohlari mavzusini ochib beradi (1-katta modulning uchinchi o'rta moduli slaydlari).<br>Ma'ruzaning birinchi kichik moduli bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash, nazoratni amalga oshirish maqsadida test o'tkazadi (14 ta test) va test kalitini taqdim qilib, talabalarga o'z bilimlarini tekshirishi uchun sharoit yaratadi.<br>Yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashtiradi va ularni to'g'rilash bo'yicha faoliyatni tashkillashtiradi: tetsni to'g'ri yechgan talabalarga so'z beradi, zarur holatda o'zi qaytadan ma'lumotni tushuntiradi. | 2.1. Axborotni tinglaydilar, muhim ma'lumotlarni yozib boradilar.<br><br>Test yechadilar, test kaliti yordamida o'z-o'zlarini nazorat qiladilar, xatolar ustida ishlash jarayonida qatnashadilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | 2.2. Talabalarda ikkinchi kichik modul bo'yicha bilimlarni shakllantiradi:<br>Mavzuga olib kirish uchun «Ishbilarmon» o'yinini o'tkazadi (3.6.2-ilova).<br>«Pedagogik maqsadlarni belgilash texnologiyasi. Pedagogik maqsadlar taksonomiyasi» kichik moduli mazmunini tushuntiradi (1-katta modulning uchinchi o'rta moduli slaydlari).<br>Ma'ruzaning ikkinchi kichik moduli bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash, nazoratni amalga oshirish maqsadida test o'tkazadi (5–10 ta test) va test kalitini taqdim qilib, talabalarga o'z bilimlarini tekshirishi uchun sharoit yaratadi.<br>Yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashtiradi va ularni to'g'rilash bo'yicha faoliyatni tashkillaydi: tetsni to'g'ri yechgan talabalarga so'z beradi, zarur holatda o'zi qaytadan ma'lumotni tushuntiradi. | 2.2. «Ishbilarmon» o'yinida qatnashadilar.<br>Axborotni tinglaydilar, muhim ma'lumotlarni yozib boradilar, berilgan savol yuzasidan fikrlaydilar.<br>Test yechadilar, test kaliti yordamida o'z-o'zlarini nazorat qiladilar, xatolar ustida ishlash jarayonida qatnashadilar. |
| | 2.3. Talabalarda uchinchi kichik modul bo'yicha bilimlarni shakllantiradi.<br>Pedagogik texnologiya turlari kichik moduli mazmunini tushuntiradi (1-katta modulning uchinchi o'rta modul slaydlari). | 2.3. Axborotni tinglaydilar, muhim ma'lumotlarni yozib boradilar, berilgan savol yuzasidan fikrlaydilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | Ma'ruzaning uchinchi kichik moduli bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash, nazoratni amalga oshirish maqsadida test o'tkazadi (11–13 ta test) va test kalitini taqdim qilib, talabalarga o'z bilimlarini tekshirishi uchun sharoit yaratadi.<br>Yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashtiradi va ularni to'g'rilash bo'yicha faoliyatni tashkillashtiradi: testni to'g'ri yechgan talabalarga so'z beradi, zarur holatda o'zi qaytadan ma'lumotni tushuntiradi. | Test yechadilar, test kaliti yordamida o'z-o'zlarini nazorat qiladilar, xatolar ustida ishlash jarayonida qatnashadilar. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 daq.) | 3.1. Refleksiya faoliyatini tashkillashtiradi – talabalarni mashg'ulot natijasida o'rganilgan mavzu bo'yicha o'zlarida shakllangan bilim, tasavvur, munosabatlarni tahlil qilishga undaydi. Savollar:<br>*- Pedagogik jarayonni loyihalashtirishda pedagogik texnologiya tamoyillariga rioya etish shartmi?*<br>*- Ta'lim maqsadiga nisbatan qanday talablar mavjud?*<br>*- Nima sababdan o'qituvchilar turli ta'lim texnologiyalaridan foydalanadilar?* | 3.1. Savollarga javob berib, refleksiyani amalga oshiradilar. |

*3.6.1-ilova*

**Suhbat savollari.**
Tamoyil nima?
Didaktik tamoyillarni sanab bering.
Didaktik tamoyillar nima uchun kerak?

*3.6.2-ilova*

**«Ishbilarmon» o'yini:**

— talabalarni juftliklarga bo'ladi (yonma-yon o'tirgan talabalar juftlik hosil qiladilar);

— juftlikdagi bir talaba «ishlab chiqaruvchi», ikkinchisi — «buyurtmachi» rolini ijro etishini ma'lum qiladi va ularga quyidagi topshiriqni beradi:

- «ishlab chiqaruvchi» «o'z korxonasi»da tayyorlanadigan mahsulotlarni nomlaydi;
- «buyurtmachi» «korxona» xususiyatidan kelib chiqib, yozma «buyurtma» beradi;

— «ishlab chiqaruvchilar» buyurtma bilan tanishib chiqadilar va ularni aniqlik jihatidan tahlil qilib, buyurtmadagi kamchiliklarni aniqlaydilar;

— o'qituvchi 45 ta «ishlab chiqaruvchi»dan tahlil natijasini e'lon qilishni so'raydi;

— talabalarga ishlab chiqarish jarayoni hamda ta'lim jarayonlarini maqsad nuqtayi nazaridan taqqoslashni taklif qiladi va munozarani boshqaradi.

## 3.7. O'rta modulning mazmunini ifoda etuvchi matn ssenariysi

### Birinchi kichik modul

PT o'zining ilmiy asoslangan ravon tamoyillari va bajarilishi shart bo'lgan muayyan vazifalariga suyanadi. Ular quyidagilardir:

**Birinchi tamoyil,** ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashda va bu loyihalarni amaliyotda qo'llashda, albatta, sinergetikaning «majmuiy yondashuv» tamoyiliga va uning qonun-qoidalariga doimo amal qilinadi.

**Ikkinchi tamoyil,** ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashda va shu loyiha bo'yicha ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda didaktikaning barcha tamoyillari (prinsip) va qonun-qoidalaridan kelib chiqiladi.

**Uchinchi tamoyil,** ta'lim-tarbiya jarayonining loyihasi tuzilganda, bu jarayonda ishtirok etadigan barcha elementlarni – «maqsad va maqsadchalar», ularga ajratilgan «vaqt», «bilimlar tizimi va ular ichidagi tayanch tushunchalar», «dars turi va tipi», «pedagogik uslublar», «axborot texnologiyalar» va «didaktik materiallar»ning o'zaro uzviy bog'liqlikda ko'rib, har birini qo'llash joylari va yo'llari aniqlanib, o'quv mashg'ulotining loyihasiga belgilab qo'yiladi.

**To'rtinchi tamoyil,** ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashda va uni amalda qo'llashda talabalar egallashi shart bo'lgan bilimlarni mustaqil ravishda topishga urg'u beriladi.

**Beshinchi tamoyil,** loyiha asosida o'quv mashg'ulotlarini amalga oshirish jarayonida, berilayotgan bilimlarni talabalar anglashlari, xotirasida saqlashlari va amaliyotda qo'llay olishlarini bir vaqtning o'zida olib borishlikka erishiladi.

**Oltinchi tamoyil,** maqsadlarning natijalari fe'llar shaklida bo'lib, buning uchun muayyan o'quv mashg'ulotida ishlatiladigan fe'llarning tizimi ishlab chiqiladi.

**Yettinchi tamoyil,** o'quv mashg'ulotlarining yakunida, shu mashg'ulotda qabul qilingan baholash tur va mezonlaridan kelib chiqqan holda, barcha talabalarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi aniqlanadi.

Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o'quv mashg'ulotini loyihalashda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. O'quv fanini bir butunlikda «makro modul» deb qabul qilib, unda beriladigan materiallarning hajmi va mazmunidan kelib chiqib, «katta», «o'rta» va «kichik» modullarga ajratiladi, so'ng ularning maqsad va maqsadchalari hamda ularga ajratilgan vaqt belgilanadi.

2. Har bir kichik modul yordamida beriladigan bilimlar tizimi ichidan tayanch tushunchalar ajratiladi.

3. Tayanch tushunchalar asosida nazorat savollari tuzilib, talabalar bilim va ko'nikmalarini baholash tur va mezonlari belgilanadi.

4. O'quv mashg'ulotlarining har bir kichik modulida qo'llaniladigan dars turi va tipi aniqlanib olinadi.

5. Har bir kichik modulda qo'llaniladigan pedagogik uslublar aniqlanib, joylari topib qo'yiladi.

6. Ta'lim muassasasida mavjud axborot texnologiyalardan hamda har bir kichik moduldagi o'quv mashg'ulotining xarakteridan kelib chiqib, o'quv mashg'ulotini amalga oshirishda foydalaniladigan axborot texnologiyalarning qo'llanish joylari belgilanadi.

7. O'quv mashg'uloti jarayonida, har bir kichik modulda foydalaniladigan didaktik materiallarnng turi va joyi aniqlanadi.

## Ikkinchi kichik modul

Pedagogik texnologiyani yaratishda o'qituvchi tomonidan ta'lim maqsadini to'g'ri anglash nihoyatda muhimdir. Ta'lim jarayonini tashkillashtirishda o'quv maqsadidan kelib chiqiladi.

Pedagogik texnologiya tarafdorlari taklif etgan o'quv maqsadlarini aniqlash usuli o'zining yuqori darajada instrumentalligi (o'ta amaliyligi) bilan ajralib turadi. O'quv maqsadlari o'quvchining ishonchli o'lchash va tashqaridan bilib olish mumkin bo'lgan xatti-harakatida ifodalanib, ular o'qitish natijalari orqali shakllantiriladi.

1. O'quv maqsadlarining shunday sistemasini yaratish kerakki, uning ichida o'quv maqsadlarining toifalari va darajalari **ketma-ketligi aniq belgilangan bo'lsin**. O'quv maqsadlarining bunday sistemasi **pedagogik taksonomiya** deb ataladi.

**2.** O'quv maqsadlarini ifodalash uchun shunday **aniq va tushunarli tilni** topish kerakki, o'qituvchi bu til orqali maqsadlarni aniq ifodalaydigan bo'lsin.

**Taksonomiya** tushunchasi (yunoncha – tartib bilan joylashtirish) biologiya fanidan olingan.

Maqsadlarning aniq va tartibli, ierarxik turkumini yaratish, eng avvalo, amaliyotchi pedagoglar uchun juda muhimdir. Buning sabablari quyidagicha:

**1. O'quv jarayonida e'tiborni asosiy maqsadga qaratish.** O'qituvchi taksonomiyadan foydalangan holda nafaqat o'quv maqsadlarini, balki asosiy vazifalarni, bundan keyingi faoliyatining tartibi va borishini ham belgilashi mumkin.

**2. O'qituvchi va o'quvchilar hamkorlikdagi faoliyatining aniqligi va oshkoraligi.** Aniq o'quv maqsadlari o'qituvchi uchun o'quvchilarga ularning umumiy faoliyatidagi asosiy yo'nalishlarni tushuntirish, muhokama qila olish va ixtiyoriy qiziquvchi shaxslar (ota-onalar, tekshiruvchi) uchun ham aniq va tushunarli bo'lishini ta'minlash imkoniyatini beradi.

**3. O'qitish natijalarini baholash andazasi (etaloni)ni aniqlash.** Faoliyat natijalari orqali aniq ifodalangan o'quv maqsadlari, ularni ishonchli va xolisona baholash imkoniyatini beradi.

B.Blum taksonomiyasi yordamida o'qituvchi nafaqat o'quv maqsadlarini aniqlashtirishga, balki ularni o'zaro bog'liq bo'lgan qat'iy ketma-ketlikda joylashtirishga muvaffaq bo'ladi.

1. **Bilish:**

dalillarni bilish, atamalarni bilish,

dalillarni tanlash usulini bilish;

belgilarni bilish;

rivojlanish tendensiyasini bilish;

turkumlashni bilish;

baholash mezonlarini bilish;

muayyan bir yoki bir necha muammoni hal qilishda qo'llaniladigan uslublarni bilish;

umumiy tushuncha, nazariyalarni bilish;

hodisalarni tushuntirish va ularni oldindan ko'ra olish tamoyillarini bilish.

**2. Tushunish:**

mazmunni bir til (tizim)dan boshqasiga aylantirish;

izohlash;

olingan natijalarni yoyish yoki tatbiq etish.

**3. Qo'llash:**

uslublar, qoidalar, umumiy tushunchalarni vaziyat va topshiriqlarni hal qilishda qo'llash.

**4. Tahlil qilish:**

bir butun narsa (hodisa)ni qismlarga ajratish, bu qismlarning yoyilmasini va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni tuzish;

qismlarni tahlil qilish;

qismlar o'rtasidagi munosabatni tahlil qilish;

yaxlitlikni tashkil qilish tamoyillarini bilish.

**5. Sintez, ya'ni yangi tarkib hosil qilish maqsadida berilgan qismlarni umumlashtirish:**

asar yozish;

ish faoliyati rejasini tuzish;

berilganlarga asoslanib yaxlitlik yaratish;

insho yozish.

**6. Baholash, ya'ni maqsadga muvofiq holda qo'llanilgan material yoki uslublarni baholash (munosabat bildirish):**

ichki mezonlar asosida baholash;

tashqi mezonlar asosida baholash.

## Uchinchi kichik modul

Yer yuzida o'qituvchilik kasbi paydo bo'lishi bilan, ta'lim-tarbiya berish usullari ham shakllana boshlagan. Tarixda ta'lim-tarbiya usullari juda ko'p bo'lgan, ular saralanib, bugunga kelib ichidan eng hayotiylari saqlanib qolingan. Saqlanib qolinganlarining eng umumiy tomonlarini hisobga olgan holda, ularni uch toifaga ajratish mumkin.

**Birinchi toifadagi usullar «An'anaviy usullar»** deb atalib, talaba-yoshlarga bilimlarni **«yetkazib berish»** tamoyiliga asoslanadi. Ularga: «aytib berish», «ko'rsatib berish», «namoyish», «ma'ruza taqdimoti», «savol-javob», «to'rt pog'onali usul»lar va boshqalar kiradi.

**Ikkinchi toifadagi usullar «Interfaol usullar»** deb nomlanib, **bilim oluvchilarni** bilim egallashlarida **«faollashtirish»** tamoyiliga tayanadi. Ularga: «muammoli dars», «fikriy hujum», «aqliy hujum», «kichik guruhlar bilan ishlash», «davra suhbati», «klaster usuli», «qora quti», «beshinchisi ortiqcha», «ishbob o'yin», «rolli o'yin», «bahs-munozara», «qarama-qarshi munosabat», «zakovatli zukko», «zigzag», «charxpalak», «zinama-zina» va boshqa ko'pdan-ko'p usullar kiradi.

**Uchinchi toifadagi usullar «Ilg'or yoki zamonaviy usullar»** deyilib, ta'lim-tarbiya jarayonini **«jadallashtirish va samaradorligini oshirish»** tamoyilidan kelib chiqadi. Ularga: «loyihalash usuli», «yo'naltirilgan matn», «programmalashtirish», «modulli o'qitish», «texnologik xarita usuli» kirib, bu barcha usullarning afzallik tomonlarini **«pedagogik texnologiya»** o'zida mujassamlashtiradi.

Bu uch toifadagi usullar tarixan tarkib topib, vaqt o'tishi bilan biri biridan takomillashib, o'z davrining talabiga javob bergan. Yuqorida aks etgan usullar amalda qo'llanilayotganda, «pedagogik texnologiyadan» tashqari, ijobiy tomonlari bilan bir qatorda kamchiliklari va noqulay tomonlari ham mavjud.

Shuning uchun ham, XX asrning yarmilaridan oshganda, dunyodagi pedagog olimlarining oldida insoniyat kashf qilgan barcha pedagogik usullarning hamma ijobiy tomonlarini o'zida birlashtira oladigan, shu bilan bir qatorda, o'quv jarayonini jadallashtirib, samaradorligini zamon talabi darajasiga yetkazuvchi hamda bu jarayonni o'qituvchi va pedagogning mahoratidan xalos etuvchi hamda amaliyotda foydalanishi qulay bo'lgan pedagogik usulni shakllantirish masalasi ko'ndalang bo'lib qolgan edi.

XX asrning ikkinchi yarmining o'rtalariga kelib, bunday usul AQSH olimlari tomonidan kashf qilinib, u «**Ta'lim texnologiyasi**» deb nomlandi. Bu usulni barcha rivojlangan mamlakatlarning pedagog olimlari o'z hududlariga moslashtirib, uni birlari «Yangi pedagogik texnologiya», ikkinchilari «Ilg'or pedagogik texnologiya», yana boshqalari «Zamonaviy pedagogik texnologiya» deb nomlay boshladilar.

Pedagogik texnologiya g'oyasi bizning hududga, davlatimiz mustaqillikka erishganidan keyin, xorijiy mamlakatlardan turli nomlar bilan kirib kela boshladi. Uning nazariy asoslarini to'la bo'lmasa ham ifoda etuvchi, o'zbek tilidagi bir qator asarlar ham paydo bo'ldi. Pedagogik texnologiyaning o'ziga yarasha nazariy asoslari shakllanib, ba'zilar uni alohida fan sifatida o'qitilishi kerak degan fikrni ham bildirmoqdalar. Bizning fikrimizcha, «pedagogik texnologiya» pedagogikaning «metodika» degan bo'limining ajralmas qismi bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishning texnologiyalashgan usuli(metodi)dir.

## 4. BIRINCHI KATTA MODULNING TO'RTINCHI O'RTA MODULI (amaliy mashg'ulot) – Pedagogik texnologiya nazariy asoslari. Zamonaviy pedagogik texnologiya turlari

### 4.1. Laboratoriya o'quv mashg'ulotining maqsadi

*1.4.1-jadval*

| |
|---|
| Talabalarda birinchi katta modul bo'yicha shakllangan bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va pedagogik jarayonga majmuiy yondashuvni shakllantirish. |

### 4.2. Laboratoriya o'quv mashg'uloti rejasi, turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar

*1.4.2-jadval*

| Mavzu | Pedagogik texnologiya nazariy asoslari. Zamonaviy pedagogik texnologiya turlari |
|---|---|
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | ***Reja***:<br>1. Majmular turlari.<br>2. Pedagogik maqsadlar. |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Ijodiylik xususiyatiga ega laboratoriya mashg'uloti. |
| Ta'lim usullari | Kontseptual jadval, ijodiy amaliy ish. |
| Ta'lim vositalari | Majmular jadvali (doskada yoki ekranda), pedagogik maqsadlar tuzish bo'yicha topshiriq varaqasi (tarqatma material), mutaxassislik fanidan o'quv dasturi va darslik, FYOTV. |
| Ta'lim shakllari | Ommaviy, jamoaviy, juftliklarda. |
| O'qitish sharoitlari | Multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash | Talabalarning konseptual jadvalni to'ldirish davomidagi faoliyati, pedagogik maqsadlar tuzish bo'yicha bajarilgan yozma ish. |

## 4.3. Laboratoriya mashg'ulotining pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot texnologiyalari va didaktik materiallar hamda faoliyat mazmuni

*1.4.3-jadval*

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat jarayoni | |
|---|---|---|
| | ta'lim beruvchi | ta'lim oluvchilar |
| 1-bosqich. O'quv mashg'u-lotiga kirish (10 daq.) | 1.1. Pedagogik texnologiya modulining laboratoriya mashg'u-lotlarining tashkiliy jihatlari bilan talabalarni tanishtiradi.<br>1.2. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi.<br>1.3. Talabalarning faollashti-rish va «majmu» tushunchasini mustahkamlashlari maqsadida jadval to'ldirishlarini tashkil-lashtiradi (4.3.1-ilova). | 1.1. Tinglaydilar, aniq-lashtiruvchi savollar berishlari mumkin.<br>1.2. Tinglaydilar, aniq-lashtiruvchi savollar berishlari mumkin.<br>1.3. Talabalar jamoaviy shaklda ishlab, o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan jadvalni to'ldiradilar. |
| 2-bosqich Asosiy (65 daq.) | 2.1. Pedagogik maqsadlarni shakllantirishga qaratilgan ta'-limiy faoliyatni tashkillashtiradi:<br>- talabalarni juftliklarga bo'-ladi va topshiriq varqalarini tarqatadi (4.3.2-ilova);<br>- topshiriqning bajarilishini ku-zatib boradi, talabalarga mas-lahat beradi;<br>- 56 ta ishlar taqdimoti va ular-ning muhokamasini tashkillash-tiradi;<br>- barcha juftliklarga o'z ishla-rini yana bir bor tanqidiy ko'-rib chiqish va xatolarni tuzatish uchun vaqt beradi;<br>- talabalar ishlarini tekshirish uchun yig'ib oladi. | 2.1. O'qituvchi reja-lashtirgan tartibda pe-dagogik maqsadlarni tuzadilar.<br>Muhokamada qat-nashadilar.<br>Bajargan ishlarini topshiradilar. |

| | | |
|---|---|---|
| 3-bosqich. Yakuniy (10 daq.) | 3.1. Refleksiya faoliyatini tashkillashtiradi – talabalarning mashg'ulot natijasida shakllangan bilim, tasavvur, munosabatlarni tahlil qilishga undaydi; bajarilgan vazifalarni murakkablik darajasi nuqtayi nazaridan muhokama qilishlarini tashkillashtiradi.<br>3.2. Mustaqil ta'lim bo'yicha vazifa beradi: tuzilgan pedagogik maqsadlar asosida topshiriqlar majmuasini tuzadi. | 3.1. Savollarga javob berib, refleksiyani amalga oshiradilar.<br>3.2. Mustaqil bajarish uchun berilgan vazifani yozib oladilar. |

*4.3.1-ilova*

«MAJMULAR»

| | Tartibli | Tartibsiz | Tezlikka ega | Sust | Ikki qarama-qarshi | Ko'p tomonlama | Nuqtaviy | Tizimli | Tiklanuvchi | Tiklanmaydigan | Oddiy | Murakkab | Markazlashgan | Markazlashmagan | Bir pog'onali | Ko'p pog'onali |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Oila | | | | | | | | | | | | | | | | |
| Kimyoviy elementlar | | | | | | | | | | | | | | | | |
| Uzluksiz ta'lim jarayoni | | | | | | | | | | | | | | | | |

# II. IKKINCHI KATTA MODUL –
## *Talabalar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish (intensivlash)ga asoslangan ta'lim texnologiyalari*

(1 ta ma'ruza va 1 ta amaliy mashg'ulot modullari)

## 1. IKKINCHI KATTA MODULNING BIRINCHI O'RTA MODULI (ma'ruza) –
## Talabalar faolligi, muammoli ta'lim usuli, loyihalar usuli va o'yinli texnologiyalar

### 1.1. Ikkinchi katta modul tarkibidagi birinchi o'rta modulning umumiy maqsadi

*2.1.1-jadval*

| |
|---|
| Talabalarda tahsil oluvchi faoliyatini faollashtirish va intensifikatsiyalash (jadallashtirish)ga asoslangan ta'lim texnologiyalari haqida DTS da ko'rsatilgan hajmdagi bilimlarni, bo'lajak pedagogik faoliyatida muammoli ta'lim usuli, loyihaviy ta'lim usuli, o'yinli ta'lim texnologiyasini qo'llash uchun zaruriy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, shuningdek, tahsil oluvchiga insonparvar yondashuvni, kedajakda har bir o'quvchi-talabada shaxsni ko'ra olish va uni hurmat qilish, tahsil oluvchilar qobiliyatiga ishonch hissini va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini, ta'limiy vazifa va vaziyatlarni yaratish ko'nikmalarini, muammoli vaziyatlarni yechish, maqsadli faoliyat olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish. |

## 1.2. Birinchi o'rta modulning kichik modullari nomlari va maqsadlari

*2.1.2-jadval*

| T/r | Kichik modullar nomi | Kichik modullarning maqsadi |
|---|---|---|
| 1. | Ta'lim jarayonida tahsil oluvchining faolligi | Talabalarga ta'lim jarayonida tahsil oluvchi faolligi tushunchasi ma'nosini izohlay olishni, tahsil oluvchi faolligi darajalarini, ta'lim jarayonida uning faolligining ifodalanishini va tahsil oluvchi faolligini ta'lim jarayoni samaradorligiga bo'lgan ta'sirini o'rgatish. |
| 2. | Muammoli ta'lim usuli | Talabalarga muammoli ta'lim usulining ta'riflarini, ushbu usul maqsadlari, asosiy farqlovchi jihatlarini, ushbu usulning shakllanish tarixini, muammoli ta'lim usuli nazariy asoslarini ishlab chiqqan olimlarni va ularning yondashuvlarini o'zaro taqqoslay olishni, muammoli ta'lim uslubiyotining o'ziga xosliklarini, muammoli ma'ruza usuli maqsadlari va qo'llanilishiga talablarni hamda muammoli savollar tuza olish ko'nikmasini shakllantirish, shuningdek, muammoli ta'lim usulini ta'lim samaradorligi uchun bo'lgan ahamiyatini to'g'ri baholay olishini tushuntirish. |
| 3. | Loyihaviy ta'lim usuli haqida umumiy tushuncha, loyihaviy ta'lim usuli maqsadi, mohiyati, tamoyillari | Talabalarga loyihaviy ta'lim usuli mavzusiga oid asosiy tushunchalar ta'riflarini, ushbu usul maqsadlari, asosiy farqlovchi jihatlarini, loyihaviy ta'lim usulining shakllanish tarixini, ushbu usul asoschilari nomlarini va loyihaviy faoliyat samaralorligini ta'minlovchi qoidalarni hamda loyihaviy ta'lim usulining ta'lim samaradorligi uchun bo'lgan ahamiyatini tushuntirish. |

| | | |
|---|---|---|
| 4. | Talabalar loyihaviy faoliyatini boshqarish, o'quv loyihalarini baholash | Talabalarga loyihaviy ta'lim usulini qo'llaganda ta'lim hududini tashkillashtirishga qo'yiladigan talablarni, talabalarning loyihaviy faoliyatini baholash mezonlarini, ushbu talab va mezonlarni asoslab bera olishini va loyihaviy ta'limda talabaning faoliyati mohiyatini tushuntirish. |
| 5. | O'yinli ta'lim usuli maqsadi, mohiyati, tashkiliy jihatlari va pedagogik o'yin turlari | Talabalarga o'yinli ta'lim usuli mavzusiga oid asosiy tushunchalar ta'riflarini, ushbu texnologiya maqsadlari, asosiy farqlovchi jihatlarini, o'yinli ta'lim usuli samaradorligini ta'minlovchi omillarni, didaktik o'yinning tashkiliy jihatlarini va o'yinli ta'lim usulining ta'lim samaradorligi uchun bo'lgan ahamiyatini o'rgatish, shuningdek, pedagogik o'yinlar turlarini, ularni maqsad, mohiyati, tuzilmasi nuqtayi nazaridan tahlil qila olishni va o'zaro taqqoslay olishni hamda o'z mutaxassislik fanidan pedagogik o'yin ishlab chiqa olishga o'rgatish. |

## 1.3. Kichik modullar tayanch tushunchalari va ular asosida tuzilgan nazorat savollari

*2.1.3-jadval*

| T/r | Tayanch tushunchalar | Nazorat savollari |
|---|---|---|
| 1 | Intensivlash (jadallashtirish), faollik | 1. Ta'lim jarayonida tahsil oluvchi faolligi nimada namoyon bo'ladi?<br>2. Ta'lim jarayonida tahsil oluvchining faolligi tamoyili nimani anglatadi?<br>3. Olimlar ta'limiy faollikning qaysi darajalarini aniqlaydilar?<br>4. Tahsil oluvchi faolligini oshirishga xizmat qiluvchi uslublarni sanab bering.<br>5. «O'qitishning faol usullari» keng joriy qilingan yillar. |

| | | |
|---|---|---|
| 2 | Muammoli ta'lim, muammoli vaziyat, Dyui g'oya-si, muam-moli savol | 1. Muammoli ta'limga olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni izohlang.<br>2. Muammoli ta'lim maqsadlarini sanab bering.<br>3. Muammoli savol, muammoli vaziyat tushun-chalariga ta'rif bering.<br>4. Dyui g'oyasi nimadan iborat?<br>5. Mustaqil faoliyatini tashkillashtirishni nazarda tutuvchi ta'lim jarayonini aytib bering. |
| 3 | Loyiha, loyihaviy ta'lim, loyiha turlari | 1. Loyihaviy ta'lim mualliflari kim?<br>2. Loyihaviy ta'lim maqsadlarini sanab bering.<br>3. Muammoli vaziyatlar turlarini sanab bering, ularni sharhlang.<br>4. Muammoli savol va muammoli vaziyatlarga misollar tuzing.<br>5. O'quv-ijodiy loyihalar turlari, loyiha ustida ishlash jarayoni bosqichlarini sanab bering. |
| 4 | Faoliyatni boshqarish, faoliyatni baholash, tyutor | 1. Qaysi asosiy jihat loyihali ta'limni muammoli ta'limdan farqlaydi?<br>2. O'quv ijodiy loyiha nima?<br>3. Loyiha ustida ish olib boriladigan asosiy hudud.<br>4. Talabalar loyihaviy faoliyatini baholash mezon-larini aytib bering.<br>5. Loyihaviy ta'limda tyutor (o'qituvchi, ilmiy rahbar) o'rni. |
| 5. | O'yinli ta'-lim, didak-tik o'yin, o'yinlar tur-lari, «Birga-likda o'rga-namiz» (Koopkoop) | 1. Pedagogik o'yin boshqa o'yin turlaridan nimasi bilan farqlanadi?<br>2. O'yinli ta'lim texnologisiyaga asoslangan ta'-lim jarayoni qanday tashkillashtiriladi?<br>3. Pedagogik o'yinlar turlarini sanab bering.<br>4. Pedagogik o'yinlar turlari maqsadi, mohiyati, tashkiliy jihatlarini o'zaro taqqoslang.<br>5. Pedagogik o'yinlar turlariga misollar keltiring.<br>6. Mutaxassislik faningizni o'qitishga oid o'yin ishlab chiqing.<br>7. «Birgalikda o'rganamiz» o'yin uslubi nima? |

## 1.4. Kichik modullar nazorat savollari asosida tuzilgan test

*2.1.4-jadval*

| T/r | Savollar | Mumkin bo'lgan javoblar | |
|---|---|---|---|
| 1 | Tahsil oluvchi faolligini oshirish uchun nima qilish kerak? | 1 | Ko'proq vazifa berish. |
| | | 2 | Maxsus psixologo-pedagogik sharoitlar yaratilishi. |
| | | 3 | Qattiqo'l bo'lish. |
| | | 4 | Talabalar bilan birga vazifalarni bajarish. |
| 2 | Muammoli o'qitish, o'yin usullari nimani ta'minlaydi? | 1 | O'quv jarayonining tez kechishini. |
| | | 2 | O'quvchilar faolligini. |
| | | 3 | O'qituvchi faolligini. |
| | | 4 | O'quvchilarning xotirasini mashq qildiradi. |
| 3 | Ijodiy faollik aqliy faollikning nechanchi darajasidir? | 1 | 1 |
| | | 2 | 2 |
| | | 3 | 3 |
| | | 4 | 4 |
| 4 | Muammoli ma'ruza ta'rifi | 1 | Muamoli vaziyat. |
| | | 2 | Bilish jarayonini izlanish faoliyatiga yaqinlashtiruvchi ta'lim shakli. |
| | | 3 | O'yinli usullarga asoslangan ta'lim shakli. |
| | | 4 | Yangi o'quv materialini o'qituvchi bayon qilishi. |
| 5 | Qaysi qatorda muammoli ta'lim maqsadlaridan biri berilgan? | 1 | O'quvchilarda izlanishga qaratilgan ko'nikma va malakalarni shakllantirish. |
| | | 2 | O'quvchilar xotirasini mustahkamlash. |
| | | 3 | O'quvchilarda ongli intizomni shakllantirish va rivojlantirish. |
| | | 4 | O'quvchilarda ijtimoiy sifatlarni rivojlantirish. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 6 | Muammoli ta'limning asosiy tarkibiy qismi | 1 | Muammoli ma'ruza. |
| | | 2 | Mustaqil ish. |
| | | 3 | Muammoli vaziyat. |
| | | 4 | Referat yozish . |
| 7 | Pedagogikada muammoli vaziyat qanday ta'riflanadi? | 1 | Mustaqil izlanishni talab etuvchi vaziyat. |
| | | 2 | Murakkab vaziyat. |
| | | 3 | O'quvchida shakllanadigan aqliy qiyinchilik holati. |
| | | 4 | Bahsni keltirib chiquvchi vaziyat. |
| 8 | «Loyiha» so'zining qaysi ma'nosi aynan «pedagogik loyiha» tushunchasiga yaqin? | 1 | Borliqning ma'lum qismini o'zgartirish maqsadi (fikri). |
| | | 2 | Bir guruh insonlarning hamkorlikda ishlashining ma'lum shakli. |
| | | 3 | Biror bir hujjatning dastlabki matni. |
| | | 4 | Bo'lajak obyektning obrazi (tasavvuri). |
| 9 | Qaysi asosiy jihat loyihali ta'limni muammoli ta'limdan farqlaydi? | 1 | Muammoli savollar soni. |
| | | 2 | Loyihaviy faoliyat yakunida aniq (amaliy) natija olinishi va taqdim etilishi. |
| | | 3 | Muammoning yechimini izlashda o'qituvchi boshqaruvchi rolini ijro etishi. |
| | | 4 | Loyiha ustida ishlash ko'p vaqt talab qilishi. |
| 10 | Loyihaviy ta'limni boshqa ta'lim usullaridan farqlovchi maqsadni ko'rsating. | 1 | O'quvchilarda ta'limga motivatsiyasini oshirish. |
| | | 2 | O'quvchilarda mustaqil tafakkurni rivojlantirish. |
| | | 3 | Loyihali tafakkurni shakllantirish. |
| | | 4 | Hamkorlikda qaror qabul qilishni o'rgatish. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 11 | Qaysi qatorda loyihaviy faoliyat bosqichlari to'g'ri ketma-ketlikda berilgan? | 1 | Muammolarni shakllantirish; mahsulotning yakuniy ko'rinishi loyihasini ishlab chiqish; texnologik bosqich; refleksiya. |
| | | 2 | Mahsulotning yakuniy ko'rinishi loyihasini ishlab chiqish; muammolarni shakllantirish; texnologik bosqich; refleksiya. |
| | | 3 | Texnologik bosqich; muammolarni shakllantirish; mahsulotning yakuniy ko'rinishi loyihasini ishlab chiqish; refleksiya. |
| | | 4 | Mahsulotning yakuniy ko'rinishi loyihasini ishlab chiqish; muammolarni shakllantirish; texnologik bosqich; refleksiya. |
| 12 | Nima sababdan loyihaviy ta'limni amalga oshirishda shart-sharoitlarga alohida e'tibor qaratiladi? | 1 | Didaktik shart-sharoitlarning mavjudligi talabalarni o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. |
| | | 2 | Loyihaviy faoliyat talabalarning mustaqil ravishda bilim olishi, turli ta'lim shakllarining qo'llanilishini talab qiladi. |
| | | 3 | Loyihaviy ta'limda talabalar individual ishlaydilar. |
| | | 4 | Loyihaviy faoliyatni amalga oshirish tadqiqot olib borishni talab qiladi. |
| 13 | Qaysi qatorda «o'yin» tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan? | 1 | Bolalar faoliyati turi. |
| | | 2 | Ma'lum qoidalar asosida amalga oshiriladigan faoliyat. |
| | | 3 | Ijtimoiy tajribani qayta yaratish va o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat turi. |
| | | 4 | Bellashuv jihatiga ega faoliyat. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 14 | «O'yinli ta'lim usuli» tushunchasi nimani anglatadi? | 1 | O'quvchilarni o'qishga qiziqtirishni maqsad qilib qo'ygan texnologiya. |
| | | 2 | Ta'lim jarayonida bellashuv vaziyatini vujudga keltirish. |
| | | 3 | Pedagogik jarayonni turli pedagogik o'yinlar shaklida tashkillashtirishning qator usullarini qo'llash. |
| | | 4 | Ta'lim jarayonida o'yinga xos psixologik sharoitni yaratish. |
| 15 | Pedagogik o'yin tuzilmasining birinchi bosqichi qaysi qatorda ko'rsatilgan? | 1 | Rejalashtirish. |
| | | 2 | Maqsad qo'yish. |
| | | 3 | Maqsadni amalga oshirish. |
| | | 4 | Natijalar tahlili. |

## 1.5. Dars turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar

*2.1.5-jadval*

| | |
|---|---|
| O'quv mashg'ulotining shakli | Mustaqil ta'lim elementlari kiritilgan ma'ruza mashg'uloti. |
| Ta'lim usullari | Sharh, «Birgalikda o'rganamiz» («Koopkoop») usuli, test. |
| Ta'lim vositalari | «Didaktik tamoyillar» ro'yxati (slayd), nazariy ma'lumotni «Birgalikda o'rganamiz» (Koopkoop) usulida o'rganish bo'yicha yo'riqnoma; o'quv-uslubiy qo'llanma; baholash varaqasi, FYOTV, test (slayd). |
| Ta'lim shakllari | Ommaviy, guruhiy, yakka tartibda, jamoaviy, juftliklarda. |
| O'qitish sharoitlari | Multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash | Talabalarning didaktik tamoyillarini sharhlash jarayonidagi faoliyati, taqdimotda qatnashuvi, test natijalari. |

## 1.6. Kichik modullarning pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot-komunikatsion texnologiyalar va didaktik materiallar

*2.1.6-jadval*

| Ish bosqichlari va vaqti | O'quv jarayoni | |
|---|---|---|
| | **ta'lim beruvchi** | **ta'lim oluvchilar** |
| 1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.) | 1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi.<br>1.2. Talabalarni faollashtirish va mavzuga yo'naltirish uchun didaktik tamoyillarni sharhlash vazifasini beradi (1.6.1-ilova). | 1.1. Tinglaydilar, aniqlashtiruvchi savollar berishlari mumkin.<br>1.2. Didaktik tamoyillarni sharhlaydilar, talqin qiladilar, amaliyotga bog'laydilar. |
| 2-bosqich Asosiy (65 daq.) | 2.1. Ta'lim jarayonida tahsil oluvchining faolligi mavzusini ochib beradi (1.6.2-ilova, 2-katta modulning o'rta moduli slaydlari).<br>Ma'ruzaning birinchi kichik moduli bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash, nazoratni amalga oshirish maqsadida test o'tkazadi (14 ta test) va test kalitini taqdim qilib, talabalarga o'z bilimlarini tekshirishi uchun sharoit yaratadi.<br>Yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashtiradi va ularni to'g'rilash bo'yicha faoliyatni tashkillashtiradi: tetsni to'g'ri yechgan talabalarga so'z beradi, zarur holatda o'zi qaytadan ma'lumotni tushuntiradi. | 2.1. Axborotni tinglaydilar, muhim ma'lumotlarni yozib boradilar.<br>Test yechadilar, test kaliti yordamida o'z-o'zlarini nazorat qiladilar, xatolar ustida ishlash jarayonida qatnashadilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | 2.2. «Birgalikda o'rganamiz» («Koopkoop») usulini qo'llagan holda talabalarda mavzu bo'yicha bilimlarni shakllantiradi: talabalarni 3 ta kichik guruhga bo'ladi; 1-guruhga «Muammoli ta'lim usuli»; 2-guruhga – «Loyihaviy ta'lim usuli»; 3-guruhga – «O'yinli ta'lim usuli» mavzularini mustaqil o'rganish va taqdim etish topshirig'ini beradi. Guruhlar taqdimotlarini tashkillashtiradi. Guruhlar ishining muhokamasi va baholanishini boshqaradi. | 2.2. Belgilangan tartibda (3-ilova) nazariy ma'lumotlarni mustaqil o'rganadilar va kichik guruhlarda taqdimot o'tkazadilar. |
| | Ma'ruza mavzusi bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash, nazoratni amalga oshirish maqsadida test o'tkazadi (11–13 ta test) va test kalitini taqdim qilib, talabalarga o'z bilimlarini tekshirishi uchun sharoit yaratadi. Yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashtiradi va ularni to'g'rilash bo'yicha faoliyatni tashkillashtiradi: testni to'g'ri yechgan talabalarga so'z beradi, zarur holatda o'zi qaytadan ma'lumotni tushuntiradi. | Test yechadilar, test kaliti yordamida o'z-o'zlarini nazorat qiladilar, xatolar ustida ishlash jarayonida qatnashadilar. |

| | | |
|---|---|---|
| 3-bosqich. Yakuniy (10 daq.) | 3.1. Refleksiya faoliyatini tashkillashtiradi – talabalarni mashg'ulot natijasida o'rganilgan mavzu bo'yicha o'zlarida shakllangan bilim, tasavvur, munosabatlarni tahlil qilishga undaydi.<br>Savollar:<br>*- O'rganilgan uchta ta'lim texnologiyalarini qaysi jihatlar umumlashtiradi?*<br>*- O'rganilgan qaysi texnologiyalarning elementlari sizga oldindan tanish edi va qaysi texnologiya siz uchun yangilik bo'ldi?*<br>*- O'rganilgan pedagogik usullardan qaysilarini bo'lajak mehnat faoliyatingizda keng qo'llagan bo'lar edingiz? Nimaga?* | 3.1. Savollarga javob berib, refleksiyani amalga oshiradilar. |

*1.6.1-ilova*

**Didaktik tamoyillar.**

1. O'qitish jarayonining tarbiyaviylik tamoyili.
2. O'qitishning ilmiylik va tushunarlilik tamoyili.
3. O'qituvchi rahbarligida tahsil oluvchilarning onglilik va faol yondashuvlarini tashkil etish tamoyili.
4. Aniqlik va mavhumlikning birligi (o'qitishning ko'rsatmaliligi) tamoyili.
5. Nazariyani amaliyot va o'qitishning uzviyligi bilan bog'lash tamoyili.
6. Bilimlarni puxta o'zlashtirish va bilishning har tomonlama rivojlanishi tamoyili.
7. O'qitishning zamonaviylik xususiyati va tahsil oluvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish tamoyili.

*1.6.2-ilova*

**Nazariy ma'lumotni «Birgalikda o'rganamiz» («Koopkoop») usulida o'rganish bo'yicha yo'riqnoma:**

1. Berilgan nazariy ma'lumotni guruhda o'rganib chiqing va tahlil qiling:

nomlanishi;

maqsadi;

qo'llanilish tartibi;

ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar;

yutuqli tomonlari va qo'llashni murakkablashtiruvchi jihatlari;

qo'llanilishi mumkin bo'lgan fanlar, mavzularga misollar.

2. Yuqorida sanab o'tilgan punktlarga asosan taqdimot tayyorlang (tayyor slaydlardan foydalanish bilan bir qatorda qog'oz yoki kompyuterda taqdimot tayyorlang).

3. Taqdimot o'tkazing.

4. Boshqa guruhlar chiqishini kuzating va baholang.

**Baholash varaqasi**

| Guruh tartib raqami | Ma'lumotning to'laligi (max. 5 ball) | Ma'lumotning aniq va tushunarli yetkazilishi (max. 5 ball) | Taqdimotga tayyorlangan jihozlarning mavjudligi (max. 5 ball) | Jami |
|---|---|---|---|---|
| 1-guruh | | | | |
| 2-guruh | | | | |
| 3-guruh | | | | |

## 1.7. O'rta modulning mazmunini ifoda etuvchi matn ssenariysi

### Birinchi kichik modul

OTM larda amalga oshirilayotgan o'quv jarayonining asosiy maqsadlaridan biri deb, talabalarda mustaqil, ijodiy fikrlash malakasini rivojlantirish ko'rsatilmoqda.

Ta'lim jarayonida bilim oluvchining faolligi tamoyili pedagogikada eng muhim tamoyillaridan bo'lib kelgan. Uning mohiyati o'rganilayotgan predmetni talabalar tomonidan maqsadli va **faol qabul qilinishi, anglanishi, qayta ishlanishi va qo'llanilishidir.**

Faollik tuzilmasi quyidagi tarkibiy qismlar orqali ifodalanadi:

- ta'limiy vazifalarni bajarishga bo'lgan tayyorlik;
- mustaqil faoliyat olib borishga intilish;
- bajarilayotgan harakatlarning anglanganligi;
- faollik predmetiga yo'naltirilgan diqqatning mustahkamligi;
- o'z bilim darajasini yanada oshirishga bo'lgan intilish.

Ta'limiy faollik darajalari:

«obyekt faoliyati»;

«subyekt faoliyati».

Quyidagi vaziyatlar ta'lim mashg'ulotida eng yuqori faollashtiruvchi effekt beradi:

– hodisa va jarayonlarni *mustaqil tushuntirib* berish;

– *o'z nuqtayi nazarini* isbotlash;

– *munozara va bahslarda* ishtirok etish;

– o'z guruhdoshlariga yoki o'qituvchiga *savol berish*;

– boshqa talabalar javobiga *taqriz* berish;

– boshqa talabalar javobini *baholash*;

– o'zlashtirishi past bo'lgan guruhdoshlariga materialni *tushuntirish*, ularni o'qitish;

– o'z kuchini inobatga olgan holda o'ziga mos *vazifa tanlash*;

– bir masalaning *bir necha yechimlarini* izlab topish;

– o'z harakatlari natijasini *tekshirish*, ularni (harakatlarni) tahlil qilish;

– o'zida oldindan shakllantirilgan bilim ko'nikmalarni majmuaviy qo'llab, *ta'limiy vazifalarni* yechish.

Ta'limiy faollik darajalari (M.V.Bulanova, Toporkova, A.V.Duxavneva va boshq. bo'yicha):

– **qayta tiklash faolligi** – bilim oluvchining ma'lumotni tushunishi, eslab qolish va qayta tiklashga, namunada ko'rsatilgan harakatlarni o'zlashtirishga bo'lgan intilishi;

— **izohlash faolligi** — bilim oluvchining o'zlashtirilayotgan axborotni tushunishga, boshqa ma'lumot va hodisalar bilan bog'liqliklarini aniqlash, o'zgartirilgan sharoitlarda olgan bilimlarni ishlatishga intilishi;

— **ijodiy faollik** — bilim oluvchining bilimlarni nazariy anglash, muammoning yechimini mustaqil izlash, bilimga bo'lgan qiziqishi.

Faollashtirish maqsadi va vositalari o'yinli texnologiya, muammoli talim texnologiyasi, interfaol texnologiyalarning **asosiy g'oyasini** tashkillashtirib, ularning natijaviyligini ta'minlovchi omil sifatida qabul qilinadi.

XX asrning 70—80-yillarida pedagogik adabiyotlarda **«o'qitishning faol usullari»** tushunchasi keng qo'llanilgan. Bu tushuncha ta'lim oluvchilarni faol nazariy va amaliy faoliyatga undovchi **usul va shakllarga** nisbatan qo'llanilar edi. Bular qatoriga muammoli izlanish usullari, ishbilarmonlik o'yinlari, treninglar, guruhli munozaralar va boshqa usullar kiritilgan.

## Ikkinchi kichik modul

Muammoli ta'lim usuli amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Jon Dyui g'oyalariga asoslangandir. J. Dyui va J. Bruner o'qitishning asosiy maqsadi **mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdir** deb bilganlar.

XX asr boshlarida Jon Dyui, Gerbart didaktik tizimiga qaramaqarshi bo'lgan o'zining didaktik tizimini taklif qildi va uni Chikago maktablaridan birida sinab ko'rdi. Dyui darsda o'qituvchi emas, o'quvchi faol bo'lmog'i lozim deb chiqdi. Darsda beriladigan bilimlar talabalar ehtiyojiga mos va ularning xohishidan kelib chiqqan bo'lishi kerak, deydi Dyui. Kitobdagi bilimlarni quruq yod olish hech narsaga olib bormaydi, aksincha o'quvchilarni o'qishdan sovutib, tafakkurini zanglatadi, deb hisoblaydi u. Ta'lim-tarbiyaga Dyuining qo'shgan asosiy hissasi bu «aql yuritishning to'liq jarayoni»dir. «Aql yuritish to'liq jarayonining yetakchi halqasi muammoning paydo bo'lishi», deydi Dyui. Muammo paydo

bo'lganidan keyin, o'quvchi qiyin holatga tushib, uning yechimini izlaydi va faol fikr yuritib, bir qator mulohazalardan keyin bu muammoning yechimini topadi va sinab ko'radi, noto'g'ri bo'lgan taqdirda, yana aql yuritadi va bu jarayon bir necha marotaba qaytarilganidan keyin, oxir-oqibatda uning to'g'ri yechimini topadi. Natijada fikr yuritishning to'liq jarayoni amalga oshadi. Keyinchalik bunday didaktik tizim muammoli dars o'tish, deb nomlanib ketildi.

Keyinchalik ijod, ijodiy tafakkur, muammoli ta'lim bo'yicha olib borilgan psixologik-pedagogik izlanishlar natijasida muammoli ta'limning umumiy texnologiyasi ishlab chiqildi.

**V.Okon** muammoli o'qitishni «muammoli vaziyatni tashkillashtirish, muammoni so'z orqali ifodalash, uni hal qilishda o'quvchilarga yordam berish, yechimlarini tekshirish va olingan bilimlarni tizimlash va mustahkamlashda rahbarlik qilish faoliyatlarining birligi», deb biladi.

**I.Ya.Lerner** ta'rifida muammoli o'qitish mohiyati o'quvchining o'qituvchi rahbarligida u uchun yangi bo'lgan bilim beruvchi va amaliy muammolarni yechishda ishtirok etishida deb ta'kidlaydi.

**T.V.Kudryavsev** muammoli o'qitish mohiyatini bilim oluvchilar oldiga didaktik muammo qilib qo'yilishi, uning yechilishi va umumlashtirilgan bilimlarini va muammoli masalalarni yechish tamoyillarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishida ko'radi.

**M.I.Mahmudov** muammoli o'qitish bu – o'qitishning rivojlantiruvchi turi bo'lib, unda o'quvchilarning sistematik mustaqil izlanish faoliyati va ular tomonidan fandagi tayyor xulosalarni o'zlashtirish uyg'unlashadi. Bunda usullar tizimi maqsadlash va muammolilik tamoyilini nazarda tutgan holda shakllanadi.

Bugungi kunda **muammoli ta'lim** deb, o'qituvchi boshqaruvi ostida o'quvchilar ongida **muammoli vaziyatlarni shakllantirish** va ta'lim oluvchilarning ularni yechishga qaratilgan **mustaqil faoliyatini** tashkillashtirishni nazarda tutuvchi ta'lim jarayoniga aytiladi. Bu jarayon natijasida bilim, ko'nikma, malakalarni ijodiy o'zlashtirilishi va o'quvchilarning tafakkurini rivojlanishiga erishiladi.

**Muammoli ta'lim maqsadlari:**

– ta'lim oluvchilar tomonidan ***bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishi;***

– bilimlar ***mustahkamligini*** oshirish;

– ***mustaqil faoliyat*** yo'llarining o'zlashtirilishi;

– ***izlanishga*** qaratilgan ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

– ***bilish qobiliyatlari va ijodiy qobiliyatlarni*** rivojlantirish.

Muammoli ta'limda o'quv mazmuni muammoli vaziyatlar majmuasi sifatida tashkillashtiriladi. Bunda o'quv materialining an'anaviy bayoniga muammoli vaziyatlarni kiritish optimal yo'l hisoblanadi.

**Uslubiyotning o'ziga xosliklari bilimlarni tayyor holatda emas, aksincha, ularni paydo bo'lishi va rivojlanishi holatida berishdadir.**

Muammoli vaziyatning tuzilmasida quyidagi tarkibiy qismlar mavjud:

– yangi bilim yoki yechimga olib boradigan **yo'lning noma'lumligi**;

– insonni aqliy faoliyatga undovchi **bilimga bo'lgan ehtiyoj**;

– insondagi uning oldingi tajribasi va ijodiy qobiliyatlarini o'z ichiga olgan **aqliy imkoniyatlar**.

I.A. Ilnitskaya muammoli vaziyatlar tizimini ishlab chiqishda aynan muammoli vaziyatlar ketma-ketlik tizimini muammoli o'qitishning asosiy sharti deb hisoblaydi. Muammoli vaziyatlar tizimida bitta asosiy va qator yordamchi vaziyatlar aniqlanadi.

Muammoli vaziyatni shakllantiruvchi usullar:

– o'qituvchi talabalarga ziddiyatni ko'rsatadi va ulardan mustaqil ravishda ushbu ziddiyatni yechishni talab qiladi;

– amaliy faoliyatda uchraydigan ziddiyatlarni o'zaro to'qnashtiradi;

– bir masalaga mavjud bo'lgan turli munosabatlarni bayon etadi;

– bir hodisani turli pozitsiyalardan ko'rib chiqishni taklif qiladi (masalan, turli kasblar egalari nuqtayi nazaridan);

– talabalarni taqqoslash, umumlashtirish, vaziyatdan kelib chiqib xulosa berish, faktlarni o'zaro solishtirishga undaydi;

– aniq savollar qo'yadi;

– muammoli nazariy va amaliy vazifalarni aniqlaydi;

– muammoli masalalarni shakllantiradi (masalan, birlamchi ma'lumotlari yetarli bo'lmagan yoki oshiqcha, noaniq savolli, zid ma'lumotlarni mujassamlashtirgan, atay mazmunida xatoga yo'l qo'yilgan, yechish uchun chegaralangan vaqt berilgan va hokazo).

Muammoli ta'lim darajalari tafakkurning turli darajalarini ham aks ettiradi:

– oddiy, mustaqil bo'lmagan faollik darajasi – reproduktiv faoliyat;

– to'liq mustaqil bo'lmagan faollik darajasi – o'zlashtirilgan bilimlarni yangi vaziyatda qo'llash va yechimini o'qituvchi bilan hamkorlikda izlashda namoyon bo'ladi;

– mustaqil faollik darajasi – reproduktiv-izlanish xarakterda bo'lgan ishlarni amalga oshirishi, qiyinligi o'rta darajada bo'lgan masalani o'qituvchining minimal yordami bilan yechadi.

Ijodiy faollik darajasi – ijodiy tasavvurni, mantiqiy tahlilni, yangi yechim yo'lini o'ylab topishni, mustaqil isbotni talab qiluvchi muammoli masalalarni yechishni nazarda tutadi.

## Uchinchi kichik modul

D.Dyui g'oyalariga asoslangan holda, boshqa amerikalik pedagoglar U.Kilpatrik va E.Kollings **loyihaviy ta'limni** yaratdilar.

Ta'limda **loyiha** bu o'qituvchi tomonidan maxsus tashkillashtirilgan (laboratoriya) sharoitlarida amalga oshiriladigan **natijaviy faoliyatdir**.

Muammoli ta'limdan loyihaviy ta'lim talabalar faoliyati loyihaviy xarakterga egaligi, uning yakunida aniq (amaliy) natija olinishi va taqdim etilishi bilan farqlanadi.

**Loyihaviy ta'lim maqsadlari:**

- loyihaviy faoliyat, **loyihali tafakkurni** shakllantirish;

- talabalarda bilim olishga bo'lgan **motivatsiyasini** oshirish;
- barcha talabalarni **mustaqil faoliyat** bilan mashg'ul qilish;
- zaruriy **ma'lumotlarni** turli manbalardan **mustaqil izlab** topish va o'zlashtirishga o'rgatish;
- oldin shakllantirilgan bilimlarni yangi sharoit, **yangi masalalarni yechishda** qo'llashga o'rgatish;
- bilimlarni hayotiy vaziyatlarga nisbatan qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- o'qituvchi va talabalarning tanqidiy va ijodiy tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish;
- zamonaviy hayot uchun **zarur bo'lgan ko'nikmalarni** rivojlantirish:
  – ma'suliyatni o'z zimmasiga olish;
  – hamkorlikda qaror qabul qilish;
  – nizolarni tinchlik yo'li bilan bartaraf etish;
  – mustaqil tanlovni amalga oshirish;
  – uzluksiz ta'lim olish ko'nikmasi.
- tadqiqot olib borish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish.

**Muhim qoidalar:**

- insonparvarlik g'oyasiga asoslanish;
- loyiha mavzusi talabada shaxsiy qiziqish uyg'otishi;
- faoliyatli yondashuv;
- talaba uchun ta'lim jarayoni uning kelajak loyihasidir;
- loyiha ustida ishlashda individual tempga amal qilish orqali barcha talaba o'z rivojlanish darajasini egallaydi;
- muammolarni yechishda o'qituvchi va talabalarning hamkorligi;
- o'quv loyihasi ishlanmasini yaratishda majmuiy yondashuv (talabalarni har tomonlama rivojlantirish uchun);
- ham o'qituvchi, ham talaba tomonidan qanday ish va nima maqsadda amalga oshirilayotganligining aniq anglanishi. Bilimlarning chuqurligi, anglanilganligiga ularni turli vaziyatlarda qo'llanilishi orqali erishiladi;

• o'zgalarning fikrini hurmat qilish;

• natija uchun ma'suliyatning ta'minlanishi;

• atrofdagi olamni bilish jarayonini amalga oshirilayotgan laboratoriya sifatida qabul qilish.

**Pedagogik texnologiya asosida tuzilgan loyihalar bir necha turlarga ajratiladi:**

1. Loyihada, tadqiqot va izlanish usullari yetakchilik qilsa, **tadqiqotli loyiha** deyiladi.

2. Loyihada bilim egallash usuliga asosiy o'rin berilgan bo'lsa, **monoloyiha** deyiladi.

3. Loyihaning koordinatsion xarakteriga qarab, **qat'iy egiluvchan va yopiq loyihalar** mavjud.

4. Munosabatlar xarakteriga qarab, bir guruhli, maktab, butun shahar, viloyat, mamlakat va xalqaro tiplarga ajratiladi.

Shuningdek, loyihada ishtirok etuvchilar soni va unga sarf bo'ladigan vaqtga qarab ham loyiha bir necha tiplarga bo'linadi.

### To'rtinchi kichik modul

Loyiha ustida ish olib boriladigan asosiy hudud an'anaviy auditoriyalardan tashqari, mustaqil ishlash uchun ham joylarni o'z ichiga olishi kerak:

– yetarli darajada hajmga ega bo'lgan kutubxona, auditoriyalarda esa har qanday vaqtda talabalar foydalanishi uchun lozim bo'lgan ma'lumotnomalar va o'zini tekshirish uchun materiallar;

– erkin tajriba-sinov o'tkazish uchun laboratoriya xonalari;

– turli ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatini beruvchi kompyuterlar;

– auditoriyalarda qulay qo'yilgan mebel;

– o'quv binosi va auditoriyalarda talabalarning individual va guruhli ishlashlari uchun «burchaklar».

**Faoliyatning baholanishi.** Talabalar loyihaviy faoliyatini baholash mezonlari quyidagicha:

• bilish faoliyati uslublarini qo'llay olishi;

• turli axborot manbalari, izlanish usullaridan foydalana olishi, simvollar yordamida mazmunni ifodalay olishi;

• hamkorlikda ishlay olish, o'zgalarning fikrini qabul qilish, qiyinchiliklarga bardosh berish sifatlarining shakllanganligi;

• o'z-o'zini, o'z ishini tashkillashtira olishi: maqsad qo'ya olishi, reja tuzish va uni amalga oshirish; refleksiyani amalga oshirishi; maqsad va harakatni muvofiqlashtira olishi.

**Loyihaviy ta'limda tyutor (o'qituvchi, ilmiy rahbar).** Tyutor talabaga faqat loyiha mavzusi va maqsadini aniqlashtirish bosqichida yordam berish bilan chegaralanib qolmasdan, barcha boshqa bosqichlarda ham ko'maklashib boradi:

• o'zi loyihaviy faoliyat, ushbu turdagi faoliyat uslubiyoti va texnologiyasi bo'yicha maslahatlar bera oladi;

• loyiha tashabbuskori bo'ladi, talabalarda bilimga bo'lgan qiziqishni o'stiradi, ularning irodasini tarbiyalaydi;

• yangi materialni o'rganishda o'z-o'zini o'qitish yo'llari namunalarini ko'rsatadi;

• talabaga mustaqil izlanish faoliyatini amalga oshirishda yordam beradi.

## Beshinchi kichik modul

Pedagogik o'yin oddiy o'yindan farqli o'laroq muhim xususiyatga ega. Bu pedagogik o'yinning aniq maqsadi va shunga mos bilishga yo'naltirilgan pedagogik natijalarga egaligi.

Ta'lim oluvchilarning faolligini oshirishga yo'naltirilayotgan zamonaviy o'qitishda o'yin quyidagi ko'rinishlarda qo'llaniladi:

— o'quv fanining tushunchasi, mavzusi yoki bo'limini o'zlashtirish yo'lida mustaqil pedagogik texnologiya sifatida (ya'ni, bunda bir butun jarayon aynan o'yinga asoslanadi);

— kattaroq texnologiyaning tarkibiy qismi sifatida;

– bir mashg'ulot texnologiyasi yoki mashg'ulot qismida (kirish, tushuntirish, mashq, nazorat);

– auditoriyadan tashqari olib boriladigan ish texnologiyasi sifatida.

**O'yinli usullar maqsadlari.**

***Didaktik:*** dunyoqarashni kengaytirish, bilish faoliyati; bilimlarni amaliyotda qo'llash; ma'lum ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

***Turbiyaviy:*** mustaqillik, irodani tarbiyalash; ma'lum munosabat, axloqiy, estetik yo'nalmalarni shakllantirish; hamkorlik, jamoa bilan birlashish, muloqotga kirishuvchanlikni tarbiyalash.

***Rivojlantiruvchi:*** diqqat, xotira, nutq, tafakkur, taqqoslash ko'nikmalari, empatiya, refleksiya, optimal yechimlarni izlab topish ko'nikmalarini, o'quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyani rivojlantirish.

***Ijtimoiylashtiruvchi:*** jamiyat normalari, qadriyatlarini singdirish; muhitga moslashish; o'z-o'zini boshqarish; muloqotga o'rgatish; psixoterapiya.

Mashg'ulot jarayonida o'yin shakli *o'yin usullari va vaziyatlari* orqali tashkillashtiriladi. Ular ta'lim oluvchilarni o'quv jarayoniga undovchi vosita vazifasini bajaradi. Bunda ta'limiy maqsad o'yin masalasi sifatida qo'yiladi; o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi; o'quv materiali o'yin vositasi sifatida qo'llaniladi; bellashuv elementi olib kiriladi; didaktik masalaning yechilishi o'yin natijasi bilan bog'lanadi.

Shakllari bo'yicha o'yinlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin: **bayramga asoslangan o'yin; folklorga asoslangan o'yin; teatr o'yinlari; o'yinli mashqlar; o'yin-anketalar, testlar, savolliklar; intermediyalar; bellashuv; syurpriz; karnaval; auksion** va boshq.

**O'yin strukturasi** quyidagi bosqichlardan iborat: maqsad qo'yish, rejalashtirish, maqsadni amalga oshirish, natijalar tahlili.

**Rolli o'yin** bolaga u oldin o'z tajribasida tushmagan vaziyatda, boshqa odam o'rnida bo'lib ko'rishga ham sharoit yaratadi. Bun-

da u yangi ijtimoiy munosabatlarga kirishadi va ularni his etib ko'radi. O'yinda bola erkin bo'ladi, sheriklari bilan hamkorlikda harakat qiladi.

**Biznes o'yin** (ishbilarmonlik o'yinlari) bu talabalar tomonidan ishlab chiqarishda uchraydigan turli holatlarda imitatsiyalangan vaziyatlar yuzasidan qarorlar qabul qilinishiga asoslangan usuldir.

**Imitatsion o'yinlar**. Mashg'ulotda biror-bir korxona, muassasa faoliyati imitatsiya qilinadi. Imitatsion o'yin ssenariysi voqea sujetidan tashqari, imitatsiya qilinayotgan jarayon va obyektlarning ta'rifini ham o'z ichiga oladi.

**Operatsion o'yinlar** maxsus operatsiyalarni bajarish malakalarini oshiradi. Ushbu o'yin sharoitlari real sharoitga maksimal yaqinlashtirilgan bo'ladi.

**Rollar ijro etish**. Bu o'yinlarda konkret shaxsning xatti-harakati, taktikasi, vazifani bajarishi ko'rsatiladi va ular ustida ish olib boriladi.

**Biznes-teatr**. Berilgan vaziyatda insonning o'zini qanday tutishi o'yin orqali ifodalanadi.

## 2. IKKINCHI KATTA MODULNING IKKINCHI O'RTA MODULI (amaliy mashg'ulot) – Talabalar faoliyatini faollashtirish va intensifikatsiyalashga asoslangan ta'lim texnologiyalari

### 2.1. Laboratoriya o'quv mashg'ulotining maqsad

*2.2.1-jadval*

| |
|---|
| Talabalarda ikkinchi katta modul bo'yicha shakllangan bilimlarni chuqurlashtirish, mustahkamlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda pedagogik jarayonga ijodiy yondashuvni shakllantirish. |

### 2.2. Laboratoriya o'quv mashg'uloti rejasi, turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar

*2.2.2-jadval*

| | |
|---|---|
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1. Muammoli ta'lim usuli.<br>2. Loyihaviy ta'lim usuli.<br>3. O'yinli ta'lim usuli. |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Ijodiylik xususiyatiga ega laboratoriya mashg'uloti. |
| Ta'lim usullari | «Birgalikda o'rganamiz» («Koopkoop») usuli, ijodiy amaliy ish. |
| Ta'lim vositalari | Guruhlar uchun topshiriqlar varaqasi (tarqatma materiallar); o'quv-uslubiy qo'llanma, FYOTV. |
| Ta'lim shakllari | Ommaviy, guruhiy. |
| O'qitish sharoitlari | Kichik guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash | Ijodiy amaliy ish natijalari. |

## 2.3. Laboratoriya mashg'ulotining pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot texnologiyalari va didaktik materiallar hamda faoliyat mazmuni

*2.2.3-jadval*

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | ta'lim beruvchi | ta'lim oluvchilar |
| 1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.) | 1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi.<br>1.2. Talabalarga «Birgalikda o'rganamiz» («Koopkoop») usuli bo'yicha ishlash tartibini eslatadi va ma'ruza mashg'ulotida shakllantirilgan guruhlarni qaytadan shakllanishlarini so'raydi. | 1.1. Tinglaydilar, aniqlashtiruvchi savollar berishlari mumkin.<br>1.2. Tinglaydilar, kichik guruhlarga bo'linadilar. |
| 2-bosqich Asosiy (65 daq.) | 2.1. Mavzu bo'yicha ijodiy ishni tashkillashtiradi:<br>- guruhlarga topshiriq varaqalarini tarqatadi (2.3.1-ilova);<br>- topshiriqning bajarilishini kuzatib boradi, talabalarga maslahat beradi;<br>- guruhlar ishlarining taqdimoti va ularning muhokamasini tashkillashtiradi;<br>- ishlarni baholashni tashkillashtiradi. | 2.1. Guruhga berilgan topshiriqni guruhlarda bajaradilar.<br>Taqdimot o'tkazadilar.<br>Raqib guruhlar ishlarini baholaydilar. |

| | | |
|---|---|---|
| 3-bosqich. Yakuniy (10 daq.) | 3.1. Refleksiya faoliyatini tashkillashtiradi – talabalarni mashg'ulot natijasida ularda shakllangan bilim, tasavvur, munosabatlarni tahlil qilishga undaydi; bajarilgan vazifalarni murakkablik darajasi nuqtayi nazaridan muhokama qilishlarini tashkillashtiradi. | 3.1. Savollarga javob berib, refleksiyani amalga oshiradilar. |
| | 3.2. Mavzu bo'yicha belgilangan mustaqil ta'lim vazifasini tushuntiradi. | 3.2. Mustaqil bajarish uchun berilgan vazifani yozib oladilar. |

*2.3.1-ilova*

**Guruhlar uchun topshiriqlar.**

**1-guruhga** – Muammoli ta'lim usuli:

mutaxassislik faningizga oid ixtiyoriy tanlangan mavzuning mohiyatini ochib berishga yordam beruvchi muammoli savol yoki muammoli vaziyatlarni shakllantiring; talabalar taklif qiladigan yo'llarni taxmin qilib ko'ring va ishingiz taqdimotini o'tkazing.

**2-guruhga** – Loyihaviy ta'lim usuli:

mutaxassislik faningizga oid ixtiyoriy tanlangan mavzu/mavzulardan kelib chiqib, o'quv loyihasi konsepsiyasini ishlab chiqing (loyiha nomi, loyiha strategiyasi, loyihani baholash mezonlari). Ishingiz taqdimotini o'tkazing.

**3-guruhga** – O'yinli ta'lim usuli:

mutaxassislik faningizga oid ixtiyoriy tanlangan mavzu/mavzulardan kelib chiqib ta'limiy o'yin ssenariysini ishlab chiqing (bunda o'yin nomi, turi, qoidalari, baholash mezonlarini aniq ko'rsating) va ishingiz taqdimotini o'tkazing.

# III. UCHINCHI KATTA MODUL –
## *Ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda qo'llaniladigan pedagogik usullar*

(1 ta ma'ruza va 1 ta amaliy mashg'ulot modullari)

## 1. UCHINCHI KATTA MODULNING BIRINCHI O'RTA MODULI (ma'ruza) –
## Interfaol usullar va ularning tavsifi, ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda qo'llaniladigan pedagogik usullar

### 1.1. Uchunchi katta modul tarkibidagi birinchi o'rta modulning umumiy maqsadi

*3.1.1-jadval*

| |
|---|
| Talabalarga o'qitishni jadallashtirish, interfaollik g'oyalari, kichik guruhlarda ishlashga oid ma'lumotlarni, D.Kolb nazariyasi g'oyasini, ushbu nazariyaga asoslangan holda mashg'ulot strategiyasini, ta'lim jarayonida interfaol o'quv faoliyatni shakllantirishning ta'lim natijasiga bo'lgan ahamiyatini, ta'lim mazmunini o'rganish, tahlil qilish, uning asosida xulosalashga o'rgatishning turli interfaol yo'llarini, klaster, T-sxema, Venn diagrammasi usullarining maqsad va mohiyatini, ularni qo'llash tartibini, ushbu usullarni talabalar bilimlarini kengaytirish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish uchun bo'lgan ahamiyatini tushuntirish, shuningdek, ta'lim jarayonini ta'limiy mummoga asoslab tashkillashtirishning xususiyatarini, «aqliy hujum» usulining turlari, ularning o'rtasidagi farq va umumiylikni, ushbu guruh usullari mohiyatini, «aqliy hujum» usullarining turlarini qo'llash ma'qul bo'lgan ta'limiy muammolarni shakllantira olishni o'rgatish. |

## 1.2. Birinchi o'rta modulning kichik modullari nomlari va maqsadlari

*3.1.2-jadval*

| T/r | Kichik modullar nomi | Kichik modullarning maqsadlari |
|---|---|---|
| 1. | Interfaol usul mohiyati | Talabalarga interfaol usullar mavzusiga oid asosiy tushunchalar ta'riflarini, ushbu usullar maqsadlari, asosiy farqlovchi jihatlarini, qo'llanilish tartibini va talabalar rivojlanishiga interfaol usullar bo'yicha ishlashning ko'rsatadigan ta'sirni tushuntirish. |
| 2. | Bilim oluvchilarning bilim egallashlarida «faollashtirish» tamoyiliga asoslangan «Interfaol usullar» tavsifi | Talabalarga usullarning maqsadi, o'tkazilish tartibini, mohiyatini, ularni reproduktiv ta'lim usullari bilan taqqoslay olishini, ular tomonidan ushbu usullarni qo'llashga misollar keltira olish ko'nikmasini, ularning talabalar bilimlarini kengaytirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun bo'lgan ahamiyatini baholay olishini tushuntirish. |
| 3. | Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek milliy modelini ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llashning «dastpanja» usuli | Talabalarga pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek milliy modelini ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llashning «dastpanja» usulini, pedagogik texnologiyaning «o'zbek milliy dastpanja» usuli asosida o'quv fanining o'quv mashg'ulotlari loyihasini yaratishni bildirish. |

## 1.3. Tayanch tushunchalar va ular asosida tuzilgan nazorat savollari

*3.1.3-jadval*

| Tayanch tushunchalar | Nazorat savollari |
|---|---|
| Jadallashtirish, interfaol usul interfaol strategiya, qaytuvchan aloqa, D.Kolb nazariyasi | 1. Ta'lim jarayonini jadallashtirish deganda nimani tushunasiz?<br>2. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida nimalarga erishiladi?<br>3. Interfaol metod tushunchasi mohiyati nima?<br>4. Interfaol strategiya bosqichlari tartibini aytib bering.<br>5. D.Kolb nazariyasini aytib bering. |
| Zamonaviy mutaxassis, kichik guruh, o'qitish sikli, klaster, «aqliy hujum», «Insert», «Yozma debat», T-sxema, Venn diagrammasi | 1. Kichik guruhlarda ishlashning umumiy tartibini aytib bering.<br>2. Tajriba vositasida o'qitish siklining mohiyatini ochib bering.<br>3. Tajriba vositasida o'qitish sikli strategiyasi omillarini sanab bering.<br>4. D.Kolb nazariyasi bo'yicha faoliyatni tashkillashtirishga misol keltiring (muayyan mavzuni o'rganish bo'yicha).<br>5. Interfaol texnologiyalar va tajriba vositasida o'qitish sikli strategiyasini o'zaro taqqoslang. |
| «Dastpanja», «O'zbek milliy dastpanja» usuli, «dastpanja»ning kafti, makro modul | 1. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek milliy modelini ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llashning «dastpanja» usulini tushuntrib bering.<br>2. Pedagogik texnologiyaning «O'zbek milliy dastpanja» usuli asosida o'quv fanining o'quv mashg'ulotlari loyihasi qanday bo'ladi? |

| | |
|---|---|
| | 3. Makro va mikro modul deganda nimani tushunasiz?<br>4. O'rta va kichik modul deganda nimani tushunasiz?<br>5. O'quv mashg'ulotida beriladigan materiallarni, hajmi va mazmuniga qarab, kichik modullarga ajratib, ularning maqsadlari va ularga ajratilgan vaqtni aniqlab olish «dastpanja»ning qaysi elementida beriladi? |

**O'rganilgan barcha usullarni quyidagi savollarga asoslangan holda tahlil qilib chiqing:**

1. Usul nima uchun shunday nomlangan?
2. Usulning maqsadi va mohiyatini ochib bering.
3. Usul strategiyasining bosqichlari tartibini aytib bering.
4. Mutaxassislik faningizni o'rganishda ushbu usulning qo'llanilishini namoyish qiluvchi misol tuzing.

**Usullar:** klaster, T-sxema, Venn diagrammasi, «6x6x6», «Aqliy hujum», «Yumaloqlangan qor» o'yini, «Zakovatli zukko», «BBB», «Insert», «Zigzag», «Ikki qismli kundalik», konferensiya darsi, seminar darsi, «Chalkashgan mantiqiy zanjir» usuli, «Yozma debat».

## 1.4. Nazorat savollari asosida tuzilgan test

*3.1.4-jadval*

| T/r | Savollar | Mumkin bo'lgan javoblar | |
|---|---|---|---|
| 1. | Ta'lim jarayonini jadallashtirish deganda nimani tushunasiz? | 1 | Ortiqcha kuch sarflamasdan qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish. |
| | | 2 | Iqtidorli o'quvchilar uchun esternat tizimini joriy qilish. |
| | | 3 | Ta'lim mazmunini qisqartirish. |
| | | 4 | Faqat o'quvchi o'zi tanlagan fanlarni o'qitish. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2. | PTlarni qo'llash natijasida erishiladigan natijalardan qaysi birida interfaollik g'oyasi aks ettirilgan? | 1 | Pedagogik faoliyat samaradorligining oshishi. |
| | | 2 | O'quvchilarning puxta bilim olishi. |
| | | 3 | O'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlrni yaratish. |
| | | 4 | O'qituvchi va tahsil oluvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikning qaror topishi. |
| 3. | Interfaol strategiya bosqichlari tartibi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan? | 1 | Chaqiriq – anglash – refleksiya. |
| | | 2 | Anglash – chaqiriq – yakunlash. |
| | | 3 | Anglash – refleksiya – yakunlash. |
| | | 4 | Refleksiya – chaqiriq – anglash. |
| 4. | Klaster usuli asosida nima shakllantiriladi? | 1 | Chizma, jadval. |
| | | 2 | Tushuncha, g'oyalar majmuyi. |
| | | 3 | Tajriba, natija. |
| | | 4 | Matn, model. |
| 5. | T-sxema usuli nimaga asoslangan? | 1 | Bitta predmet/tushunchaning yutuq va kamchiliklarini tahlil qilishga. |
| | | 2 | Ta'lim obyekti yuzasidan bahs-munozara o'tkazishga. |
| | | 3 | Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishga. |
| | | 4 | Muammoni hal etishga. |
| 6. | Venn diagrammasi nimani ifodalaydi? | 1 | Ikki yoki ko'proq predmet/tushunchalarning o'xshash va farqli jihatlarini. |
| | | 2 | Ta'lim obyekti xususiyatlarini. |
| | | 3 | Tajriba-sinov ishlarining natijalarini. |
| | | 4 | Muammo yechimini. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 7. | «6x6x6» usulining afzalligi nimada? | 1 | Bitta guruhda olti nafar ishtirokchi bo'lgani. |
| | | 2 | O'quvchilar erkin bo'lgani. |
| | | 3 | Bir vaqt ichida barcha guruhlar faoliyat olib borishi. |
| | | 4 | Har bir guruh boshqa guruhlar ishlab chiqqan g'oyaga asoslangan holda yangi g'oyani shakllantira oladi. |
| 8. | «Aqliy hujum» usulini qo'llashdan asosiy didaktik maqsad nima? | 1 | O'quvchilarni muammo bo'yicha keng fikr yuritishga undash. |
| | | 2 | Raqobat muhitini shakllantirish. |
| | | 3 | To'g'ri yechimni topish. |
| | | 4 | O'quvchilarni faollashtirish. |
| 9. | «Qarorlar shajarasi» usuli tashkiliy jihatdan «aqliy hujum» usullaridan nimasi bilan farqlanadi? | 1 | O'quvchilar kichik guruhlarga bo'linmaydilar. |
| | | 2 | Vaqt qat'iy belgilanmaydi. |
| | | 3 | Hamma ishtirokchilar bitta muammo ustida ishlamaydilar. |
| | | 4 | Fikrlar jadval shaklida tashkillashtiriladi. |
| 10. | «Yozma debat» usulini qo'llash orqali erishiladigan asosiy maqsad. | 1 | Matnni o'quvchilar mustaqil o'rganishi. |
| | | 2 | O'quvchilarda bahslashish madaniyati, isbotli fikrlash ko'nikmasini shakllantirish. |
| | | 3 | O'quvchilar o'rtasida raqobatni kuchaytirish. |
| | | 4 | Nazariy ma'lumotlarning amaliy qo'llanilishi. |

## 1.5. Dars turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar

*3.1.5-jadval*

| | |
|---|---|
| O'quv mashg'u-lotining shakli | Mustaqil ta'lim elementlari kiritilgan ma'ruza mashg'uloti. |
| Ta'lim usullari | Axborotli ma'ruza, «Birgalikda o'rganamiz» («Koopkoop») usuli, test. |
| Ta'lim vositalari | Interfaol usullar tavsifi, guruhlar uchun topshiriqlar (tarqatma materiallar), o'quv-uslubiy qo'llanma, baholash varaqasi, FYOTV, test (slayd). |
| Ta'lim shakllari | Ommaviy, guruhiy, yakka tartibda, jamoaviy. |
| O'qitish sharoitlari | Guruhiy ishlashga mo'ljallangan, multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash | Test natijalari, guruh ishidagi qatnashuv, guruhlar taqdimotlari. |

## 1.6. Kichik modullarning pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot-kommunikatsion texnologiyalar va didaktik materiallar

*3.1.6-jadval*

| **Ish bosqichi va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **ta'lim beruvchi** | **ta'lim oluvchilar** |
| 1-bosqich. O'quv mashg'ulo-tiga kirish (10 daq.) | 1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi.<br>1.2. Mashg'ulot «Birgalikda o'rganamiz» usuliga asoslanishini e'lon qiladi va talabalarni 5 ta guruhga ajratadi. | 1.1. Tinglaydilar, aniqlashtiruvchi savollar berishlari mumkin.<br>1.2. 5 ta guruhga bo'linadilar. |

| | | |
|---|---|---|
| 2-bosqich Asosiy (65 daq.) | 2.1. «Interfaol usul mohiyati» mavzusini ochib beradi (1.6.1-ilova, 3-katta modulning o'rta moduli slaydlari).<br>Ma'ruzaning birinchi kichik moduli bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash, nazoratni amalga oshirish maqsadida test o'tkazadi (14 ta test) va test kalitini taqdim qilib, talabalarga o'z bilimlarini tekshirishi uchun sharoit yaratadi.<br>Yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashtiradi va ularni to'g'rilash bo'yicha faoliyatni tashkillashtiradi: testni to'g'ri yechgan talabalarga so'z beradi, zarur holatda o'zi qaytadan ma'lumotni tushuntiradi.<br>2.2. «Birgalikda o'rganamiz» («Koopkoop») usulini qo'llagan holda talabalarda mavzu bo'yicha bilimlarni shakllantiradi:<br>1-guruhga Klaster, T-sxema, Venn diagrammasi; 2-guruhga «6x6x6», «Aqliy hujum»; 3-guruhga – «Yumaloqlangan qor» o'yini, «Zakovatli zukko», «BBB»; 4-guruhga «Insert», «Zigzag», ikki qismli kundalik, konferensiya darsi, seminar darsi; 5-guruhga «Chalkashgan mantiqiy zanjir» usuli, «Yozma debat» usullarini mustaqil o'rganish va taqdim etishni topshiriq qilib beradi. | 2.1. Axborotni tinglaydilar, muhim ma'lumotlarni yozib boradilar.<br><br>Test yechadilar, test kaliti yordamida o'z-o'zlarini nazorat qiladilar, xatolar ustida ishlash jarayonida qatnashadilar.<br>2.2. Belgilangan tartibda (3-ilova) nazariy ma'lumotlarni mustaqil o'rganadilar va kichik guruhlarda taqdimot o'tkazadilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | Guruhlarni tarqatma materiallar, topshiriqlar, baholash varaqasi bilan ta'minlaydi.<br>Guruhlar taqdimotlarini tashkillashtiradi.<br>Guruhlar ishining muhokamasi va baholanishini boshqaradi.<br>Ma'ruza mavzusi bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash, nazoratni amalga oshirish maqsadida test o'tkazadi (11–13 ta test) va test kalitini taqdim qilib, talabalarga o'z bilimlarini tekshirish uchun sharoit yaratadi.<br>Yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashtiradi va ularni to'g'rilash bo'yicha faoliyatni tashkillashtiradi: testni to'g'ri yechgan talabalarga so'z beradi, zarur holatda o'zi qaytadan ma'lumotni tushuntiradi. | Test yechadilar, test kaliti yordamida o'z-o'zlarini nazorat qiladilar, xatolar ustida ishlash jarayonida qatnashadilar. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 daq.) | 3.1. Refleksiya faoliyatini tashkillashtiradi – talabalarni mashg'ulot natijasida o'rganilgan mavzu bo'yicha olgan bilim, tasavvur, munosabatlarni tahlil qilishga undaydi.<br>Savollar:<br>*Ta'lim jarayonida interfaol usullarni qo'llash ta'lim natijasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?*<br>3.2. Mavzu bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini tushuntiradi. | 3.1. Savollarga javob berib, refleksiyani amalga oshiradilar.<br>3.2. Mustaqil ta'lim topshiriqlari yuzasidan savollar beradilar. |

*1.6.1-ilova*

## Interfaol usullar tavsifi

**Guruhlar uchun topshiriqlar.**

**1-guruhga:**

– berilgan nazariy ma'lumotlar bilan tanishib chiqib, klaster, T-sxema, Venn diagrammasi usullari tavsifini o'rganib chiqing;

– ma'lumotni tahlil qiling: maqsadi, strategiyasi, zaruriy vosita va shart-sharoitlar;

– har bir interfaol usulni mutaxassislik faningizni o'qitishda qo'llanilishini namoyish qiluvchi misollar tuzing;

– bajargan vazifangiz taqdimotini tayyorlang: 1-qism – usul tavsifi; 2-qism – misol.

**2-guruhga:**

– berilgan nazariy ma'lumotlar bilan tanishib chiqib, «6x6x6», «Aqliy hujum» usullari tavsifini o'rganib chiqing;

– ma'lumotni tahlil qiling: maqsadi, strategiyasi, zaruriy vosita va shart-sharoitlar;

– har bir interfaol usulni mutaxassislik faningizni o'qitishda qo'llanilishini namoyish qiluvchi misollar tuzing;

– bajargan vazifangiz taqdimotini tayyorlang: 1-qism – usul tavsifi; 2-qism – misol.

**3-guruhga:**

– berilgan nazariy ma'lumotlar bilan tanishib chiqib, «Yumaloqlangan qor» o'yini, «Zakovatli zukko», «BBB» usullari tavsifini o'rganib chiqing;

– ma'lumotni tahlil qiling: maqsadi, strategiyasi, zaruriy vosita va shart-sharoitlar;

– har bir interfaol usulni mutaxassislik faningizni o'qitishda qo'llanilishini namoyish qiluvchi misollar tuzing;

– bajargan vazifangiz taqdimotini tayyorlang: 1-qism – usul tavsifi; 2-qism – misol.

**4-guruhga:**

– berilgan nazariy ma'lumotlar bilan tanishib chiqib, «Insert», «Zigzag», «Ikki qismli kundalik», konferensiya darsi, seminar darsi usullari tavsifini o'rganib chiqing;

– ma'lumotni tahlil qiling: maqsadi, strategiyasi, zaruriy vosita va shart-sharoitlar;

– har bir interfaol usulni mutaxassislik faningizni o'qitishda qo'llanilishini namoyish qiluvchi misollar tuzing;

– bajargan vazifangiz taqdimotini tayyorlang: 1-qism – usul tavsifi; 2-qism – misol.

**5-guruhga:**

– berilgan nazariy ma'lmotlar bilan tanishib chiqib, «Chalkashgan mantiqiy zanjir», «Yozma debat» usullari tavsifini o'rganib chiqing;

– ma'lumotni tahlil qiling: maqsadi, strategiyasi, zaruriy vosita va shart-sharoitlar;

– har bir interfaol usulni mutaxassislik faningizgni o'qitishda qo'llanilishini namoyish qiluvchi misollar tuzing;

– bajargan vazifangiz taqdimotini tayyorlang: 1-qism – usul tavsifi; 2-qism – misol.

*3.1.7-jadval*

**Baholash varaqasi**

| Guruh tartib raqami | Ma'lumotning to'laligi (max. 5 ball) | Ma'lumotning aniq va tushunarli yetkazilishi (max. 5 ball) | Taqdimotga tayyorlangan jihozlarning mavjudligi (max. 5 ball) | Jami |
|---|---|---|---|---|
| 1-guruh | | | | |
| 2-guruh | | | | |
| 3-guruh | | | | |

## 1.7. O'rta modulning mazmunini ifoda etuvchi matn ssenariysi

### Birinchi kichik modul

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tahsil oluvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, tahsil oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

**Interfaol usul mohiyati.** Qanday shakl, usul va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyada:

– pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirish;

– o'qituvchi va tahsil oluvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish;

– tahsil oluvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlash;

– tahsil oluvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish;

– tahsil oluvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

– pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlash zarur.

Interfaol o'qitish bu subyekt va obyektlararo **qaytuvchan aloqa** yaxshi tashkillashtirilgan ta'limdir. Bu *ikki tomonlama* axborot almashinuvini nazarda tutadi.

V.V.Guzeyev axborot almashinuvini uch turga ajratadi:

**Ekstrafaol rejim:** axborot oqimi subyektdan obyektga yo'naltirilgan, lekin obyekt «ichiga» kirib bormasdan, uning atrofida aylanadi. Talaba bunda passiv ishtirokchidir. Bu rejim ma'ruza, an'anaviy o'qitishga xos bo'lib, ta'lim oluvchida faollikni shakllantirmaydi.

**Intrafaol rejim:** axborot oqimi talaba yoki talabalar guruhiga yo'naltirilgan va ularning «ichida» sodir bo'lib, ularning aqliy faoliyatini faollashtiradi. Ushbu rejim mustaqil faoliyatga asoslangan ta'lim texnologiyalariga xos.

**Interfaol rejim:** bunda axborot oqimlari talaba ongiga singib kiradi va uni faollika undab, qaytuvchan axborot oqimini vujudga keltiradi (talabadan o'qituvchiga). Shu tarzda axborot oqimi o'z yo'nalishini tartib bilan almashtirib turadi.

Interfaol usullarning maqsadlari:

- ta'lim oluvchilarda kechayotgan aqliy jarayonlarni faollashtirish;
- talabada ichki dialog kechishi;
- axborotning tushunarli bo'lishini ta'minlash;
- pedagogik hamkorlikni individuallashtirish;
- talabani ta'lim subyekti pozitsiyasiga chiqarish;
- talabalararo ikki tomonlama aloqalarning o'rnatilishiga erishish.

Interfaol usulda *o'qituvchining asosiy vazifasi* bu — axborot almashinuvi jarayonini yo'naltirish va unga ko'maklashishdir. Buning uchun o'qituvchi:

— bir faktga nisbatan mavjud bo'lgan turli munosabat, fikrlarni aniqlaydi;

— ishtirokchilarning shaxsiy tajribasiga tayanadi;

— ularning faolligini ta'minlaydi;

— nazariya va amaliyotni o'zaro bog'laydi;

— ishtirokchilarni tajribalari bilan o'zaro almashinuvini ta'minlaydi;

— ishtirokchilarning bir-birini tushunishini ta'minlaydi;

— ishtirokchilarda ijodkorlikni rag'batlantiradi.

**Muhim qoidalar:**

- axborot passiv rejimda emas, faol o'zlashtirilishi kerak. Bu esa muammoli vaziyatlar, interfaol sikllardan foydalanishni nazarda tutadi;

- interfaol muloqot aqliy rivojlanishni stimullaydi;
- qaytuvchan aloqa o'rnatilganida axborot yo'llovchi va qabul qiluvchi o'zaro rollar bilan almashadilar;
- qaytuvchan aloqa axborot almanishuvining samaradorligini oshirishga yordam beradi;
- bilimlar nazorati ularni amalda, real holatda qo'llash ko'nikmasini nazarda tutishi lozim.

Tahsil oluvchilarni guruhlarga bo'lib ishlash uchun quyidagi talablarga amal qilish zarur:

1. Guruhlarga ajratish o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.
2. Har bir guruhga rahbar tayinlanadi.
3. Har bir guruhdagi tahsil oluvchilar bilim darajasining teng bo'lishiga erishish kerak.
4. Guruh doira shaklida o'tirishi lozim.
5. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g'oyalariga e'tibor beriladi.

Bulardan tashqari, guruhlarga aniq yo'l-yo'riq ko'rsatish, topshiriqlarni bajarish uchun yetarli vaqt ajratish, kuchli guruhlarni rag'batlantirib borish, ishning natijasini baholash kabilarga ham ahamiyat berish muhim hisoblanadi. Dars jarayonida guruh a'zolarini almashtirib borish ham mumkin.

Interfaol usulning mohiyati tahsil oluvchilarning ijodkorligiga tayanish va darsda erkin bahs-munozara sharoitini tug'dirishdan iboratdir.

## Ikkinchi kichik modul

Interfaol usullarning ba'zilariga misollar keltiramiz.

### Klaster

Ushbu usul talabalarga erkin fikrlash, g'oyalar o'rtasidagi bog'liqliklarni o'rnatish, ularni guruhlarga ajratishga imkon beradi.

*O'tkazilish tartibi.*

*1-qadam:* asosiy so'z yoki gap kattaroq qog'oz yoki doska o'rtasiga yoziladi;

*2-qadam:* ushbu so'z talabalar ongida ma'lum assotsiatsiyalarni shakllantiradi;

*3-qadam:* shakllangan assotsiatsiyalarni anglatuvchi bu so'zlar asosiy so'z atrofiga yoziladi. Bunda ular o'rtasidagi bog'lanishlar aniqlanadi.

Mashg'ulotning *kirish* qismida talabalarga o'rganiladigan mavzu bo'yicha 35 minut ichida bir necha so'z yozish va ularni o'zaro mantiqiy bog'lash taklif qilinadi. Bu ularni mavzuga olib kirish, talabalarda mavzuga oid mavjud bilimlarni aniqlab olishga yordam beradi.

O'qituvchi tomonidan *yangi ma'lumotning berilishi* bosqichida klaster yangi ma'lumotning alohida qismlarini aniqlash va eslab qolishga ko'maklashadi.

*Refleksiya* bosqichida talabalar ularga mashg'ulot davomida uchragan tushunchalarni o'zaro bog'lab guruhlarga ajratadilar. Bu talabaning mavzuni qanday o'zlashtirganligidan dalolat beradi.

## «6x6x6»

«6x6x6» metodi yordamida mashg'ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. Mashg'ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stul qo'yib chiqiladi.

2. Tahsil oluvchilar o'qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo'linadilar. Tahsil oluvchilarni guruhlarga bo'lishda o'qituvchi quyidagicha yo'l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan obyekt (masalan, kema, to'lqin, baliq, delfin, kit, akula) surati chizilgan lavhani qo'yib chiqadi. Mashg'ulot ishtirokchilariga kema, to'lqin, baliq, delfin, kit hamda akula surati tasvirlangan (jami 36 ta) varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir tahsil oluvchi

o'zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo'yilgan stuldan joy egallaydi.

3. Tahsil oluvchilar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi hamda guruhlarga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma'lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.

4. O'qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rinlarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlarning to'g'ri hal etilganligiga ishonch hosil qiladi.

5. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi guruhlarni qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhning har biridan bir nafar vakil bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. Tahsil oluvchilar o'z o'rinlarini almashtirib olganlaridan so'ng, belgilangan vaqt ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlariga so'zlab beradilar. Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (topshiriq yechimlari)ni muhokama qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar. So'ngra o'qituvchi guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so'raydi.

«6x6x6» metodining afzallik jihatlari quyidagilardir:

– guruhlarning har bir a'zosini faol bo'lishga undaydi;

– ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi;

– guruhdagi boshqa a'zolarning fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil qiladi;

– ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi.

### «Yumaloqlangan qor» o'yini

Ushbu metod ham mavzuni muayyan qismlarga bo'lgan holda o'zlashtirish imkonini beradi hamda tahsil oluvchilarda guruh va juftlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodni qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

– tasvirli kartochkalar tayyorlanadi;

– ularning orqa tomoniga mavzuni o'zlashtirishga oid o'n besh variantdan iborat topshiriqlar yoziladi;

– sinf tahsil oluvchilari ikki yoki uch guruhga bo'linadilar (guruhlarni hosil qilishda tasvirli kartochkalardan foydalaniladi);

– har bir guruh a'zolari bir nechta juftliklarga biriktiriladilar;

– har bir juftlik bir variantdagi topshiriqni bajaradi;

– jarayon yakunida umumiy xulosalar chiqariladi.

«Yumaloqlangan qor o'yini» metodidan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash maqsadida foydalanish nihoyatda qulaydir.

## «Zigzag»

Ushbu hamkorlikda o'qitish usuli talabalarga oz vaqt mobaynida juda ko'p o'quv ma'lumotini yetkazishga imkon beradi. Ushbu usulning maqsadi tabalarda ijtimoiy (kommunikativ) ko'nikmalarni; analitik, sintetik ko'nikmalarni (birinchi darajali g'oyalarni ajratish, o'zaro bog'liklar mavjudligi, taqrizlash ko'nikmalari va hokazolar), taqdimot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

*O'tkazilish tartibi.*

*1-qadam.* Ma'lumotni (materialni) mantiqiy tugallangan qismlarga bo'lish (46 qism).

*2-qadam.* Tayyorlangan material qismlari soniga mos holda 46 kishidan iborat bo'lgan guruh tuzish (4 qism bo'lsa 4 ta talabali, 6 qism bo'lsa 6 ta talabali). Ushbu guruhlar «**O'Z** guruhlar» deb nomlanadi. Har bir guruh a'zosi matnning ma'lum bir qismi nomeriga mos tartib raqamini oladi:

1-guruhda: №1, №2, №3, №4, №5, №6;

2-guruhda: №1, №2, №3, №4, №5, №6 (va h.k.).

*3-qadam.* O'qish uchun berilgan materialni tarqatish (tartib raqamiga mos holda).

*4-qadam.* «EKSPERT» guruhlarini shakllantirish (tuzish). Bir xil nomerli (raqamli) talabalar bir guruhga – «ekspertlar» guruhiga birlashadilar. Ushbu guruhlarda ular mantning tegishli qismini o'rganib chiqadilar va uning mazmunini «O'Z» guruhlariga yetkazish, tushuntirib berish yo'llarini tanlaydilar.

*5-qadam.* Talabalar «O'Z» guruhlariga qaytib boradilar va o'zlashtirilgan ma'lumotlar bilan o'zaro fikr almashinadilar. «Ekspert»ning vazifasi o'zi mas'ul bo'lgan matn qismini har bir guruhdoshiga sifatli yetkazib berishdan iborat. Natijada har bir guruh a'zosi matn bilan to'liq tanishib chiqadi.

*6-qadam.* Talabalar tomonidan berilgan matnni o'zlashtirish darajasini aniqlash va baholash.

## Ikki qismli kundalik

Ikki qismli kundalik bu – matn mazmunini tekshirish, shaxsiy tajribasi bilan bog'lash va o'qib chiqqan materialiga o'z munosabatini yozma ravishda ifodalash imkoniyatini beradigan oddiy va effektiv usuldir.

*O'tkazilish tartibi.*

*1-qadam.* Daftar varag'i o'rtadan teng ikki qismga bo'linadi.

*2-qadam.* Varaqning chap tomoniga talaba unda katta taassurot qoldirgan, unga ko'proq yoqqan yoki o'ylantirgan, uning tasavvurida ma'lum assotsiatsiyalarni vujudga keltirgan sitatalarni (yoki muallif g'oyalarini) yozib qo'yadi.

*3-qadam.* Varaqning o'ng qismiga talaba tanlangan sitata orqali uning ongida shakllangan fikr, berilgan g'oyaga munosabat, xulosasini sharh (izoh) sifatida yozib qo'yadi, shu bilan u o'qigan ma'lumotiga o'zining shaxsiy qarashlarini ifodalaydi (shu tariqa bir necha sitata ko'rib chiqiladi).

Sharh quyidagi savollarga javobni o'z ichiga olishi mumkin:

- Nima sababdan ular matnning shu qismini tanladilar?
- Nima sababdan matnning aynan shu qismi ularda katta taassurot qoldirdi?

• Bu ma'lumot ularda qanday ijobiy yoki salbiy fikrlarni vujudga keltirdi?

• O'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq qanday savollar yoki muammolar tug'ildi?

*4-qadam.* Strategiyaning yakuniy qismida o'quvchilar juftliklarda ishlaydilar, bajargan ishlarini tahlil qiladilar, bir-birlarining ishlaridagi yutuqlarni belgilaydilar.

**«Chalkashgan mantiqiy zanjir»**

Ushbu usul hodisaning sabab-natija bog'lanishlarini o'rganishda qo'llaniladi.

*O'tkazilish tartibi.* Talabalar e'tiboriga o'rganiladigan faktlar (jarayonlar, hodisalar) to'plami sabab-natija yoki xronologik tartibi buzilgan holda beriladi. Vazifa: ularni tartib bilan joylashtirish. Faktlarni o'zaro bog'lash uchun talabalar qo'shimcha so'zlarni qo'llab matn ham tuzishlari mumkin.

*Misol:* innovatsion pedagogika, zamonaviy mutaxassis, psixologiya fanining so'nggi yutuqlari, axborotlar hajmining keskin o'sishi.

**Uchinchi kichik modul**

O'quv mashg'ulotlarini pedagogik texnologiya yordamida amalga oshirishda ularda ishtirok etadigan elementlarni o'zaro funksional bog'liqlikda ekanligini ko'rsatuvchi ramziy ko'rinishni **«dastpanja»** deb atadik (2-rasm).

Ko'rib turganingizdek, «dastpanja»ning butunlik holati muayyan bir fanning bitta o'quv mashg'uloti, ya'ni bitta darsini, PT tili bilan aytganda, bitta o'rta modulini ifoda etgan. Uning **birinchi** raqamli elementida, ya'ni «dastpanja»ning kaftida, shu mashg'ulotda beriladigan materiallarni, hajmi va mazmuniga qarab, kichik modullarga ajratib, ularning maqsadlari va ularga ajratilgan vaqt aniqlab olinishi ko'rsatilgan. **Ikkinchi** raqamli elementi orqali, ya'ni




2-rasm. Pedagogik texnologiyaning o'zbek milliy «Dastpanja» modeli.

«dastpanja»ning «boshmaldog'i»da, har bir kichik modulda beriladigan bilimlar tizimi ichidan tayanch tushinchalar ajratib olinib, shu tushunchalar asosida nazorat savollari va bu savollar asosida test yoki boshqa nazorat shakllari tuzilishi lozimligi ko'rinib turibdi. **Uchinchi** raqamli elementidan, «dastpanj»aning «qoramaldog'»i-dan, har bir kichik modulda qo'llaniladigan dars turi va tipining belgilanishi ko'rinib turibdi. **To'rtinchi** elementi, «dastpanja»ning

«o'rta terak» barmog'ida, har bir kichik modulda qo'llaniladigan pedagogik uslublar ko'rsatiladi. **Beshinchi** raqamli elementi, «kichik merak»da, har bir kichik modulda foydalaniladigan axborot texnologiyalari ifoda etiladi. **Oltinchi** raqamli elementi, «dastpanja»ning «jimjilog'i»da, har bir kichik modulda foydalaniladigan didaktik materiallarning turi va joylari ko'rsatilishi ifodalangan. «Dastpanja»-ning **yettinchi** raqamli elementi, ya'ni «bilagi»da, pedagogik texnolgiyaning boshqa beshta elementida rejalashtirilgan harakatlar «kaft», ya'ni maqsadlar orqali birikib, ularda ko'rsatilgan narsalarni, ya'ni muayyan o'quv mashg'ulotida beriladigan materiallarni qaysi kichik modullarda, qaysi tayanch tushunchalarni qanday dars turi va tipi yordamida, qanday uslublar qo'llab turib, qaysi axborot texnologiyalar va didaktik materiallardan qanday qilib foydalanish yo'llari yozilgan dars ssenariysi ifodalangan bo'ladi. Bunda, o'quv jarayonida ishtirok etadigan barcha kuch va vositalar o'zaro sintezlashib bir butunlikni, ya'ni dars degan majmuni tashkil qiladi.

Pedagogik texnologiya zamonaviy o'zbek milliy modelini ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llash «dastpanja» usulini yaratishda, hammaga ma'lum bo'lgan usullarning eng yaxshi tomonlari olinib, PT tamoyillari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini loyihalashda va ularni amaliyotda qo'llashda bu usullarning maqomi o'zgartirildi va shu nomlar ostida ular uslub deb qabul qilindi. Demak, avvalgi usullarning yaxshi tomonlari olinib, ular pedagogik texnologiyada uslub (ruschada «педагогический приём») o'rnida qo'llanildi.

## 2. UCHINCHI KATTA MODULNING IKKINCHI O'RTA MODULI (amaliy mashg'ulot) – Ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda qo'llaniladigan pedagogik usullar

### 2.1. Laboratoriya o'quv mashg'ulotining maqsadi

*3.2.1-jadval*

| |
|---|
| Talabalarda interfaol usullarning mohiyati, turlari, ularni tanlash, qo'llash tartibi haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish, mustahkamlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, o'qituvchilik faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashishni tarbiyalash hamda pedagogik jarayonga ijodiy yondashuvni shakllantirish. |

### 2.2. Laboratoriya o'quv mashg'uloti rejasi, turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar

*3.2.2-jadval*

| | |
|---|---|
| Mashg'ulotning rejasi | 1. Klaster, T-sxema, Venn diagrammasi.<br>2. «6x6x6», «Aqliy hujum».<br>3. «Yumaloqlangan qor» o'yini, «Zakovatli zukko», «BBB».<br>4. «INSERT», «Zigzag», ikki qismli kundalik, konferentsiya darsi, seminar darsi.<br>5. «Chalkashgan mantiqiy zanjir» usuli, «Yozma debat».<br>6. Pedagogik texnologiyaning zamonaviy o'zbek milliy modeli «dastpanja» usulini ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llash asosida o'quv mashg'ulotlarni loyihalash |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Ijodiylik xususiyatiga ega laboratoriya mashg'uloti |

| | |
|---|---|
| Ta'lim usullari | «Birgalikda o'rganamiz» («Koopkoop») usuli, ijodiy amaliy ish |
| Ta'lim vositalari | Guruhlar uchun topshiriqlar varaqasi (tarqatma materiallar), topshiriqlar berish sxemasi, o'quv-uslubiy qo'llanma, FYOTV |
| Ta'lim shakllari | Ommaviy, guruhiy, jamoaviy |
| O'qitish sharoitlari | Kichik guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan, multimedia vositalari mavjud auditoriya |
| Monitoring va baholash | Ijodiy amaliy ish natijalari |

## 2.3. Laboratoriya mashg'ulotining pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot texnologiyalari va didaktik materiallar hamda faoliyat mazmuni

*3.2.3-jadval*

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **ta'lim beruvchi** | **ta'lim oluvchilar** |
| 1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.) | 1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni e'lon qiladi.<br><br>1.2. Talabalarga avvalgi ma'ruza mashg'ulotida shakllantirilgan guruhlarda ishlash rejalashtirilganligini ma'lum qilib, ularni 5 guruhga bo'linishlarini tashkillashtiradi, so'raydi. | 1.1. Tinglaydilar, aniqlashtiruvchi savollar berishlari mumkin.<br>1.2. Tinglaydilar, kichik guruhlarga bo'linadilar. |
| 2-bosqich Asosiy (65 daq.) | 2.1. Mavzu bo'yicha ijodiy ishni tashkillashtiradi:<br>- guruhlarga topshiriq varaqalarini tarqatadi (2.3.1-ilova); | 2.1. Guruhga berilgan topshiriqni guruhlarda bajaradilar; |

| | | |
|---|---|---|
| | - topshiriqning bajarilishini kuzatib boradi, talabalarga maslahat beradi;<br>- guruhlar ishlarining taqdimoti va ularning muhokamasini tashkillashtiradi;<br>- ishlarni baholashni tashkillashtiradi. | taqdimot o'tkazadilar;<br>raqib guruhlar ishlarini baholaydilar. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 daq.) | 3.1. Refleksiya faoliyatini tashkillashtiradi – talabalarni mashg'ulot natijasida ularda shakllangan bilim, tasavvur, munosabatlarni tahlil qilishga undaydi; bajarilgan vazifalarni murakkablik darajasi nuqtayi nazaridan muhokama qilishlarini tashkillashtiradi.<br>3.2. Mavzu bo'yicha belgilangan mustaqil ta'lim vazifasini tushuntiradi («Mustaqil ta'lim mavzulari va mazmuni» jadvali (2-ilova). | 3.1. Savollarga javob berib, refleksiyani amalga oshiradilar.<br>3.2. Mustaqil bajarish uchun berilgan vazifani yozib oladilar. |

*2.3.1-ilova*

**Topshiriqlar varaqasi.**

1. Quyidagi sxemaga mos holda «raqib» guruhga mutaxassislikka oid yoki tarbiyaviy ahamiyatga ega 3 ta mavzu taklif qiling.

2. «Raqib» guruhga ushbu mavzuni o'rganishda samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan interfaol usullarni aniqlash topshirig'ini bering.

3. Sizning guruhingizga berilgan mavzu nomi bilan tanishing va uni o'rganishda samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan interfaol usullarni guruhda muhokama qiling va aniqlang.

4. Interfaol usulni qo'llash natijasida yaratiladigan jadval/matn/ sxemani qog'ozda ifodalang.

5. Guruh ishi taqdimotini o'tkazing.

6. Guruhingiz bergan topshiriq bo'yicha bajarilgan ishni tahlil qiling va baholang — bunda usulning ta'lim maqsadi, mavzu mazmun-mohiyatiga mosligi, undagi ichki bog'lanishlarni aks ettira olishiga e'tibor bering.

7. Berilgan bahoni og'zaki asoslab bering.

# IV. TO'RTINCHI KATTA MODUL –
## *O'quv materialini didaktik takomillashtirish va rekonstruksiyalash asosidagi ta'lim texnologiyalari*

(1 ta ma'ruza va 1 ta amaliy mashg'ulot modullari)

## 1. TO'RTINCHI KATTA MODULNING BIRINCHI O'RTA MODULI (ma'ruza) – Integrallashgan ta'lim texnologiyalari va modulli ta'lim texnologiyasi

### 1.1. To'rtinchi katta modul tarkibidagi birinchi o'rta modulning umumiy maqsadi

*4.1.1-jadval*

| |
|---|
| Talabalarda jamiyat, fanning hozirgi rivojlanish bosqichida axborotning tutgan o'rni, ta'lim mazmunini shakllantirishga zamonaviy yondashuv, ta'lim jarayonida ta'lim mazmuni va unga kiritilgan ma'lumotni tahsil oluvchida hosil qilishda o'quv vositalarining roli, modulli ta'lim texnologiyasi bilan tanishtirish, ularda ta'lim mazmunini rekonstruktsiya qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ularda mustaqil bilim olish uchun hamda katta hajmdagi ma'lumotlarni o'rganish va rekonstruksiya qilish uchun zarur bo'lgan sifatlarni shakllantirish va ta'lim mazmunini rekonstruksiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadigan mantiqiy tafakkur, ijodkorlik va tadqiqot olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish. |

## 1.2. Birinchi o‘rta modulning kichik modullari nomlari va maqsadlari

*4.1.2-jadval*

| T/r | Kichik modullar nomi | Kichik modullarning maqsadi |
|---|---|---|
| 1. | DTS, o‘quv reja va fan dasturi hamda integrallashgan ta’lim texnologiyalari | Talabalarga ta’lim maqsadiga erishishda ta’lim mazmunining tutgan o‘rnini, hozirgi davrda ta’lim mazmunini tanlash, tashkillashtirish masalalarining e’tibor markaziga qo‘yilishi sabablarini, bu sohada olib borilayotgan ishlarni va integrallashgan ta’lim maqsadi, mohiyatini tushuntirish. |
| 2. | Integrallashgan kursni tashkillashtirish va amalga oshirish yo‘llari | Talabalarga «integrallashgan kurs» tuzilishining asosiy jihatlarini, integrallashgan kursga qo‘yiladigan talablarni, misol tariqasida muayyan integrallashgan kurs dasturini tuza olishni va uni izohlab bera olishni o‘rgatish. |
| 3. | Blokli o‘qitish | Talabalarga keyingi paytlarda ta’lim mazmuniga kiruvchi ma’lumotlarni tashkillashtirishda yangicha yondashuvlarning paydo bo‘lishi sabablarini to‘g‘ri ko‘rsata olishni, «o‘quv bloki» tushunchasi, blokli o‘qitish dasturi tuzilmasiga kiruvchi elementlarni va matnni bloklarga ajrata olishni o‘rgatish. |
| 4 | Modulli ta’lim | Talabalarga «o‘quv moduli» tushunchasiga to‘g‘ri ta’rif bera olishni, o‘quv moduli tuzilmasiga kiruvchi elementlarni sanab bera olishni, modul darajalarini izohlab bera olishni, blokli o‘qitish hamda modulli ta’limni o‘zaro taqqoslay olishni va mutaxassislik fanidan o‘quv mashg‘ulotlar loyihalarini tuza olishni o‘rgatish. |

## 1.3. Tayanch tushunchalar va ular asosida tuzilgan nazorat savollari

*4.1.3-jadval*

| T/r | Tayanch tushunchalar | Nazorat savollari |
|---|---|---|
| 1. | Ta'lim mazmuni, integrallashgan ta'lim, «integrallashgan kurs», DTS, o'quv reja, o'quv dasturi. | 1. Ta'lim mazmunini tashkillashtirish (tanlash, chegaralash, tizimlash)da tuzuvchi qanday muammolarga duch keladi?<br>2. Fandagi ma'lumotlarning tezkorlik bilan yangilanib borishi, ularning hajmi tobora ko'payib borishining ta'siri nimada namoyon bo'ladi?<br>3. Mutaxassislik faningizdan DTSni tahlil qilib bering.<br>4. Mutaxassislik faningizdan tuzilgan o'quv dasturlarni tahlil qiling va sizning nazaringizda ularda uchragan kamchiliklarni ko'rsating.<br>5. O'quv rejadagi fanlarning integrallashgan kursi deganda nimani tushunasiz? |
| 2. | Modernizatsiyalash strategiyasi, integratsiya, integrallashgan butunlik tamoyili | 1. Ta'lim mazmunini modernizatsiyalash uchun o'zbek olimlari qanday yo'llarni taklif qilmoqdalar?<br>2. Integratsiya so'zining ta'rifini bering. Ta'lim jarayonida fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish qanday natija beradi?<br>3. Integrallashgan o'quv kursi tushunchasiga ta'rif bering.<br>4. Integrallashgan kurslarga qo'yiladigan talablarni sanab bering.<br>5. Integrallashgan kurs mazmunini tanlashda butunlik tamoyili nimani anglatadi?<br>6. Mutaxassislik faningizning xususiyatidan kelib chiqib, integrallashgan kurs mavzularini tuzib chiqing. |

| | | |
|---|---|---|
| 3. | «O'quv bloki», blokli o'qitish | 1. «O'quv bloki» tushunchasi nimani anglatadi?<br>2. Blokli o'qitishning maqsadi nima?<br>3. Blokli o'qitishda o'quv dasturining kopmonentlarini to'g'ri ketma-ketlikda sanab bering.<br>4. Mutaxassislik faningizning mazmuniga tayangan holda ma'lum bir matnni bloklarga ajratib chiqing, ularni to'g'ri ajratilganligini asoslang.<br>5. Blokli o'qitish qanday amalga oshiriladi?<br>6. Blokli o'qitishda o'quv dasturining kopmonentlarini to'g'ri ketma-ketlikda sanab bering.<br>7. Modulli ta'lim va blokli o'qitishlarni o'zaro taqqoslang. |
| 4. | Modul, o'quv moduli, modul elementlari, o'quv mashg'ulot loyihasi | 1. Modulli ta'lim nima maqsadlarda qo'llaniladi? O'quv moduli elementlarini to'g'ri ketma-ketlikda sanab bering.<br>2. Bloklarga ajratgan matningiz asosida modul xaritasini yarating.<br>3. Mutaxassislik faningiz mazmuniga tayangan holda ma'lum bir matnni bloklarga ajratib chiqing, ularni to'g'ri ajratilganligini asoslang.<br>4. «O'quv moduli» tushunchasiga ta'rif bering.<br>5. Modulli ta'lim nima maqsadlarda qo'llaniladi?<br>6. O'quv moduli elementlarini to'g'ri ketma-ketlikda sanab bering.<br>7. Modul kursi mazmuni hajmi, murakkabligi nuqtayi nazaridan qaysi darajalarga bo'linadi?<br>8. Modulli ta'lim va blokli o'qitishlarni o'zaro taqqoslang. Bloklarga ajratgan matningiz asosida modul xaritasini yarating.<br>9. Mutaxassislik fani o'quv mashg'ulotlarini loyihalang. |

## 1.4. Nazorat savollari asosida tuzilgan test

*4.1.4-jadval*

| T/r | Savollar | Mumkin bo'lgan javoblar | |
|---|---|---|---|
| 1 | Ta'lim jarayonida fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish qanday natija beradi? | 1 | Tahsil oluvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. |
| | | 2 | Faol usullarni qo'llash uchun sharoit yaratib beradi. |
| | | 3 | Ta'lim mazmunini yangilaydi. |
| | | 4 | Tahsil oluvchi ongida dunyoning yaxlit obrazi shakllanadi. |
| 2 | Ta'lim sohasida integratsiya tushunchasiga izoh bering. | 1 | Ta'lim mazmunini tez-tez o'zgartirib borish. |
| | | 2 | Fanlar, o'quv predmetlari, bir o'quv predmetining bo'limlari, har xil o'quv predmetlari mavzulari o'rtasidagi tabiiy o'zaro bog'lanish. |
| | | 3 | Axborotlarni yangilash. |
| | | 4 | Ta'lim mazmunining amaliyligini ta'minlash. |
| 3 | Integrallashgan kurs mazmunini tanlashda butunlik tamoyili nimani anglatadi? | 1 | Integrallashgan kurs mavzulari o'z ichiga yakunlangan ma'lumotni olishi. |
| | | 2 | Ta'lim mazmuniga barcha mavjud ma'lumotlarning kiritilishi. |
| | | 3 | Integrallashgan kurs mazmunini tuzishda asos sifatida kursning o'rganish obyekti umumiy bir obyekt bo'ladi. |
| | | 4 | O'quv kursiga kiritilgan mavzularning o'zaro bog'liqligi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 4. | «Integratsiya» so‘zi nima ma’noni anglatadi? | **1.** | Lot. *integratio* – tiklash, to‘ldirish; qandaydir qismlar, bo‘laklarni bir butun yaxlit holga keltirib birlashtirish degan ma’noni anglatadi. |
| | | 2. | Lot. *integratio* – tiklash, to‘ldirish degan ma’noni anglatadi. |
| | | 3. | Lot. *integratio* – mayda bo‘laklarga bo‘lish degan ma’noni anglatadi. |
| | | 4. | Lot. *integratio* – qismlar, bo‘laklarni birlashtirish degan ma’noni anglatadi. |
| 5. | Integrallashgan kurs o‘zi nima? | 1. | Malakaviy talablarning u yoki boshqa qismlariga ega bo‘lishni ta’minlovchi, yagona tizim shaklida vujudga keluvchi o‘zaro aloqador o‘quv fanlari (predmetlar) bo‘yicha turli bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘rganishni birlashtiruvchi o‘quv kursidir. |
| | | 2. | Integrallashgan (muammoli-yo‘naltirilgan) kurs. |
| | | 3. | Qismlar, bo‘laklarni bir butun yaxlit holga keltirib birlashtirtirilgan kurs. |
| | | **4.** | 1- va 2-javoblar to‘g‘ri. |
| Tayanch tushunchalar va ular asosida tuzilgan nazorat savollarini baholash turlari fan xususiyatidan kelib chiqqan holda so‘rovlar, og‘zaki savol-javob, yozma ish, imtihon sinovlari yoki boshqa nazorat shakllariga aylantirilishi mumkin. | | | |

## 1.5. Dars turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar

*4.1.5-jadval*

| | |
|---|---|
| O'quv mashg'ulotining shakli | Mustaqil ta'lim elementlariga asoslangan ma'ruza mashg'uloti |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1. Integrallashgan ta'lim texnologiyalari.<br>2. Integrallashgan kursni tashkillashtirish va amalga oshirish yo'llari.<br>3. Blokli o'qitish.<br>4. Modulli ta'lim |
| Ta'lim usullari | Modulli ta'lim, qiyosiy tahlil. |
| Ta'lim vositalari | Talabalar o'quv faoliyati tartibi (modul xaritasi) – tarqatma material, o'quv-uslubiy qo'llanma, tahlil jadvali, FYOTV |
| Ta'lim shakllari | Ommaviy, guruhiy, yakka tartibda, juftlikda, jamoaviy |
| O'qitish sharoitlari | Oddiy auditoriya |
| Monitoring va baholash | Modulda ko'rsatilgan barcha topshiriqlar natijalari. |

## 1.6. Kichik modullarning pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot-komunikatsion texnologiyalar va didaktik materiallar

*4.1.6-jadval*

| Ish bosqichi va vaqti | O'quv jarayoni | |
|---|---|---|
| | ta'lim beruvchi | ta'lim oluvchilar |
| 1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.) | 1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni e'lon qiladi. Mashg'ulot modulli ta'lim texnologiyasi asosida o'tkazilishini yetkazadi va modul xaritasi bo'yicha ishlashni tushuntiradi. | 1.1. Tinglaydilar, aniqlashtiruvchi savollar berishlari mumkin. |

| | | |
|---|---|---|
| 2-bosqich Asosiy (65 daq.) | 2.1. Talabalarning mustaqil faoliyatini kuzatib boradi.<br><br>2.2. Modul xaritasiga muvofiq holda nazoratni amalga oshirib boradi. | 2.1. Modul xaritalari bilan tanishib chiqadilar.<br>2.2. Modul xaritasidagi ko'rsatmalar asosida o'quv faoliyatini olib boradilar. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 daq.) | 3.1. Refleksiya faoliyatini jamoaviy shaklda tashkillashtiradi – modulli ta'lim texnologiyasini o'qituvchi va tahsil oluvchi nuqtayi nazaridan baholaydi (1.6.1-ilova). | 3.1. Jadval to'ldirishda ishtirok etadilar. |

*1.6.1-ilova*

**Tahlil jadvali (misol)**

| Modulli ta'lim texnologiyasi | | | |
|---|---|---|---|
| **O'qituvchi nuqtayi nazaridan** | | **Tahsil oluvchi nuqtayi nazaridan** | |
| 1 | Ta'lim jarayonida kam energiya sarflashi | 1 | Ta'lim jarayonida ko'p energiya sarflashi (mustaqil ta'lim olish kuchli aqliy zo'riqishni talab qiladi) |
| 2 | Asosiy faoliyat turi – nazorat | 2 | Asosiy faoliyat turi – ta'limiy vazifa va topshiriqlarni bajarish |
| 3 | ... | 3 | ... |

## 1.7. O'rta modulning mazmunini ifoda etuvchi matn ssenariysi

### Birinchi kichik modul

Rivojlangan mamlakatlarda kasbiy ta'limning (shu bilan birga oliy ta'limning ham) asosiy maqsadi raqobatbardosh tovarlar chiqa-

rish va barcha darajadagi malakali kadrlarni tayyorlash orqali raqobatbardosh xizmat ko'rsatishdan iboratdir.

Uzluksiz ta'lim tizimining ko'pgina aspektlarini belgilab beruvchi muhim elementlardan biri bu – Davlat ta'lim standartidir (DTS). U o'zida ta'lim yo'nalishlari (bakalavriat) yoki mutaxassisliklar (magistratura)ning umumiy tasnifini (xarakteristikasini), tayyorgarlik darajasiga, kasbiy-ta'lim dasturlari tuzilmasi va mazmuniga, uning amalga oshirilishi, kadrlar tayyorlash sifatining nazorati va boshqalarga bo'lgan talablarni akslantiruvchi ko'p qirrali konstruksiyani mujassam etadi.

Ta'lim standarti ta'limning maqsadi va qadrini, uning mazmuni va natijalarini (tayyorgarlik darajasiga bo'lgan talablarni), kasbiy-ta'lim dasturining asosiy tasnifi (xarakteristikasi), ta'lim jarayonining shakliy tuzilmasini, uning maqsadga erishish darajasining bosqichma-bosqich va yakuniy tashxislanishiga mo'ljallangan hajmiy va vaqt bo'yicha tuzilmasi, ta'lim va bilimlilik darajasini aniqlab beradi.

DTS larni samarali tarzda amalga oshirish muammosini hal etishda **tizimli yondashuvdan** foydalanish zarur. Barcha sharoitlar yig'indisi ularning o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sirlarida ta'minlanishi lozim.

**O'quv rejasi** – o'rganilayotgan fanlar ro'yxatidir va, shu bilan birga, mantiqiy ketma-ketlikdagi (har doim optimal emas) joylashuvidir. Boshqacha qilib aytganda, bunday o'quv reja ko'proq yacheykalar bo'yicha saralangan qurilish materiallari **«omborxonasi»**ni eslatadi (bizning holda kurs va semestrlar bo'yicha joylashtirilgan o'quv fanlari «omborxonasi»). Unda **kadrlar tayyorlash sifatining salohiyatiga (potentsialiga)** salmoqli ta'sir qiluvchi fanlararo aloqalar to'laligicha inobatga olinmaydi. Fanlararo to'siqlar talabaga predmetlarning **o'zaro aloqalarini** ko'rish va tushunishga, shuningdek, kelgusi kasbiy faoliyatda ularning o'rni va rolini aniqlashga imkon bermaydi, hayotda esa uning o'qishga bo'lgan qiziqishini kamaytiradi.

Ko'rsatilgan kamchilik **integrallashgan (muammoli orientirlangan) kurslar** to'plamidan tashkil topgan o'quv rejalarida bartaraf etiladi.

Fan taraqqiyoti, mutaxassislarga ishlab chiqarish, jamiyat tomonidan qo'yilayotgan talabalarning o'sib borishi o'quv materialining keskin ko'payib borishiga olib kelmoqda.

O'quv rejasida ortiqcha o'quv yuklamalarining miqdorini kamaytirish, ya'ni takror va adekvat o'quv materiallarini integrallashtirishga erishishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'lim mazmunida fanlararo aloqadorlikni tanlash o'quvchilarning moddiy borliqni **yaxlit tasavvur** etishlari uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Ta'lim mazmunida o'quvchini rivojlantirishga xizmat qiladigan axborotlarni taqdim etish natijasida quyidagi pedagogik imkoniyatlar yaratiladi:

- ta'lim mazmunining **yaxlit model** sifatida namoyon bo'lishi;
- ta'lim mazmunining **axborotliligi** ta'minlanishi;
- ta'lim mazmunida **amaliy natijalarning** yaqqol ifodalanishi;
- ta'lim mazmunidan murakkab nazariy tushunchalarning tez ajratib olinishi;
- o'quvchi o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilimlar yig'indisining yaxlit ifodalanishi [52].

**Integratsiya** (lot. *integratio* – tiklash, to'ldirish) qandaydir qismlar, bo'laklarni bir butun yaxlit holga keltirib birlashtirish degan ma'noni anglatadi.

Ta'limda «integratsiya» bu **fanlar, o'quv predmetlari, bir o'quv predmetining bo'limlari, har xil o'quv predmetlarining mavzulari o'rtasidagi tabiiy o'zaro bog'lanishdir.** Ta'kidlash joizki, an'anaviy o'quv rejalarida noaniq rasmiylashtirilgan integrallashgan kurslar mavjud bo'lib, natijalari fanlar turkumi, kurs loyihalari va bitiruv malakaviy ishlar bo'yicha kompleks imtihonlar ko'rinishida taqdim etiladi.

**Integrallashgan kurs o'zi nima?** Bu malakaviy talablarning u yoki boshqa qismlariga ega bo'lishni ta'minlovchi, yagona tizim

shaklida vujudga keluvchi o'zaro aloqador o'quv fanlari (predmetlar) bo'yicha turli bilimlar, uquv va ko'nikmalarni o'rganishni birlashtiruvchi o'quv kursidir.

**Integrallashgan kurslar umumiy dasturiga ko'ra** undagi fanlar o'rtasidagi mazmunlari bo'yicha deyarli barcha aloqalar o'rnatiladi.

Bundan tashqari u, birinchidan:

- turdosh fanlardagi o'quv materiallarining takrorlanishlarini bartaraf qilishga (ta'lim mazmunidagi uzviylik prinsipi amalga oshiriladi) va bundan kelib chiqadiki, o'quv vaqtini tejashga;
- navbatdagi o'quv materialini o'zlashtirish (uzilishdan keyin) sifatiga ta'sir etadigan, integrallashgan kurs o'quv materialining mantiqiy zanjiridagi uzilishlarni bartaraf etishga imkon beradi.

Ikkinchidan, integrallashgan kurs nafaqat undagi o'quv fanlari o'rtasidagi, balki u yoki bu fanlarning bo'limlari o'rtasida vaqtinchalik aloqalarni yana ham aniqroq belgilashga imkon beradi. Uyg'unlashtirilgan kurs fani yoki o'quv rejasidagi uning bo'limlari, ular uyg'unlashtirilgan kurs mazmunining mantig'i bo'yicha talab qilinadigan vaqtda belgilanadi, ya'ni «qoshiq tushlik paytida qadrli» prinsipi kabidir. Masalan, «Oliy matematika» fanining «Matematik statistika» bo'limi oldin o'rganish kerak bo'lgan yoki, hech bo'lmasa, shu yoki boshqa integrallashgan kurslarning aynan shu matematik apparat foydalaniladigan boshqa fanlari bilan birga parallel ravishda o'qitilishi kerak. Grafalar, matritsalar va shunga o'xshashlarni topologik modellar foydalaniladigan fanlardan oldin o'rganish lozim. Bunday yondashuvda integrallashgan kurslar fanlari integrallashgan kurslarni o'rganish mantig'iga mos holda semestrlar bo'yicha bo'limlarga (yoki modullarga) bo'linishi mumkin.

Uchinchidan, integrallashgan kurslar o'qitishda tizimli-yaxlit yondashuvni amalga oshirishga va bilimning tarqoq tizimini o'rganishdan, ta'lim oluvchilarning o'zlari tarqoq bilimlarni «tartibga keltiradigan» holdan ma'lum tarzda shakllantirilgan bilim tizimini o'rganish holatiga o'tishga imkon beradi.

Integrallashgan kurslar ta'lim oluvchining tizimli fikrlashini shakllantirishga, o'quv-tarbiyaviy jarayonda tizimli yondashuvni qo'llashga imkon beradi. Bunday quvvatli ishchi uskuna (instrument) yordamida mustahkam integrallashgan bilim shakllantiriladi.

Integrallashgan kurslardan tashkil topgan o'quv rejasini ularni tashkil etuvchi elementlarning barcha o'zaro bog'liqliklari hisobga olingan funksional bloklardan iborat uy qurish rejasi bilan taqqoslash mumkin. Oddiyga o'xshaydi! Biroq ta'lim dasturlarini tizim shaklidagi integrallashgan kurslarga ajratish Davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalarining tuzuvchisidan yuqori malakani, fanlararo dasturlar yarata olish qobiliyatini talab qiluvchi anchagina murakkab ilmiy-uslubiy masaladir.

## Ikkinchi kichik modul

## Integrallashgan kursni tashkillashtirish va amalga oshirish yo'llari

**Integrallashgan kurslarga qo'yiladigan talablar:**

1. O'quv materialining ilmiyligi.
2. Materialning o'quvchilar yoshiga mosligi.
3. O'quv muassasasi joylashgan hudud sharoitlarini inobatga olish.
4. Umumiy (faqat bir fan bilan chegaralanmagan) ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi materialning mavjudligi.
5. Izlanish usullarini qo'llashga imkoniyat yaratuvchi materiallar.
6. Mazmun tanlashda o'quv muassasasi maqsadlaridan kelib chiqish.
7. Integrallashgan kursda ham vertikal integratsiya (fan ichidagi mavzular), ham gorizontal (parallel beriladigan har xil fanlar) integratsiyaning qo'llanilishi.

**Integrallashgan kurs maqsadlari:**

1. Ta'lim oluvchilarni muayyan fanlarning asosiy hodisa va faktlari bilan tanishtirish.

2. Tasniflash, tabiiy hodisalarni o'lchash bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish.

3. Ilmiy intuitsiyani rivojlantirish.

4. Kurs mazmuniga fanning eng so'nggi yutuqlarini kiritish.

5. Ta'lim oluvchilar uchun eng qiziqarli bo'lgan materialni batafsil o'rganish.

6. Bilimlarni tafakkur tuzilmalari bilan integratsiyalash.

7. Fanlararo bog'liqliklarga alohida e'tibor qaratish.

8. Ta'limning hayot bilan bog'lanishini kuchaytirish.

9. U yoki bu fanning ustuvorligini e'tiborga olish.

10. Fanni o'rganishning chuqurligini tabaqalashtirish.

Qator xorijiy davlatlarda iqtisodiyot, ijtimoiy-gumanitar hamda tabiiy fanlar bo'yicha integrallashgan kurslar mavjud, masalan: inson va tabiat, inson va olam, inson va texnika, inson insonlar orasida; kompyuter texnologiyalari va tasviriy san'at; ekologik psixologiya; informatika, ona tili va adabiyot; tabiat va mehnat; fizika va astronomiya, psixologiya va adabiyot.

## Uchinchi kichik modul

**Blok shaklida.** Ma'lum bir jihatdan (o'xshashligi, joylashuvi, hajmi, vazifasi va hokazodan) kelib chiqib birlashtirilgan o'quv materialining bir qismi **o'quv material bloki** deb nomlanadi. Blok hajmi bir abzasdan bir bo'limgacha va, hattoki, bir fandan bir necha o'quv fanlargacha bo'lgan materialni o'z ichiga olishi mumkin.

Blokli o'qitish o'quv materialini bloklarga bo'lish asosida amalga oshiriladi. Bu talabalarga turli xil aqliy vazifalarni anglagan holda bajarishga va o'quv masalalarini yechishda o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni qo'llashga imkoniyat yaratadi. Bunday o'quv dasturi quyidagi ketma-ketlikdagi bloklarga ajratiladi:

– axborot bloki;

– testli axborotli bloki (o'zlashtirilgan ma'lumotni tekshirish);

– korreksion-axborotli blok (noto'g'ri javob berilgan bo'lsa qo'shimcha tushuntirish, maslahat va mashqlar beriladi);

– qo'llash bloki – olingan bilimlar asosida vazifalar bajarish;

– nazorat va korreksiya bloki.

## To'rtinchi modul

**Modul** – pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo'laklarni ifoda etuvchi tushuncha. Bu tarkibiy bo'laklar, ya'ni modullar eng kichik modullardan hamda ularning turli miqdordagi to'plamlaridan iborat bo'ladi. Bunda eng kichik tarkibiy bo'lakni eng kichik modul, boshqa bo'laklarni esa o'z ichiga qancha shunday modulni olishiga qarab o'rta va katta modullar deb ataladi. Modulli o'qitish usuli majmuli yondashuvni ifodalaydi.

Modulli o'qitishda blokli o'qitish g'oyalari rivoj topgan bo'lib, unda talaba modullardan tashkilla topgan o'quv dasturi bo'yicha ta'lim oladi.

**O'quv moduli** deb o'quv kursining nisbatan mustaqil bo'lgan qismi va unga biriktirilgan uslubiy materiallarga aytiladi.

## O'quv materiali + uslubiy material

Modul quyidagi elementlardan tashkil topadi:

– aniq shakllantirilgan o'quv maqsadi;

– axborot banki: o'quv dasturlari, matn shaklidagi o'quv materiali;

– materialni o'zlashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar;

– zaruriy ko'nikmalarni shakllantirish uchun amaliy mashg'ulotlar;

– jihoz, asboblar, materiallar majmuasi;

– berilgan modulda qo'yilgan maqsadlarga qat'iy mos bo'lgan diagnostik vazifa.

PT o'zining ilmiy asoslangan ravon tamoyillari va bajarilishi shart bo'lgan muayyan vazifalariga suyanadi.

Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o'quv mashg'ulotini loyihalashda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. O'quv fanini bir butunlikda «makro modul» deb qabul qilib, unda beriladigan materiallarning hajmi va mazmunidan kelib chiqib, «katta», «o'rta» va «kichik» modullarga ajratiladi, so'ng ularning maqsad va maqsadchalari hamda ularga ajratilgan vaqt belgilanadi.

2. Har bir kichik modul yordamida beriladigan bilimlar tizimi ichidan tayanch tushunchalar ajratiladi.

3. Tayanch tushunchalar asosida nazorat savollari tuzilib, talabalar bilim, ko'nikmalarini baholash tur va mezonlari belgilanadi.

4. O'quv mashg'ulotlarining har bir kichik modulida qo'llaniladigan dars turi va tipi aniqlanib olinadi.

5. Har bir kichik modulda qo'llaniladigan pedagogik uslublar aniqlanib, joylari topib qo'yiladi.

6. Ta'lim muassasasida mavjud axborot texnologiyalardan hamda har bir kichik moduldagi o'quv mashg'ulotining xarakteridan kelib chiqib, o'quv mashg'ulotini amalga oshirishda foydalaniladigan axborot texnologiyalarning qo'llanish joylari belgilanadi.

7. O'quv mashg'uloti jarayonida har bir kichik modulda foydalaniladigan didaktik materiallarnng turi va joyi aniqlanadi.

# 2. TO'RTINCHI KATTA MODULNING IKKINCHI O'RTA MODULI (amaliy mashg'ulot) – O'quv materialini didaktik takomillashtirish va rekonstruksiyalash asosidagi ta'lim texnologiyalari

## 2.1. Laboratoriya o'quv mashg'ulotining maqsadi

*4.2.1-jadval*

| |
|---|
| Talabalarda ta'lim mazmunini to'g'ri tashkillashtirish ko'nikmalarini shakllantirish, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va pedagogik jarayonga ijodiy yondashuvni, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish. |

## 2.2. Laboratoriya o'quv mashg'uloti rejasi, turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar

*4.2.2-jadval*

| | |
|---|---|
| Mashg'ulotining rejasi | 1. Integrallashgan ta'lim texnologiyalari.<br>2. Modulli ta'lim. |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Ijodiylik xususiyatiga ega bo'lgan laboratoriya mashg'uloti. |
| Ta'lim usullari | Ijodiy malakaviy ish. |
| Ta'lim vositalari | Integrallashgan ta'lim texnologiyasi bo'yicha topshiriq, modulli ta'lim texnologiyasi bo'yicha topshiriq, baholash varaqasi – barchasi tarqatma material, o'quv-uslubiy qo'llanma, FYOTV. |
| Ta'lim shakllari | Ommaviy, guruhiy, jamoaviy. |
| O'qitish sharoitlari | Kichik guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash | Ijodiy amaliy ish natijalari. |

## 2.3. Laboratoriya mashg'ulotining pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot texnologiyalari va didaktik materiallar hamda faoliyat mazmuni

*4.2.3-jadval*

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | ta'lim beruvchi | ta'lim oluvchilar |
| 1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.) | 1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni e'lon qiladi.<br>1.2. Talabalarga faoliyat loyihaviy ta'lim texnologiyasi asosida tashkillashtirilishini e'lon qiladi va 45 kishidan iborat ixtiyoriy guruhlarni tashkillashtirishni aytadi. | 1.1. Tinglaydilar, aniqlashtiruvchi savollar berishlari mumkin.<br>1.2. Tinglaydilar, kichik guruhlarga bo'linadilar. |
| 2-bosqich Asosiy (65 daq.) | 2.1. Integrallashgan ta'lim texnologiyasi mavzusi bo'yicha ijodiy ishni tashkillashtiradi:<br>- guruhlarga topshiriq varaqalarini tarqatadi (2.3.1-ilova);<br>- topshiriqning bajarilishini kuzatib boradi, talabalarga maslahat beradi;<br>- guruhlar ishlarining taqdimoti va ularning muhokamasini tashkillashtiradi;<br>- ishlarni baholashni tashkillashtiradi.<br>2.2. Modulli ta'lim texnologiyasi mavzusi bo'yicha ijodiy ishni tashkillashtiradi:<br>- guruhlarga topshiriq varaqalarini tarqatadi (2.3.2-ilova); | 2.1. Guruhga berilgan topshiriqni guruhlarda bajaradilar;<br>taqdimot o'tkazadilar;<br>raqib guruhlar ishlarini baholaydilar.<br>2.2. Guruhga berilgan topshiriqni guruhlarda bajaradilar; |

| | | |
|---|---|---|
| | - topshiriqning bajarilishini kuzatib boradi, talabalarga maslahat beradi;<br>- guruhlar ishlarining taqdimoti va ularning muhokamasini tashkillashtiradi;<br>Ishlarni baholashni tashkillashtiradi. | taqdimot o'tkazadilar;<br><br>raqib guruhlar ishlarini baholaydilar. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 daq.) | 3.1. Refleksiya faoliyatini tashkillashtiradi – talabalarni mashg'ulot natijasida ularda shakllangan bilim, tasavvur, munosabatlarni tahlil qilishga undaydi; bajarilgan vazifalarni murakkablik darajasi nuqtayi nazaridan muhokama qilishlarini tashkillashtiradi.<br>3.2. Mavzu bo'yicha belgilangan mustaqil ta'lim vazifasini tushuntiradi («Mustaqil ta'lim mavzulari va mazmuni» jadvali (2-ilova). | 3.1. Savollarga javob berib, refleksiyani amalga oshiradilar.<br><br>3.2. Mustaqil bajarish uchun berilgan vazifani yozib oladilar. |

*2.3.1-ilova*

**Integrallashgan ta'lim texnologiyasi bo'yicha topshiriq.**

1. Mutaxassisligingizga oid fanlardan o'zaro bog'liqlikda bo'lgan fanlarni tanlang (fan boshqa sohaga oid bo'lishi ham mumkin).
2. Tanlangan fanlar mazmunini tahlil qiling va ularning «bog'lanish nuqtalarini» aniqlang.
3. Aniqlangan «bog'lanish nuqtalari»ga tayangan holda integrallashgan kurs dasturi modelini tuzing.
4. Dasturlar taqdimotiga tayyorlaning: integrallashgan kurs dasturini katta hajmdagi qog'ozga yozing; dasturga kiritilgan har bir punktni asoslang (og'zaki).

5. Dastur taqdimotini o'tkazing, boshqa guruh a'zolari bergan savollarga javob berib, o'z fikringizni isbotlashga harakat qiling.

6. Boshqa guruhlar taqdimotini qunt bilan tinglang, savollar bering, taqdimotlarini baholang.

*2.3.2-ilova*

**Modulli o'qitish usuli bo'yicha topshiriq.**

1. Mutaxassisligingizga oid biror fan mavzusini tanlang.

2. Namunadan foydalangan holda tanlangan mavzu asosida talabalar mustaqil faoliyatini tashkillashtirishni ta'minlovchi modul ishlanmasini tuzing:

ma'lumotni mantiqiy qismlarga ajrating;

ma'lumotning har bir qismi xususiyatidan kelib chiqib, topshiriqlar tuzing, ularni bajarishga vaqt belgilang;

modul xaritasini katta hajmdagi qog'ozga tushiring.

3. Taqdimot o'tkazing, savollarga javob bering; boshqa guruhlar taqdimotini qunt bilan tinglang, savollar bering, taqdimotlarini baholang.

4. Boshqa guruhlar taqdimotini qunt bilan tinglang va savollar bering.

5. Guruhlar taqdimotini baholang.

# V. BESHINCHI KATTA MODUL –
## *O'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish*

(1 ta ma'ruza va 1 ta amaliy mashg'ulot modullari)

## 1. BESHINCHI KATTA MODULNING BIRINCHI O'RTA MODULI (ma'ruza) – O'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish

### 1.1. Beshinchi katta modul tarkibidagi birinchi o'rta modulning maqsadi

*5.1.1-jadval*

| |
|---|
| Talabalarda pedagogik jarayonni loyihalashning mohiyati, ta'limga texnologik yondashuvda pedagogik maqsad, pedagogik vazifa, pedagogik tashxis haqida tasavvur hosil qilish, pedagogik maqsadlarga samarali erishish uchun pedagogik loyihalashning ahamiyatini anglab yetishiga erishishga o'rgatish, shuningdek, ularda ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari, tamoyillari, nazorat jarayonini loyihalash haqidagi bilimlarni, ta'lim jarayonini loyihalash bosqichlari, bunda o'qituvchining vazifalari, ta'lim jarayonini loyihalash strategiyasi haqidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish. |

### 1.2. Kichik modullarning nomlari va maqsadlari

*5.1.2-jadval*

| T/r | Kichik modullar nomi | Kichik modullarning maqsadi |
|---|---|---|
| 1. | Pedagogik jarayonni loyihalashning mohiyati | Talabalarga pedagogik jarayonni loyihalash faoliyati tushunchasini, uning maqsadi, mohiyatini, pedagogik loyihalashda pedagogik maqsadlar, pedagogik vazifalarni to'g'ri aniqlash ahamiyatini va pedagogik tashxis, oldindan ko'ra bolish, pedagogik faoliyat mazmuni mohiyatini tushuntirish. |

| | | |
|---|---|---|
| 2. | Ta'lim jarayonini loyihalash tamoyillari | Talabalarga ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish bosqichlarini, har bir bosqichda amalga oshiriladigan faoliyat mazmunini, ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari, tamoyillarini, ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvning tarkibiy qismlarini, ularning mazmun-mohiyatini va ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishda uning qonuniyatlarini bilish va tamoyillariga amal qilish ahamiyatini tushuntirish. |
| 3. | Ta'lim jarayonini loyihalash bosqichlari va ta'lim jarayonini loyihalash strategiyasi | Talabalarga muayyan o'quv mashg'uloti jarayonining loyihasini ishlab chiqish bosqichlarini, ularni amalga oshirishga doir ma'lumotlarni sharhlab bera olishni o'rgatish, shuningdek, ularda loyihalash strategiyasi tushunchasi ta'rifini, loyihalash strategiyalari turlarini, ularning o'ziga xosliklarini va muayyan o'quv mashg'uloti loyihasini yarata olish ko'nikmasini shakllantirish. |
| 4. | Uzluksiz ta'lim jarayonida o'qitiladigan «Pedagogika» o'quv fanining bitta o'quv mashg'ulotining loyihasini tuzish | Talabalarga «Pedagogika» fanidagi bitta o'quv mashg'ulotining loyihasini tuzish yo'lini ko'rsatib berish va uzluksiz ta'lim jarayonida o'qitiladigan «Pedagogika» o'quv fanining bitta o'quv mashg'ulotining loyihasini andaza sifatida qarab, talabalarda o'zlarining mutaxassisliklari bo'yicha o'qitiladigan fanning o'quv mashg'ulotlari loyihasini tuzish ko'nikmasini hosil qilish. |

## 1.3. Tayanch tushunchalar va ular asosida tuzilgan nazorat savollari

*5.1.3-jadval*

| T/r | Tayanch tushunchalar | Nazorat savollari |
|---|---|---|
| 1. | Jarayonni loyihalash, pedagogik tashxis, oldindan ko'ra bilish, loyiha → mazmun → faoliyat | 1. Pedagogik jarayonni loyihalash tushunchasiga ta'rif bering, uning maqsadi, mohiyatini ochib bering.<br>2. Pedagogik vazifalar nimadan kelib chiqib tuziladi?<br>2. Pedagogik vazifalarning to'g'ri aniqlanishininig ahamiyatini baholang.<br>3. Tashxis tushunchasining ma'nosi nima?<br>4. Pedagogik tashxisning o'ziga xosligi, maqsadi.<br>5. Pedagogik tashxis turlarini sanab bering.<br>6. Nima uchun o'qituvchi ta'lim natijalarini oldindan ko'ra bilishi lozim?<br>7. Oldindan ko'ra bilish nimada namoyon bo'ladi? |
| 2. | Loyihalash qonuniyatlari, loyihalash tamoyillari, pedagogik faoliyat mazmuni, texnologiyalashtirish bosqichlari | 1. O'quv ma'lumotlarni loyihalash nima uchun muhim?<br>2. Ta'lim mazmuniga qanday talablar qo'yiladi?<br>3. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish bosqichlarini sanab bering.<br>4. Ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlarini sanab bering va mazmun, mohiyatini ochib bering.<br>5. Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvning tarkibiy qismlarini sanab bering, ularning ahamiyatini asoslab bering. |

| | | |
|---|---|---|
| 3. | Texnologik yondashuv-ning tar-kibiy qism-lari, loyihalash strategiyasi, • chiziqli strategiya | 1. Ta'lim jarayonini loyihalash tamoyillarini sanab bering.<br>2. Har bir tamoyilning mazmun, mohiyatini ochib bering.<br>3. Muayyan o'quv mashg'uloti jarayonining loyi-hasini ishlab chiqish bosqichlarini sanab bering.<br>4. Har bir bosqichning maqsadini ko'rsating, ularni amalga oshirishda muhim omillarni aniqlang.<br>5. Loyihalash strategiyasi ta'rifini keltiring.<br>6. Loyihalash strategiyalari turlarini sanab bering va ularning o'ziga xosligini aniqlang.<br>7. Muayyan o'quv mashg'uloti loyihasini ishlab chiqing. |
| 4. | Uzluksiz ta'lim, o'quv mash-g'ulotining loyihasi, katta mo-dul, o'rta modul va kichik modul | 1. Uzluksiz ta'lim deganda nimani tushunasiz?<br>2. O'quv mashg'ulotining loyihasi bilan dars loyi-hasining farqi bormi?<br>3. O'quv mashg'ulotining loyihasi bo'yicha anda-zani keltirib bering.<br>4. Mutaxassislik bo'yicha o'qitiladigan fanning o'quv mashg'ulotlari loyihasini tuzish uchun nima qilish kerak?<br>5. Katta modul, o'rta modul va kichik modullar qanday tuziladi? |

## 1.4. Nazorat savollari asosida tuzilgan test

*5.1.4-jadval*

| T/r | Savollar | Mumkin bo'lgan javoblar | |
|---|---|---|---|
| 1. | Pedagogik ja-rayonni loyi-halash tushun-chasiga to'g'ri ta'rif qaysi qa-torda berilgan? | 1 | Loyihaviy ta'lim texnologiyasi strategiya-sini yaratish. |
| | | 2 | Ta'lim jarayonini pedagogik-psixologik qonuniyatlarga asoslanib tashkillashtirish. |
| | | 3 | Pedagogik faoliyatning umumiy mohiyati-ni yaxlit ifodalashga xizmat qiluvchi loyi-hani yaratish. |
| | | 4 | Pedagogik texnologiyaning amaldagi ko'-rinishi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2. | Loyiha nima? | 1 | Amalga oshishi faraz qilinayotgan bo'lajak hodisa obrazi. |
| | | 2 | Biror-bir predmet maketi. |
| | | 3 | Faoliyat davomida yakunlanmagan mahsulot. |
| | | 4 | Insonlar hamkorligida yasalgan obyekt. |
| 3. | Mashg'ulot loyihasi ko'pincha qanday ko'rinishda ifodalanadi? | 1 | Konspekt. |
| | | 2 | Reja. |
| | | 3 | Dastur. |
| | | 4 | Kengaytirilgan texnologik xarita. |
| 4. | Pedagogik tashxis tushunchasi ta'rifi qaysi qatorda to'g'ri berilgan? | 1 | Tahsil oluvchilar faoliyatini tashkillashtirish. |
| | | 2 | Ta'lim jarayoni maqsadlarini belgilash. |
| | | 3 | Pedagogik jarayonni yaxlit tekshirish orqali baholash. |
| | | 4 | Ta'lim vositalarini tahsil oluvchilarning qobiliyatlarini inobatga olgan holda tanlash. |
| 5. | Pedagogik tashxis nima maqsadda o'tkaziladi? | 1 | Tahsil oluvchilar BKMsi darajasini aniqlash. |
| | | 2 | Ta'lim jarayonini samarali loyihalash. |
| | | 3 | Tahsil oluvchilar jamoasida maqbul psixologik muhitni shakllantirish. |
| | | 4 | Ta'lim maqsadlarini aniqlash. |
| 6. | Ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlarining qaysi biri PTning boshqaruv elementlari bilan bevosita bog'liq? | 1 | TJ ni loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlarning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi asosida ta'minlanadi. |
| | | 2 | Loyihalash sifati teskari aloqa ko'lamiga bog'liq. |
| | | 3 | Ta'limning texnologik vositalari tahsil oluvchilarning individual uslubiga muvofiq tanlanadi. |
| | | 4 | Loyihalash strategiyalari o'qituvchining individual uslubiga muvofiq tanlanadi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 7. | Quyida berilgan ta'riflarning qaysi biri TJga texnologik yondashuvning boshqarish elementini yoritadi? | 1 | O'qituvchi faoliyatini tahsil oluvchi faoliyatining aniq modellariga muvofiq amalga oshirish. |
| | | 2 | Faoliyat modellari ko'rinishida ifodalangan ta'lim mazmunining tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirish jarayoni. |
| | | 3 | Ta'lim berish, tarbiyalash va rivojlantirishni ta'minlovchi ma'naviy va moddiy vositalar. |
| | | 4 | Me'yoriy hujjatlar to'plami va TJ loyihasi. |
| 8. | Ta'lim jarayonini loyihalashning qaysi tamoyili subyektning o'ziga, shaxsiy faoliyatiga va bilimiga baho berishni tavsiflaydi? | 1 | Markazlashtirish tamoyili. |
| | | 2 | Tahsil oluvchini ta'lim jarayoniga moslashtirish tamoyili. |
| | | 3 | Refleksivlik tamoyili. |
| | | 4 | Ta'lim jarayonida tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv tamoyili. |
| 9. | Loyihalash strategiyasi tushunchasi ta'rifi qaysi qatorda to'g'ri berilgan? | 1 | Pedagogik vazifalarni to'liq bajarilishini ta'minlovchi yo'l. |
| | | 2 | Pedagogik maqsadlarni pedagogik natijalarga aylantirish jarayoni. |
| | | 3 | Pedagogik maqsadga erishish uchun tahsil oluvchilarning psixologik xususiyatlari va bilish darajalarini inobatga olish. |
| | | 4 | Rejalashtirilgan faoliyatning texnik vazifalarga muvofiq muayyan ketma-ketlikda amalga oshirish tizimi. |
| 10 | Quyida strategiyalarning qaysi turi ta'riflangan: «... bosqichlarni ketma-ket qaytmasdan bajarilishini anglatadi». | 1 | Chiziqli. |
| | | 2 | Davriy. |
| | | 3 | O'zgartirish. |
| | | 4 | Moslashtirish. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 11 | O'quv ma'lumotlarini loyihalash nima uchun muhim? | 1 | O'quv ma'lumotlari tahsil oluvchi shaxsini rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri. |
| | | 2 | O'quv ma'lumotlari miqdori ko'pligi ularni tartiblash, asosiylarini ajratib olishni talab qiladi. |
| | | 3 | Ta'lim mazmuniga faqat ilmiy faktlarmigina kiritish mumkin. |
| | | 4 | Ta'lim mazmuni ta'lim maqsadini belgilaydi. |

## 1.5. Dars turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar

*5.1.5-jadval*

| | |
|---|---|
| O'quv mashg'ulotining shakli | Muammoli ma'ruza mashg'uloti. |
| Ta'lim usullari | Qiyosiy tahlil, muammoli ma'ruza, munozara. |
| Ta'lim vositalari | Ishlab chiqarishda va ta'limda loyihalashtirish – topshiriq doskada (jadval) beriladi, test. |
| Ta'lim shakllari | Ommaviy, jamoaviy. |
| O'qitish sharoitlari | Multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash | Talabalarning jadvalni to'ldirish jarayonidagi ishtiroki, munozaralarda qatnashuvi, test natijalari. |

## 1.6. Kichik modullarning pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot-kommunikatsion texnologiyalar va didaktik materiallar

*5.1.6-jadval*

| Ish Bosqichlari va vaqti | O'quv jarayoni | |
|---|---|---|
| | ta'lim beruvchi | ta'lim oluvchilar |
| 1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.) | 1.1. Mavzuning nomi, maqsadi va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot muammoli ta'lim texnologiyasi asosida tashkillashtirilishini, uning bosqichlarini ma'lum qiladi.<br>1.2. Talabalarni faollashtirish va mavzuga yo'naltirish uchun ularning jamoaviy faoliyatini qiyosiy tahlil usuli asosida tashkillashtiradi (1.6.1-ilova). | 1.1. Tinglaydilar, aniqlashtiruvchi savollar berishlari mumkin.<br>1.2. Qiyosiy tahlilni amalga oshiradilar. |
| 2-bosqich Asosiy (60 daq.) | 2.1. Talabalar oldiga muammoli savol qo'yadi: *Ta'lim jarayonini loyihalashtirish o'qituvchilarga nima beradi?* Savol yuzasidan munozara uyushtiradi, kichik muammolarni shakllantirish bo'yicha talabalar faoliyatini tashkillashtiradi.<br>*Pedagogik loyihalash o'zi nima? Pedagogik loyihalash tartibi qanday? U ishlab chiqarishdagi loyihalashdan nimasi bilan farqlanadi? Pedagogik jarayoni loyihalash uchun o'qituvchida qanday maxsus bilim, ko'nikma, malakalar bo'lishi shart?* | 2.1. Muammoli savolga javob topishga harakat qiladilar.<br>Asosiy muammoni yechish uchun hal qilinishi zarur bo'lgan kichik muammolar doirasini aniqlashda ishtirok etadilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | 2.2. Birinchi kichik muammo deb belgilangan «Pedagogik loyihalash o'zi nima?» savoliga javob topishga qaratilgan faoliyatni tashkillashtiradi:<br>birinchi kichik modul mazmunini yorituvchi slaydlar namoyish qilib, ma'ruza qiladi (qo'llanmaning tegishli mavzu matni qismi);<br>birinchi kichik modul bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash, nazoratni amalga oshirish maqsadida test o'tkazadi («Nazorat savollari asosida tuzilgan test» qismi) va test kalitini taqdim qilib, talabalarga o'z bilimlarini tekshirishi uchun sharoit yaratadi;<br>yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashtiradi va ularni to'g'irlash bo'yicha faoliyatni tashkillashtiradi: tetsni to'g'ri yechgan talabalarga so'z beradi, zarur holatda o'zi qaytadan ma'lumotni tushuntiradi;<br>birinchi kichik muammo yechimini aniqlashtirishga qaratilgan talabalar faoliyatini tashkillashtiradi. | 2.2. Birinchi kichik muammoni yechishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradilar:<br>axborotni tinglaydilar, muhim ma'lumotlarni yozib boradilar;<br>test yechadilar, test kaliti yordamida o'z-o'zlarini nazorat qiladilar, xatolar ustida ishlash jarayonida qatnashadilar;<br>birinchi kichik muammo yuzasidan munozara qiladilar va uning yechimini shakllantiradilar. |
| | 2.3. Ikkinchi kichik muammo deb belgilangan «Pedagogik loyihalash tartibi qanday? U ishlab chiqarishdagi loyihalashdan nimasi bilan farqlanadi?» savoliga javob topishga qaratilgan faoliyatni tashkillashtiradi: | 2.3. Ikkinchi kichik muammoni yechishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradilar: |

| | | |
|---|---|---|
| | ikkinchi kichik modul mazmunini yorituvchi slaydlar namoyish qilib, ma'ruza qiladi (qo'llanmaning tegishli mavzu matni qismi);<br>ikkinchi kichik modul bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash, nazoratni amalga oshirish maqsadida test o'tkazadi (qo'llanmaning tegishli mavzu bo'yicha «Nazorat savollari asosida tuzilgan test» qismi) va test kalitini taqdim qilib, talabalarga o'z bilimlarini tekshirishi uchun sharoit yaratadi;<br>yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashtiradi va ularni to'g'rilash bo'yicha faoliyatni tashkillashtiradi; tetsni to'g'ri yechgan talabalarga so'z beradi, zarur holatda o'zi qaytadan ma'lumotni tushuntiradi;<br>ikkinchi kichik muammo yechimini aniqlashtirishga qaratilgan talabalar faoliyatini tashkillashtiradi. | axborotni tinglaydilar, muhim ma'lumotlarni yozib boradilar;<br>test yechadilar, test kaliti yordamida o'z-o'zlarini nazorat qiladilar, xatolar ustida ishlash jarayonida qatnashadilar;<br>ikkinchi kichik muammo yuzasidan munozara qiladilar va uning yechimini shakllantiradilar. |
| | 2.4. Uchinchi kichik muammo deb belgilangan «Pedagogik jarayoni loyihalash uchun o'qituvchida qanday maxsus bilim, ko'nikma va malakalar bo'lishi shart?» savoliga javob topishga qaratilgan faoliyatni tashkillashtiradi:<br>uchinchi, to'rtinchi kichik modullar mazmunini yorituvchi slaydlar namoyish qilib, ma'ruza qiladi (qo'llanmaning tegishli mavzu matni qismi); | 2.4. Uchinchi kichik muammoni yechishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradilar:<br>axborotni tinglaydilar, muhim ma'lumotlarni yozib boradilar; |

| | | |
|---|---|---|
| | birinchi kichik modul bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash, nazoratni amalga oshirish maqsadida test o'tkazadi (qo'llanmaning tegishli mavzu bo'yicha «Nazorat savollari asosida tuzilgan test» qismi) va test kalitini taqdim qilib, talabalarga o'z bilimlarini tekshirishi uchun sharoit yaratadi;<br>yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashtiradi va ularni to'g'irlash bo'yicha faoliyatni tashkillashtiradi: tetsni to'g'ri yechgan talabalarga so'z beradi, zarur holatda o'zi qaytadan ma'lumotni tushuntiradi;<br>ikkinchi kichik muammo yechimini aniqlashtirishga qaratilgan talabalar faoliyatini tashkillashtiradi. | test yechadilar, test kaliti yordamida o'z-o'zlarini nazorat qiladilar, xatolar ustida ishlash jarayonida qatnashadilar;<br>ikkinchi kichik muammo yuzasidan munozara qiladilar va uning yechimini shakllantiradilar. |
| 3-bosqich. Yakuniy (15 daq.) | 3.1. Asosiy muammo deb belgilangan «Ta'lim jarayonini loyihalashtirish o'qituvchilarga nima beradi?» savoliga javob topishga qaratilgan faoliyatni baxsli munozara usulida tashkillashtiradi. Talabalar bergan fikrlarni doskaga yozib boradi va har bir fikr yuzasidan munozara uyushtiradi.<br>3.2. Talabalarga mavzu bo'yicha berilgan mustaqil ta'lim topshirig'ini tushuntiradi. | 3.1. Asosiy muammoni yechimi yuzasidan o'z fikrlarini bildiradilar, asoslaydilar, bahslashadilar.<br>3.2. Mustaqil ta'lim topshirig'ini aniqlashtiradilar. |

**Ishlab chiqarishda va ta'limda loyihalashtirish**

| | Maqsad | Subyekt | Obyekt | Vosita | Usul | Natija | Tashkiliy jihatlari |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Ta'limda | | | | | | | |
| Ishlab chiqarishda | | | | | | | |

## 1.7. O'rta modulning mazmunini ifoda etuvchi matn ssenariysi

### Birinchi kichik modul

Loyihalash pedagogik jarayonni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim shartlardan biridir. Pedagogik jarayonni loyihalashda:

- pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;
- natijalarni oldindan ko'ra bilish;
- rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish

kabi vazifalar bajariladi.

Pedagogik jarayonni loyihalash – loyiha-mazmun-faoliyat uchligi asosida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatning umumiy mohiyatini yaxlit ifodalashga xizmat qiluvchi loyihani yaratishdir.

Pedagogik vaziyatni to'laqonli anglash hamda vazifalarning aniq va to'g'ri belgilanishi pedagogik jarayonni samarali hal etishning muhim shartidir.

Pedagogik maqsad pedagogik jarayonni tashkil etishga tayyorlanish bosqichida pedagogik vazifa sifatida qabul qilinadi. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati turli vazifalar mohiyatining bir yo'la yoki birin-ketin anglanishiga bog'liq. Pedagogik faoliyat uchun umumiy bo'lgan vazifalarni belgilab olish muhimdir. So'ngra pedagogik jarayonning ma'lum bosqichi mohiyatini aniq ifodalaydigan

bosqichli vazifalar (alohida olingan bosqich vazifalari)ni, nihoyat, xususiy (vaziyatli) pedagogik vazifalarni aniq belgilab olish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik jarayonni loyihalashtirishda vazifalarning belgilanishi:

*1-qadam* – umumiy pedagogik vazifalar (pedagogik jarayon xususiyatlarini yaxlit holda inobatga olish asosida belgilanuvchi);

*2-qadam* – bosqichli pedagogik vazifalar (ma'lum bosqich xususiyatlarini inobatga olgan holda belgilanuvchi);

*3-qadam* – vaziyatli pedagogik vazifalar (muayyan vaziyatlarni inobatga olgan holda belgilanuvchi).

Pedagogik vazifani anglash mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish va tashxis qo'yish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik tashxis – pedagogik jarayonni uning umumiy holati, shuningdek, tarkibiy qismlarini har tomonlama, yaxlit tekshirish orqali baholashdir.

Pedagogik tashxis:

1. Tezkor tashxis – tahsil oluvchi yoki tahsil oluvchilar jamoasining ruhiy holatini, shuningdek, ularning og'zaki va yozma javoblarini tahlil qilishdan iborat.

2. Davomli tashxis – o'quv jarayonining umumiy holati, tahsil oluvchilar hulqidagi kamchiliklar, tahsil oluvchilar jamoasi yoki alohida tahsil oluvchining individual xususiyatlari va o'quv faoliyatining mazmunini o'rganishdir.

Pedagogik tashxis oldindan ko'ra bilish, obyekt haqidagi ma'lumotlarni oldindan o'rganish jarayoni sanaladi. Bunda obyekt sifatida sinf, tahsil oluvchi, bilim, munosabat va hokazolar tanlanadi.

**Oldindan ko'ra bilish turlari, yo'nalishiga ko'ra:**

**1. Izlanuvchan oldindan ko'ra bilish** – *obyektning kelgusi holati, uning rivojlanishi va unga nisbatan tashqi omillarning ta'sirini aniqlashga yo'naltiriladi.*

**2. Me'yoriy oldindan ko'ra bilish** – *muayyan obyektning o'zgarishini hisobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishning samarali yo'llarini izlab topishni nazarda tutadi.*

Pedagogik vazifalarning turi va ularning vaqt bo'yicha taqsimotiga ko'ra strategik, taktik, tezkor bo'ladi.

Pedagogik jarayonni loyihalash bosqichida pedagog duch keladigan birinchi muammo – bu pedagogik faoliyat mazmunini loyihalash sanaladi.

O'quv dasturi yoki tahsil oluvchi shaxsi ta'lim mazmunini loyihalashning asosi bo'lib, bu vaziyatda o'qituvchi pedagogik faoliyat, maqsad va sharoitlarga muvofiq holda tahsil oluvchilarga nimani taqdim etish xususida mustaqil qaror qabul qiladi. Qaror qabul qilish jarayonida quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

– tahsil oluvchilar tavsiya etilayotgan ma'lumotdan nimani va qanday hajmda o'zlashtirishlari zarurligi;

– tahsil oluvchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasi, ularning o'quv ma'lumotlarini qabul qilish imkoniyatlari;

– o'qituvchining shaxsiy, shuningdek, ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi.

**O'quv ma'lumotlarini loyihalash texnologiyasi** muhim o'rin tutadi. Unda:

1) tahsil oluvchilarga taqdim etiladigan materiallar;

2) tahsil oluvchilarga mustaqil bajarish uchun beriladigan vazifalar;

3) tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan ma'lumot (bilim) turlari (N.V.Kuzmina) o'z aksini topadi.

Ta'lim mazmuni ilmiylik va amaliy ahamiyat talablarini to'ldirishi, o'quv jarayoniga ajratilgan vaqtga muvofiq tashkil etilishi, shuningdek, ta'lim mazmuni va uning tahsil oluvchilar tomonidan qabul qilinish darajasining o'zaro mosligi inobatga olinadi. Shu bois vaziyatning murakkabligi, o'quv fani asoslarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llari avvaldan aniqlab olinishi shart.

## Ikkinchi kichik modul

Pedagogik texnolgiya g'oyasi bizning hududga, davlatimiz mustaqillikka erishganidan keyin, xorijiy mamlakatlardan turli nom-

lar bilan kirib kela boshladi. Uning nazariy asoslarini to'la bo'lmasa ham, ifoda etuvchi o'zbek tilidagi bir qator asarlar ham paydo bo'ldi. Pedagogik texnologiyaning o'ziga yarasha nazariy asoslari shakllanib, ba'zilar uni alohida fan sifatida o'qitilishi kerak degan fikrni ham bildirmoqdalar. **Bizning fikrimizcha, «pedagogik texnologiya» pedagogikaning «metodika» degan bo'limining ajralmas qismi bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishning texnologiyalashgan usuli(metodi)dir.** Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o'quv jarayonining loyihasi bir marotaba to'g'ri tuzilsa, undan bir necha yil mobaynida har qanday oddiy, kasbga endi kirib kelayotgan pedagog ham qiynalmay o'quv mashg'ulotini **yuqori darajada** amalga oshira oladi. Chunki pedagogik texnologiya asosida tuzilgan loyihaga uni tuzgan olim yoki tajribali medodistning mahorati o'tgan bo'ladi. Shuning uchun o'quv mashg'ulotlarining loyihalari pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini yaxshi bilgan, tajribaga ega hamda mahoratli pedagoglar yohud pedagog olimlar tomonidan tuziladi.

PT o'zining ilmiy asoslangan ravon tamoyillarilariga suyanadi. Ular quyidagilardir:

**Birinchi tamoyil.** Ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashda va bu loyihalarni amaliyotda qo'llashda, albatta, sinergetikaning «majmuiy yondashuv» tamoyiliga va uning qonun-qoidalariga doimo amal qilinadi.

**Ikkinchi tamoyil.** Ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashda va shu loyiha bo'yicha ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda, didaktikaning barcha tamoyillari (prinsip) va qonun-qoidalaridan kelib chiqiladi.

**Uchinchi tamoyil.** Ta'lim-tarbiya jarayonining loyihasi tuzilganda, bu jarayonda ishtirok etadigan barcha elementlarni – «maqsad va maqsadchalar», ularga ajratilgan «vaqt», «bilimlar tizimi va ular ichidagi tayanch tushunchalar», «dars turi va tipi», «pedagogik uslublar», «axborot texnologiyalar» va «didaktik materiallar»ni o'zaro uzviy bog'liqlikda ko'rib, har birini qo'llash joylari va yo'llari aniqlanib, o'quv mashg'ulotining loyihasiga belgilab qo'yiladi.

**To'rtinchi tamoyil.** Ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashda va uni amalda qo'llashda, talabalar egallashi shart bo'lgan bilimlarni mustaqil ravishda topishga urg'u beriladi.

**Beshinchi tamoyil.** Loyiha asosida o'quv mashg'ulotlarini amalga oshirish jarayonida berilayotgan bilimlarni talabalar anglashlari, xotirasida saqlashlari va amaliyotda qo'llay olishlarini bir vaqtning o'zida olib borishlikka erishiladi.

**Oltinchi tamoyil.** Maqsadlarning natijalari fe'llar shaklida bo'lib, buning uchun muayyan o'quv mashg'ulotida ishlatiladigan fe'llarning tizimi ishlab chiqiladi.

**Yettinchi tamoyil.** O'quv mashg'ulotlarining yakunida, shu mashg'ulotda qabul qilingan baholash tur va mezonlaridan kelib chiqqan holda, barcha talabalarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi aniqlanadi.

## Uchinchi kichik modul

Muayyan o'quv mashg'uloti jarayonining loyihasini ishlab chiqish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. O'quv fanini bir butun deb qarab, «makro modul» deb qabul qilib, unda beriladigan materiallarning hajmi va mazmunidan kelib chiqib, «katta», «o'rta» va «kichik» modullarga ajratiladi, so'ng, ularning maqsad va maqsadchalari hamda ularga ajratilgan vaqt belgilanadi.
2. Har bir kichik modul yordamida beriladigan bilimlar tizimi ichidan tayanch tushunchalar ajratiladi.
3. Tayanch tushunchalar asosida nazorat savollari tuzilib, talabalar bilim va ko'nikmalarini baholash tur va mezonlari belgilanadi.
4. O'quv mashg'ulotlarining har bir kichik modulida qo'llaniladigan dars turi va tipi aniqlanib olinadi.
5. Har bir kichik modulda qo'llaniladigan pedagogik uslublar aniqlanib, joylari topib qo'yiladi.

6. O'quv muassasasida mavjud axborot texnologiyalardan hamda har bir kichik moduldagi o'quv mashg'ulotining xarakteridan kelib chiqib, o'quv mashg'ulotini amalga oshirishda foydalaniladigan axborot texnologiyalarning qo'llanish joylari belgilanadi.

7. O'quv mashg'uloti jarayonida har bir kichik modulda foydalaniladigan didaktik materiallarnng turi va joyi aniqlanadi.

8. O'rta modul mazmuni va o'qitish jarayonining borishini ifoda etuvchi o'quv mashg'uloti ssenariysi yoziladi.

**Ta'lim jarayonini loyihalash strategiyasi.**

**Loyihalash strategiyasi** – loyihachi tomonidan rejalashtirilgan faoliyatning texnik vazifalariga muvofiq muayyan ketma-ketlikda amalga oshirish tizimidir.

**Loyihalash strategiyalari:** chiziqli, davriy, o'zgartirish, tarmoqlangan, moslashtirish va tasodifiy izlanish strategiyalari.

Loyihalashning **chiziqli strategiyasi** 1-bosqich, 2-bosqich va hokazo bosqichlardan iborat bo'lib, harakatlarning birinchidan to o'n beshinchigacha ketma-ket, qaytmasdan bajarilishini anglatadi. Strategiya o'qituvchi tomonidan faoliyatni muayyan ketma-ketlikda amalga oshirish rejalashtirilganda (jumladan, o'quv jarayonini turli shaklda tashkil etish variantlari puxta o'ylanmasdan qulay standart vositalar qo'llanilsa) qo'llaniladi. Bu strategiyaning umumiy mohiyati quyidagicha:

– mavzuga oid ma'lumotlar tizimini aniqlash;

– to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish – tahlil natijalari (o'quv materiallari);

– o'quv materiali mazmunini saralash;

– mazmunni modellashtirish – o'zlashtirish faoliyati modeli;

– ta'lim texnik vositalarini tanlash;

– shaxsga oid texnologiyalarni belgilash – ta'limning samarali vositalari;

– boshqaruv uslubini belgilash;

– ta'lim vositalaridan foydalanish uslubini aniqlash – o'qituvchi faoliyatining mazmuni;

– ta'lim metodlarini tanlash;

– metodlardan foydalanish imkoniyatini aniqlash – vositalar tizimi;

– nazariy tajriba;

– loyihani rasmiylashtirish.

## To'rtinchi kichik modul

Pedagogik texnologiyaning mazmun va mohiyati yanada hammaga ayonroq bo'lishi uchun «Pedagogika» fanining bir o'quv mashg'ulotining loyihasini misol tariqasida keltiramiz.

Bunda «Pedagogika» fanini bir butunlik deb hisoblab, uni bitta makro modul deb olindi. Dastur bo'yicha fan ichida berilishi shart bo'lgan to'rtta yirik mavzu (qism)larni katta modullar sifatida ko'rildi. Katta modullar ichidagi mavzucha (paragraf)larni o'rta modul deb olib, har bir o'rta modulni ular ichida bajariladigan vazifalar, beriladigan bilimlar hajmi va mazmuniga qarab, beshta kichik modullarga ajratdik. **Natijada, uzluksiz ta'lim jarayonida o'qitiladigan «Pedagogika» o'quv fanining bitta o'quv mashg'ulotining loyihasini tuzish tajribasi vujudga keldi.** Shu bilan, o'zini pedagog deb hisoblagan va o'quv xonasidagi talabalarni o'ziga qarata oladigan har qanday o'qituvchiga, darsni kamida **«yaxshi» yoki «a'lo» darajada o'ta olish kafolati yaratildi.** Bunday loyihalar asosida dars o'tganda, «**dars ma'lum sabablarga binoan qoniqarsiz bo'ldi**», «**o'quv mashg'uloti yakunida ko'zlangan maqsadlarga erishilmadi**», «**darsni o'qituvchi noto'g'ri o'tdi**», «**o'quv mashg'uloti o'rtacha amalga oshirildi**» va hokazo degan so'zlarga o'rin qolmaydi.

**Pedagogika fanidagi birinchi katta modul tarkibidagi birinchi o'rta modul, ya'ni bir dars loyihasi**

*5.1.7-jadval*

(1)

| T/r | Kichik modullar oldiga qo'yilgan maqsad |
|---|---|
| 1 | Talabalar bilan tanishib, «pedagogika» tushunchasi va bu fanni o'rganish jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalarni talabalarga yozdirib, ularni yangi fan bilimlarini egallashga tayyorlash. |
| 2 | Talabalarga pedagoglik kasbining shakllanish tarixini umumiy tarzda, uning taraqqiyot bosqichlarini va ularning ishlab chiqarish kuchlari bilan bog'liqligini aytib, chizmada ko'rsatish. |
| 3 | Talabalarga, inson qo'sh mohiyatga, biologik mohiyat barobarida ijtimoiy mohiyatga ham ega ekanligini, uning zamonaviy ilmiy atamasi «bioijtimoiy mavjudot» ekanini bildirish hamda ijtimoiy mohiyatini bilim tashkil qilishligini, bu bilimlarni u atrof-muhitdan, ota-onasi, ommaviy axborot vositalari va uzluksiz ta'lim tizimi orqali egallashini tushuntirish, shuningdek, bular ichida ta'lim tizimi yetakchilik qilishini, bu ish bilan esa, o'qituvchilar shug'ullanishlarini aytib, ularda pedagoglik kasbiga mehr uyg'otish. |
| 4 | Birinchi dars, talabalarda chuqur iz qoldirishi munosabati bilan, yuqorida berilgan bilimlarning talabalar bir necha bor qaytarib aytib, chizmada ko'rsatib, ko'nikma darajasiga aylantirib olishlariga erishish. |
| 5 | Talabalar bilimini aniqlash uchun test sinovini o'tkazish va dars yuzasidan uyga vazifa berib, uni bajarish yo'llari bilan ularni tanishtirish. |

## O'rta modul oldiga qo'yilgan umumiy maqsad

| |
|---|
| Pedagoglik kasbi shakllanishining tarixiy bosqichlarini, insonning ilmiy atamasi «bioijtimoiy mavjudot» ekanini va ijtimoiy mohiyatini bilim tashkil qilib, bu bilimlarni maqsadga yo'naltirilgan reja va ilmiy asoslangan dastur asosida yosh avlodga beruvchi inson faoliyat sohasini pedagogika deyilishini talabalarga tushuntirib, ularni chizmalarda ko'rsatib, ularda bu bilimlar mohiyatini aytib, chizib ko'rsatib berish ko'nikmasini shakllantirish. |

(2)

| T/r | Tayanch tushunchalar | Nazorat savollari |
|---|---|---|
| 1 | Pedagogika; «qaytarish – bilim egallashning onasidir»; «diqqat bilimga kirish eshigidir»; «tartib – har bir ish muvaffaqiyatining garovi». | 1) «Pedagogika» atamasi nimani anglatadi?<br>2) Egallagan bilimingizni qaytaraversangiz nima bo'ladi?<br>3) Diqqat nima?<br>4) Tartib deganda nimani tushunamiz? |
| 2 | Ibtidoiy davrdagi ta'lim-tarbiya; quldorlik davridagi ta'lim; feodalizm davrining ta'limi; industriyalashgan jamiyat ta'lim va tarbiya tizimi. | 1) Ibtidoiy davrda ta'lim-tarbiya qanday bo'lgan?<br>2) Bolalarni guruh-guruh qilib o'qitishga nima sabab bo'lgan?<br>3) Feodalizmda bolalarga nima o'qitilgan?<br>4) Rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimida nimalar o'qitiladi? |
| 3 | «Homasapiens»; «Bioijtimoiy», ijtimoiy mohiyat; bilim; ijtimoiy muhit; uzluksiz-rasmiy ta'lim; ommaviy axborot vositalari; o'qituvchi; pedagog. | 1) Bioijtimoiy tushunchasi nimani anglatadi?<br>2) «Homasapiens» bilan bioijtimoiy tushunchalari orasidagi farq nimada?<br>3) Ijtimoiy mohiyat asosini nima tashkil qiladi?<br>4) Bilim degan tushuncha nimani bildiradi?<br>5) Ijtimoiy muhit nima?<br>6) Uzluksiz-rasmiy ta'lim-tarbiya tizimi qanday?<br>7) Inson ijtimoiy mohiyatining shakllanishiga nimalar ta'sir ko'rsatadi? |

## Test sinov varag'i

| T/r | Savollar | | Mumkin bo'lgan javoblar |
|---|---|---|---|
| 1 | Pedagogika atamasi nimani anglatadi? | A | Ta'lim berishni |
| | | B | Tarbiya berishni |
| | | D | Bola yetaklashni |
| 2 | Egallagan bilimlarni qaytaraversa nima bo'ladi? | A | Esdan chiqib ketadi |
| | | B | Yaxshiroq bilib olinadi |
| | | D | Ko'nikmaga aylanadi |
| 3 | Diqqat qilish deganda nima tushuniladi? | A | Tinch o'tirish |
| | | B | Fikrni jamlash |
| | | D | Quloq solish |
| 4 | Ibtidoiy davrda ta'lim qanday bo'lgan? | A | Individual bo'lgan |
| | | B | Yaxshi bo'lgan |
| | | D | Yomon bo'lgan |
| 5 | Bolalarni to'plab o'qitishga nima sabab bo'lgan? | A | Mehnatni taqsimlash |
| | | B | O'qituvchi etishmagan |
| | | D | Individual o'qitishga odamlarning puli bo'lmagan |
| 6 | Bioijtimoiy tushunchasi nimani anglatadi? | A | Madaniylashgan hayvonni |
| | | B | Insonni |
| | | D | Maymunni |
| 7 | Ijtimoiy mohiyat asosini nima tashkil qiladi? | A | Madaniyat |
| | | B | Ma'rifat |
| | | D | Bilim, madaniyat, ma'rifat |
| 8 | Ijtimoiy muhit nima? | A | Tabiiy muhitning ziddi |
| | | B | Odamlar munosabatlarining hosilasi |
| | | D | Sun'iy narsalar majmuyi |
| 9 | Rasmiy ta'lim qanday ta'lim? | A | Zo'rlashga asoslangan ta'lim |
| | | B | Davlat tomonidan tashkil etilgan ta'lim |
| | | D | Yaxshi ta'lim |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 10 | Bilim nima? | A | Axborot |
| | | B | Qonuniyat |
| | | D | Ma'lumot |
| 11 | Kishi ijtimoiy mohiyatining shakllanishiga nima ta'sir ko'rsatadi? | A | Rasmiy ta'lim va ommaviy axborot vositalari |
| | | B | Ijtimoiy va tabiiy muhit |
| | | D | Oila va yuqoridagilar |

3

| T/r | Dars turi va tipi |
|---|---|
| 1 | Aralash dars; yangi bilimlarni egallash |
| 2 | Aralash dars; yangi bilimlarni egallash |
| 3 | Aralash dars; yangi bilimlarni egallash |
| 4 | Aralash dars; egallangan bilimni ko'nikmaga aylantirish |

4

| T/r | Qo'llaniladigan pedagogik uslublar |
|---|---|
| 1 | Tushuntirish |
| 2 | Aytib berish; illustratsiya |
| 3 | Muammoli bayon; illustratsiya |
| 4 | Reproduktiv |

5

| T/r | Axborot texnologiyalar |
|---|---|
| 1 | O'qituvchi kasbi to'g'risida kinolavha |
| 2 | Eski va hozirgi zamon maktabini ifoda etuvchi kinolavha |
| 3 | Kodoskop yoki kompyuter |
| 4 | Kodoskop yoki kompyuter |

(6)

| T/r | Didaktik materiallar |
|---|---|
| 1 | Ishlab chiqarish kuchlari va ta'lim-tarbiyani ifoda etuvchi 2-rasm |
| 2 | Qo'sh mohiyatli insonni ifoda etuvchi chizma (3-rasm), bilim egallash manbalarini ifoda etuvchi chizma (4-rasm) |
| 3 | 2, 3, 4-rasmlar |

(7)

**O'rta modulning mazmunini ifoda etuvchi matn ssenariysi** (matn ssenariysi o'quv va ilmiy-uslubiy qo'llanma mazmunida berilgan).

## 2. BESHINCHI KATTA MODULNING IKKINCHI O'RTA MODULI (amaliy mashg'ulot) – O'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish

### 2.1. Laboratoriya o'quv mashg'ulotining maqsadi

*5.2.1-jadval*

Talabalarni o'quv mashg'ulotlarini texnologik yondashuv, zamonaviy ta'lim talablaridan kelib chiqib samarali loyihalashga o'rgatish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda innovatsion fikrlash ko'nimkalarini rivojlantirish.

### 2.2. Laboratoriya o'quv mashg'ulotining rejasi, turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar

*5.2.2-jadval*

| | |
|---|---|
| Mashg'ulotning rejasi | 1. Ta'lim jarayonini loyihalash bosqichlari.<br>2. Ta'lim jarayonini loyihalash strategiyasi. |
| O'quv mashg'u-lotining shakli | Ijodiylik xususiyatiga ega laboratoriya mashg'uloti. |
| Ta'lim usullari | Ijodiy amaliy ish. |
| Ta'lim vositalari | «O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasini baholash mezonlari» varaqasi, o'quv mash-g'ulotlari loyihalari namunalari – barchasi tarqatma material, o'quv-uslubiy qo'llanma, mutaxassislikka oid dasturlar, darslik va o'quv qo'llanmalar, FYOTV. |
| Ta'lim shakllari | Guruhiy, jamoaviy. |
| O'qitish sharoitlari | Kichik guruhlarda ishlash uchun mo'ljallanan auditoriya. |
| Monitoring va baholash | Ijodiy amaliy ish natijalari. |

## 2.3 Laboratoriya mashg'uloti pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot texnologiyalari va didaktik materiallar hamda faoliyat mazmuni

*5.2.3-jadval*

| Ish bosqichlari va vaqti | O'quv jarayoni | |
|---|---|---|
| | ta'lim beruvchi | ta'lim oluvchilar |
| 1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.) | 1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi.<br><br>1.2. Talabalarga mashg'ulot loyihaviy ta'lim texnologiyasi asosida tashkillashtirilishini ma'lum qiladi va ixtiyoriy kichik guruhlarga bo'linishni taklif qiladi. | 1.1. Tinglaydilar, aniqlashtiruvchi savollar berishlari mumkin.<br>1.2. Kichik guruhlarga bo'linadilar. |
| 2-bosqich Asosiy (65 daq.) | 2.1. Talabalarga ularning mutaxassislik fani bo'yicha bitta mavzu bo'yicha o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasini loyihalash vazifasini beradi (hamma guruhga bitta mavzu – bu faoliyatning qiziqarliroq bo'lishi, sog'lom raqobat muhiti vujudga kelishini ta'minlaydi).<br>Ijodiy ishni tashkillashtiradi va kuzatib boradi:<br>- guruhlarga bittadan ma'ruza mashg'uloti va bittadan amaliy mashg'ulot texnologik xaritasini namuna sifatida tarqatadi; | 2.1. Berilgan topshiriqni guruhlarda bajaradilar:<br>vazifa bilan tanishadilar;<br><br>tarqatma materiallarni o'rganib chiqadilar; vazifani bajaradilar; |

| | | |
|---|---|---|
| | - «O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasini baholash mezonlari» varaqasini tarqatadi (1-ilova).<br>- topshiriqning bajarilishini kuzatib boradi, talabalarga maslahat beradi;<br>- guruhlar ishlarining taqdimoti va ularning muhokamasini tashkillashtiradi;<br>- guruh ishlarini o'zaro taqqoslash faoliyatini boshqaradi;<br><br><br><br><br><br><br><br>- ishlarni baholashni tashkillashtiradi (1-ilova). | <br><br><br><br>taqdimot o'tkazadilar;<br><br><br><br><br><br>loyihalarning o'xshash hamda farqli jihatlarini aniqlaydilar va ularning yutuqlarini umumlashtirib, «ideal» mashg'ulot loyihasini yaratishga harakat qiladilar;<br>raqib guruhlar ishlarini baholaydilar. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 daq.) | 3.1. Refleksiya faoliyatini tashkillashtiradi – talabalarni mashg'ulot natijasida ularda shakllangan bilim, tasavvur, munosabatlarni tahlil qilishga undaydi; bajarilgan vazifalarni murakkablik darajasi nuqtayi nazaridan muhokama qilishlarini tashkillashtiradi. | 3.1. Savollarga javob berib, refleksiyani amalga oshiradilar. |

# VI. OLTINCHI KATTA MODUL –
## *Dasturlashtirilgan va axborot-komunnikatsion ta'lim texnologiyasi*

(1 ta amaliy mashg'ulot va 1 ta ma'ruza modullari)

## 1. OLTINCHI KATTA MODULNING BIRINCHI O'RTA MODULI (amaliy mashg'ulot) – Dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasi mohiyati, chiziqli dastur va tarmoqlashgan dastur

### 1.1. Oltinchi katta modul tarkibidagi birinchi o'rta modulning maqsadi

*6.1.1-jadval*

| |
|---|
| Talabalarga pedagogik jarayonga texnologik yondashuv mohiyatini, bunday yondashuvni ta'minlovchi mexanizmlarni, pedagogik jarayonning asosiy jihatlaridan bo'lgan – ta'lim jarayoni natijasini pedagog mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda kafolatlanishi mumkinligini va pedagogik jarayonni tahsil oluvchilarning to'liq mustaqil ta'limiy faoliyatiga asoslanib tashkil etish yo'llarini o'rgatish, shuningdek, tahsil oluvchida tartiblilik, o'z-o'zini nazorat qilish va obyektiv baholash, ularda diqqatni jamlash, qunt bilan o'qish, tahlil va xulosa qilish ko'nikmalarini shakllantirish va xotiralarini rivojlantirish. |

## 1.2. Kichik modullar nomlari va maqsadlari

*6.1.2-jadval*

| Kichik modullar nomi | Kichik modullarning maqsadlari |
|---|---|
| Dasturlashgan ta'lim texnologiyasining yaratilish omillari | Talabalarga «Dasturlashgan ta'lim texnologiyasi» atamasiga to'g'ri ta'rifni, ushbu ta'lim texnologiyasiga asos solgan olimlarni, dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash uchun zarur bo'lgan didaktik amallarni, dasturlashgan ta'lim texnologisiga asoslangan mashg'ulotni tashkillashtirish uchun o'qituvchi tomonidan bajariladigan ishlarni o'rgatish, shuningdek, an'anaviy ta'lim va dasturlashgan ta'lim texnologiyalarini o'zaro solishtira olishni, ushbu texnologiyalarni qo'llashga oid misollar keltira olishni va ushbu texnologiyaning yutuq va kamchiliklarini to'g'ri ko'rsata olishni o'rgatish. |
| Chiziqli dastur | Talabalarga chiziqli dastur tuzilmasini tushuntirish, maqsad va mohiyatini, chiziqli dasturning yutuqli tomonlari va kamchiliklarini tahlil qila olish ko'nikmasini shakllantirish. |
| Tarmoqlashgan dastur | Talabalarga tarmoqlashgan dastur tuzilmasini, maqsad-mohiyatini va tarmoqlashgan dasturning yutuqli tomonlari hamda kamchiliklarini tahlil qila olishni o'rgatish. |

## 1.3. Tayanch tushunchalar va ular asosida tuzilgan nazorat savollari

*6.1.3-jadval*

| T/r | Tayanch tushunchalar | Nazorat savollari |
|---|---|---|
| 1. | Dasturlashgan ta'lim, BKMsi, dasturlashgan ta'lim mohiyati, dasturlashgan ta'lim tuzilmasi | 1. Ishlab chiqarishda texnologik jarayon samaradorligining asosiy omillarini sanab bering.<br>2. To'g'ri tashkillashtirilgan boshqaruv tizimi tuzilmasini ko'rsating va uni sharhlab bering.<br>3. Ishlab chiqarish jarayoni hamda ta'lim jarayonidagi nazoratni tashkillashtirishni o'zaro taqqoslang va uni to'g'ri tashkillashtirish uchun qanday talablarga rioya qilish kerak?<br>4. «Dasturlashgan ta'lim» nima sababdan shunday nomlangan?<br>5. Dasturlashgan ta'lim samaradorligini ta'minlovchi omil nima? |
| 2. | Chiziqli dastur (CHD), tarmoqlashgan dastur (TD) va dasturlashgan ta'lim xususiyati | 1. Dasturning bir qadami qaysi elementlardan tashkil topadi?<br>2. O'quv dasturlar (CHD va TD) mualliflari kim? CHD va TD ga izoh bering. CHDning kamchiliklarini sanab bering.<br>3. Dasturlashgan ta'limni modulli ta'lim bilan taqqoslang. |
| 3. | Aralash dastur | Aralash dastur deb qanday dasturga aytiladi? |

## 1.4. Nazorat savollari asosida tuzilgan test

*6.1.3-jadval*

| T/r | Savollar | Mumkin bo'lgan javoblar | |
|---|---|---|---|
| 1. | Boshqaruvning qaysi elementi uning samaradorligini kafolatlaydi? | 1 | Boshqaruv uslubi. |
| | | 2 | To'g'ri tashkillangan nazorat. |
| | | 3 | Jazolash mexanizmi. |
| | | 4 | Rag'batlantirish. |
| 2. | Ta'limga texnologik yondashuvda o'qituvchining asosiy funksiyasi nima? | 1 | Ta'lim jarayonini boshqarish. |
| | | 2 | Bilimlarni uzatish. |
| | | 3 | Bilimlarni to'plash. |
| | | 4 | Didaktik sharoit yaratish. |
| 3. | Ta'lim jarayonida nazorat nima maqsadda o'tkazilishi kerak? | 1 | Tahsil oluvchilar BKMsini tekshirish. |
| | | 2 | Tahsil oluvchilarga vazifalar berish. |
| | | 3 | Ta'lim jarayoniga o'zgartirishlar kiritish oqali uning natijalarini ko'tarish. |
| | | 4 | Tahsil oluvchilar BKMsini baholash. |
| 4. | An'anaviy ta'limda qo'llaniladigan ta'lim shakllari tahsil oluvchilarning BKMlari darajasini nazorat qilishda qanday qiyinchilik tug'diradi? | 1 | Tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirishni qiyinlashtiradi. |
| | | 2 | Tahsil oluvchilar faolligini cheklaydi. |
| | | 3 | Adolat tamoyilining buzilishiga olib keladi. |
| | | 4 | Vaqtdan unumli foydalanilmaydi. |
| 5. | Dasturlashgan ta'lim samaradorligini ta'minlovchi omil. | 1 | O'quv mazmunining osonligi. |
| | | 2 | Ko'p vaqt ajratilganligi. |
| | | 3 | Barcha tahsil oluvchilar yakka tartibda ishlashi. |
| | | 4 | O'quv dasturi sifati. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 6. | Nimaga dasturlashgan ta'lim shunday nomlangan? | 1 | Ta'lim mazmuni DTSga mos holda tuziladi. |
| | | 2 | Kompyuter vositasi qo'llaniladi. |
| | | 3 | O'qituvchi yo'riqnoma berib turadi. |
| | | 4 | O'quv faoliyati dastur asosida amalga oshiriladi. |
| 7. | Dasturlashgan ta'lim texnologiyasining keltirilgan tamoyillaridan qaysi biri ta'lim mazmuni bilan bog'liq? | 1 | Qaytuvchan aloqalarning o'rnatilganligi. |
| | | 2 | Jarayonning qadamma-qadam kechishi. |
| | | 3 | Ma'lumotliligi. |
| | | 4 | Ta'limning individuallashtirilganligi. |
| 8. | Nima uchun dasturlashgan ta'lim jarayonida talabaning faolligi ta'minlanishi kerak? | 1 | Bu bilimlarning mustahkamligini ta'minlaydi. |
| | | 2 | Talaba bo'sh qolmasligi kerak. |
| | | 3 | Bu talabada intizomlilikni oshiradi. |
| | | 4 | Tabaqalashtirilgan yondashuvga erishiladi. |
| 9. | Nima maqsadda ma'lumot o'quvchilarga alohida bo'laklarga bo'linib uzatiladi? | 1 | Tahsil oluvchilarni qiziqtirish uchun. |
| | | 2 | Nazoratni to'g'ri tashkillashtirish uchun. |
| | | 3 | Ma'lumotni tushunish va eslab qolish osonlashadi. |
| | | 4 | Tahsil oluvchilarni bo'sh qoldirmaslik uchun. |
| 10. | O'qitish dasturining bir qadami necha qadamdan iborat? | 1 | 2 |
| | | 2 | 4 |
| | | 3 | 3 |
| | | 4 | 5 |
| 11. | Chiziqli dastur (CHD) muallifi kim? | 1 | V.Bespalko |
| | | 2 | B.Blum |
| | | 3 | N.Krauder |
| | | 4 | B.Skinner |

## 1.5. Dars turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar

*6.1.5-jadval*

| | |
|---|---|
| O'quv mashg'u-lotining shakli | Axborotli-amaliy laboratoriya mashg'uloti. |
| Ta'lim usullari | Kompyuterli ta'lim, T-sxema. |
| Ta'lim vositalari | Har bir talabaga alohida kompyuter, o'quv-elektron dastur – «dasturlashgan ta'lim texnologiyasi», FYOTV. |
| Ta'lim shakllari | Yakka tartibda, jamoaviy. |
| O'qitish sharoitlari | Kompyuterlashtirilgan auditoriya. |
| Monitoring va baholash | Test natijalari, talabalarning T-sxemani to'l-dirishdagi ishtiroki. |

## 1.6. Pedagogik jarayonda foydalaniladigan axborot texnologiyalar, didaktik materiallar va faoliyat mazmuni

*6.1.6-jadval*

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **O'quv jarayoni** | |
|---|---|---|
| | **ta'lim beruvchi** | **ta'lim oluvchilar** |
| 1-bosqich. O'quv mashg'u-lotiga kirish (10 daq.) | 1.1. Mavzuning nomi, maq-sad va kutilayotgan natijalar-ni yetkazadi.<br>1.2. Talabalarga mashg'ulot dasturlashgan ta'lim texnolo-giyasi asosida tashkillashtiri-lishini ma'lum qiladi va «Dasturlashgan ta'lim texno-logiyasi» mavzusida ishlangan kompyuter o'quv dasturi bilan ishlash bo'yicha instruksiya beradi (1.6.1-ilova). | 1.1. Tinglaydilar, aniq-lashtiruvchi savollar berishlari mumkin.<br>1.2. Kompyuter vo-sitasida ta'lim olishga tayyorgarlik ko'radilar: kompyuterlar oldiga joylashadilar (har bir talabaga alohida kom-pyuter); intsruktsiya bilan tanishadilar. |

| | | |
|---|---|---|
| 2-bosqich Asosiy (65 daq.) | 2.1. Talabalarning mustaqil faoliyatini boshqaradi:<br>- talabalar faoliyatini kuzatib boradi;<br>- zarur bo'lsa maslahatlar beradi;<br>- elektron o'quv dasturni oxirigacha o'rganib chiqib, testni yechib bo'lgan talabaning natijasini yozib oladi;<br>- topshiriqni bajarib bo'lgan talabaga boshqa topshiriq beradi (1.6.2-ilova). | 2.1. Yakka tartibda, individual tezlikda mustaqil ta'lim faoliyatini amalga oshiradi:<br>elektron o'quv dasturni ishga soladi;<br>elektron o'quv dasturi bo'yicha ishlaydi (berilgan axborotlarni o'rganadi, savolarga javob berib, o'z-o'zini tekshiradi – javob noto'g'ri bo'lsa, elektron o'quv dasturining tegishli qismini qaytadan o'rganib chiqadi);<br>nazorat blokidagi testlarga javob beradi va o'z-o'zini tekshirib, natijani o'qituvchiga ma'lum qiladi.<br>Ishni yakunlagan talaba o'qituvchidan topshiriq oladi va uni yakka tartibda bajaradi. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 daq.) | 3.1. Barcha talabalar ishni yakunlashini kutadi, undan so'ng bilimlarni mustahkamlash maqsadida mashg'ulotning asosiy qismida berilgan topshiriq natijasini «T-sxema» usuli (1.6.2-ilova) asosida umumlashtiradi. | 3.1. T-sxema asosida dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasini tahlil qiladi (tahlil qilishda o'z tajribasiga tayanadi). |

*1.6.1-ilova*

**Elektron o'quv dasturida ishlash bo'yicha ko'rsatma.**

1. Elektron dasturni ishga solish – F5 tugmachasini bosing.
2. Ma'lumotlarni o'qing, berilgan topshiriqlarni aniq bajaring.
3. Faoliyat bosqichlari (har bir bosqichdan so'ng ENTER tugmachasi bosiladi).

***Axborot blokida (AB)*** berilgan ma'lumotni qunt bilan o'qing.

***Savol blokida*** **(SB)** berilgan savolni o'qing va unga javob berishga harakat qiling.

***O'z-o'zini tekshirish blokini (O'TB)*** o'qib, javobingiz to'g'ri/noto'g'riligini aniqlang – agar to'g'ri javob bergan bo'lsangiz, keyingi axborot bloki (AB)ga o'ting, agar noto'g'ri bo'lsa, oldin o'rganilgan ma'lumotga qaytib, qaytadan o'qib chiqing va xatongizni anglang.

***Nazorat bloki (NB)da*** testlar berilgan. Ushbu testlarni yechib, kalit tuzing va ularni to'g'ri kalit bilan solishtiring. Agar test yechishda xatoga yo'l qo'ygan bo'lsangiz, tegishli ma'lumotni toping va qaytadan o'rganib chiqing.

*1.6.2-ilova*

**Dasturlashgan ta'lim texnologiyasi (baholovchi tahlil)**

| Dasturlashgan ta'lim texnologiyasi | |
|---|---|
| + | |
| O'qituvchi vaqti, kuchini tejaydi ... | Ko'proq reproduktiv ta'limga qaratilgan... |

## 1.7. O'rta modulning mazmunini ifoda etuvchi matn ssenariysi

### Birinchi kichik modul

Pedagogik texnologiya fanining rivojlanishiga qator turdosh fanlar yutuqlari ta'sir etadi. Shularning ichida boshqaruv nazariyasi fani yetakchi o'rinlarni egallaydi.

Ishlab chiqarishda texnologik jarayon samaradorligining asosiy omillaridan biri bu texnologik jarayonni to'g'ri tashkillashdir. Buning uchun mahsulot sifati tez-tez nazorat qilib turilishi shart.

Texnologik yondashuvda **o'qituvchining asosiy funksiyasi ta'lim jarayonini boshqarish** hisoblanadi.

Bunda:

- nazorat natijalari o'quv jarayonining samaradorlik darajasining ko'rsatkichlaridir;
- o'quv maqsadiga erishilmaganligi – o'quv jarayonini tashkillashda xatoga yo'l qo'yilganligining belgisidir. Bunday hollarda o'quv jarayoniga zaruriy o'zgartirishlar kiritish lozim.

An'anaviy ta'limda bilim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalalari darajasini nazorat qilishdagi kamchiliklar:

- tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirishning qiyinligi;
- baho jazolash vositasi sifatida qo'llanilishi;
- nazorat ishlarining tez-tez o'tkazib turilmasligi.

Natijada:

- nazorat jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlari inobatga olinmaydi;
- o'quvchida nazorat ishlariga nisbatan qo'rquv hissi shakllanadi;
- o'qituvchi ta'lim jarayoniga o'z vaqtida o'zgartirish kirita olmaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha kamchiliklarni «Dasturlashgan ta'lim texnologiyasi» deb nomlangan texnologiya bartaraf etadi.




3-rasm.

Dasturlashgan ta'lim texnologiyasi tamoyillari:

- **Ma'lumotlilik.** Ta'lim jarayonida bilim oluvchiga albatta yangi ma'lumot berilishi kerak.
- **Bilim oluvchi faolligini ta'minlashi.** Ta'lim jarayonida bilim oluvchining faolligini ta'minlab berish kerak. Ushbu faollik ma'lumotni ishlab chiqish bilan bog'liq.
- **Qaytuvchan aloqa.** O'quvchilar bilimini doimiy nazorat qilib turish va ularga zaruriy tuzatishlar kiritish lozimligi.
- **O'qish mazmunining alohida qismlarga ajratib berilishi.** Ma'lumot o'quvchilarga alohida bo'laklar (kadrlarga, qadamlarga) bo'linib uzatiladi.
- **Texnologik jarayonning qadamma-qadam kechishi.** Ta'lim ma'zmunini uzatish uchta bir-biriga bog'liq qismlar orqali amalga oshiriladi: ma'lumot berish → qaytuvchan aloqa o'rnatilishi → nazorat.
- **O'qitish jarayonining individualligi.** O'qitish jarayonida har bir o'quvchining o'ziga zarur bo'lgan tezlikda ishlashi va boshqarilishi.
- **Ta'lim jarayonida texnik vositalardan foydalanish.**

O'qitish dasturinig tuzilishi:

**AB** — hajmi katta bo'lmagan ma'lumot (2—3 gap). Masalan, chizma, ta'rif yoki formula.

**SB** — ABda berilgan ma'lumot bilan bog'liq bo'lgan savol/vazifa.

**O'TB** – SBda xatoga yo'l qo'yilganlik/qo'yilmaganligini tekshirish. Masalan: to'g'ri javob/xatoning tahlili/to'g'ri javob topishda yordam.

**NB** – test.

O'qitish dasturining bir qadami:

$$AB + SB + O'TB + NB$$

## Ikinchi kichik modul

**Chiziqli dastur.** Chiziqli dasturning muallifi – B. Skinner. U taklif qilgan dastur quyidagicha ko'rinishda bo'ladi (4-rasm).




4-rasm.

Chiziqli dastur kamchiliklari:

- o'qish mazmunining o'ta maydalangan holda berilishi;
- dasturning barcha qadamining bajarilishi shartligi (bilim oluvchi darajasi yuqoriroq bo'lgan o'quvchi bo'lishi mumkinligi inobatga olinmasligi);
- oldingi qadamlarga (kadrlarga) qayitish imkoni yo'qligi (oldingi material o'quvchining esidan chiqib qolgan bo'lsa ham).

Shunga qaramasdan, chiziqli dasturlar o'quv materialining 95% ini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Lekin ular bilim oluvchidan juda ko'p kuch, vaqt sarflashni talab etadi.

## Uchinchi kichik modul

**Tarmoqlashgan dastur.** Tarmoqlashgan dastur muallifi – N. Krauder. Tarmoqlashgan dastur kadrlarni tanlashga imkon beruvchi holda tuziladi – bunda o'quvchi keltirilgan bir necha javobdan birini tanlash imkoniga ega. Tanlangan javobga ko'ra dastur tarmoqlarga bo'linadi.




5-rasm.

Tarmoqlashgan dastur xususiyatlari:

- o'quv mazmunining nisbatan katta bo'laklarga bo'linganligi;
- har bir qadamning bajarilishi shart emasligi (ta'limning individuallashganligi);
- dasturda oldingi kadrlarga qaytish mumkinligi;
- o'quvchining o'zlashtirish darajasiga qarab, pedagogik jarayonning zaruriy tezlikda kechishi.

Aralash dasturlar – bu chiziqli va tarmoqlashtirilgan dasturlar kombinatsiyasi.

## 2. OLTINCHI KATTA MODULNING IKKINCHI O'RTA MODULI (ma'ruza) – Axborot ta'lim texnologiyalari va masofaviy ta'lim texnologiyasi (MTT)

### 2.1. Beshinchi katta modul tarkibidagi ikkinchi o'rta modulning umumiy maqsadi

*6.2.1-jadval*

| |
|---|
| Talabalarga o'quv jarayonini zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanib tashkillashtirish xususiyatlarini, ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining o'rnini to'g'ri baholab bera olishni va masofadan turib ta'lim jarayonini amalga oshirishni tashkillashtirish haqida batafsil ma'lumot berish, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarga vosita sifatida yondashuvni shakllantirish va inson tafakkuri, shaxsan o'z tafakkuri kuchiga ishonchni va axborotlar ustida samarali ishlash ko'nikmasini rivojlantirish. |

### 2.2. Kichik modullarning nomlari va maqsadlari

*6.2.2-jadval*

| T/r | Kichik modullar nomi | Kichik modullarning maqsadi |
|---|---|---|
| 1. | Axborot-kommunikatsiya texnologiyasining ta'limda qo'llanilishi | Talabalarga ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyasining qo'llanilish tarixini, axborot ta'lim vositalari ichida kompyuterli ta'lim vositasining o'rnini, ta'lim jarayonida axborot ta'lim vositasi sifatida kompyuterdan foydalanishning ta'lim jarayoniga bo'lgan ta'sirini, bunda tahsil oluvchilarda shakllanadigan sifatlarni tushuntirish. |

| | | |
|---|---|---|
| 2 | Axborot ta'lim texnologiyalaridan foydalanish uslubiyotining xususiyatlari | Talabalarga «Axborot ta'lim texnologiyalari» atamasi, fanlarni o'qitishda ATTlarning qo'llanilish maqsadlari, kompyuterni qo'llashda ta'lim jarayoni boshqaruvidagi o'zgarishlarni, ushbu texnologiyalarni qo'llashga oid misollar keltira olishni va axborot ta'lim texnologiyalarining yutuq va kamchiliklarini to'g'ri ko'rsata bilishni o'rgatish. |
| 3. | MTT xususiyatlari | Talabalarga MTT jarayonini tashkillashtirishning xususiyatlarini, unga qo'yiladigan pedagogik talablar mazmunini, MTda Internet, elektron axborot vositalardan foydalanishning o'ziga xos jihatlarini ko'rsata olishni o'rgatish. |
| 4 | MTT kurslarining tashkiliy jihatlari | Talabalarga MTT kurslarining xususitidan kelib chiqib, ularning o'ziga xos jihatlarini, MTT kurslarining samaradorligini ta'minlovchi shartlarni, MTT samaradorligi mezonlarini, MTT yutuqli tomonlari va kamchiliklari nuqtayi nazardan to'g'ri tahlil qila olishni va o'z mutaxassisligi bo'yicha MTT kursi moduli loyihasini tuzishni va MTTning kelajakdagi rivoji haqida asoslangan taxmin qila olishni o'rgatish. |

## 2.3. Tayanch tushunchalari va ular asosida tuzilgan nazorat savollari

*6.2.3-jadval*

| T/r | Tayanch tushunchalar | Nazorat savollari |
|---|---|---|
| **Axborot ta'lim vositalarining ta'limda qo'llanilishi** | | |
| 1. | Axborot, «Axborot ta'lim texnologiyalari» (ATT), kompyuterli boshqarish | 1. Axborotlar sohasidagi inqilobiy o'zgarishlarni keltirib chiqargan ixtirolarni sanab bering.<br>2. ATTdan foydalanish natijasida ta'lim jarayonidagi o'zgarishlarni sanab bering.<br>3. Ta'lim jarayonida ATTni qo'llash darajalarini sanab bering.<br>4. Kompyuterli o'qitishda ta'limni boshqarishning o'ziga xosligi nimada? |
| 2. | ATTlardagi o'qitish faoliyati, ATTlarni qo'llashga talablar, ta'limning dasturiy vositalari | 1. ATTlar qo'llanilgan ta'lim jarayonida o'qituvchining boshqarish-o'qitish faoliyati nimalardan iborat?<br>2. Ta'lim jarayonida ATTlarni qo'llashga qo'yiladigan talablarni sanab bering va asoslang.<br>3. «Ta'limning dasturiy vositalari» tushunchasi ta'rifini aytib bering.<br>4. Ta'limning dasturiy vositalariga misollar keltiring. |
| 3. | Masofaviy ta'lim (MT), MT da Internet, elektron axborot | 1. «Masofaviy ta'lim» tushunchasi ta'rifini aytib bering. MTning asosiy o'ziga xos jihati nima?<br>2. MT da Internetning qaysi xususiyatlaridan foydalaniladi?<br>3. MT da ta'lim mazmunining tashkillashtirish qanday ahamiyat kasb etadi? Uni tashkillashtirishda nimalarni e'tiborga olish talab qilinadi? |

| | | |
|---|---|---|
| 4. | MTTning samaradorlik omillari, MTning samaradorlik mezonlari, Internetga asoslangan MTT. | 1. MTT samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar nima? MTTga pedagogik talablarni sanab bering va ularga izoh bering.<br>2. MTT ning samaradorlik mezonlarini sanab bering va asoslang. O'z mutaxassisligingiz bo'yicha MTT kursi modu'li loyihasini ishlab chiqing va taqdim eting.<br>3. Internetga asoslangan MTT ning yutuqli tomonlari va kamchiliklarini aytib bering. MTT ning kelajakda rivojlanishi haqida taxmin qiling. |

## 2.4. Nazorat savollari asosida tuzilgan test

*6.2.4-jadval*

| T/r | Savollar | Mumkin bo'lgan javoblar | |
|---|---|---|---|
| 1. | XX asrning 50–60- yillarida tahsil oluvchilarning turli fanlar bo'yicha BKMsini nazorat qilishni osonlashtirgan texnik vosita. | 1 | Proyektor. |
| | | 2 | O'quv kinofilmi. |
| | | 3 | Lingafon kabinet. |
| | | 4 | Avtomatlashtirilgan vosita. |
| 2. | Global kompyuter tarmoqlarining kirib kelishi axborot sohasidagi nechanchi inqilobiy o'zgarish deb ataladi? | 1 | Ikkinchi. |
| | | 2 | To'rtinchi. |
| | | 3 | Uchinchi. |
| | | 4 | Beshinchi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3. | «Axborot ta'lim texnologiyalari» tushunchasiga to'g'ri ta'rif qaysi qatorda berilgan? | 1 | Axborotlarni o'qituvchidan o'quvchiga uzatishga asoslangan ta'lim texnologiyalari. |
| | | 2 | Qaytuvchan aloqalar samarali tashkillashtirilgan pedagogik jarayon. |
| | | 3 | Tahsil oluvchilarga bir vaqtning o'zida katta hajmdagi axborotlarni uzatishga qodir texnik vositalar. |
| | | 4 | Ta'lim sohasida pedagogik maqsadlarga erishish uchun maxsus texnik axborot vositalarni qo'llovchi barcha texnologiyalar. |
| 4. | «Kompyuter ta'lim texnologiyalari» tushunchasiga to'g'ri ta'rif qaysi qatorda berilgan? | 1 | Axborotni tayyorlash va tahsil oluvchiga uzatishda asosiy vosita sifatida kompyuter qo'llaniladigan jarayon. |
| | | 2 | Barcha axborotlarni kompyuterda saqlash va qayta ishlab chiqish. |
| | | 3 | Elektron darsliklarni yaratish va ularni qo'llash jarayoni. |
| | | 4 | Internet tarmog'idan unumli foydalanishga asoslangan ta'lim texnologiyasi. |
| 5. | Ta'lim jarayonida ATT-ni qo'llash orqali ta'limni tabaqalashtirishga qanday erishiladi? | 1 | Tahsil oluvchilar alohida guruhlarga ajratiladi. |
| | | 2 | Tahsil oluvchilar test sinovlarini topshiradilar. |
| | | 3 | Kompyuterning o'zi tahsil oluvchilarni tabaqalashtirib chiqadi. |
| | | 4 | Har xil toifadagi tahsil oluvchilarga maxsus dasturning ishlab chiqilishi orqali. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 6. | Qaysi turdagi dasturlar tahsil oluvchilarda ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan? | 1 | Yangi ma'lumot beruvchi dasturlar. |
| | | 2 | Nazorat dasturlari. |
| | | 3 | Barchasi. |
| | | 4 | Trening dasturlari. |
| 7. | Kompyuterli o'qitishda ta'limni boshqarishning o'ziga xosligi nimada? | 1 | Tahsil oluvchi o'zi o'z ta'limini boshqarishi mumkin. |
| | | 2 | Tahsil oluvchi o'qituvchi instruktsiyasi bo'yicha ishlaydi. |
| | | 3 | O'quvchi o'z-o'zini nazorat qiladi. |
| | | 4 | O'qituvchi tomonidan qat'iy nazorat amalga oshiriladi. |
| 8. | «Axborot texnologiyalarni pedagogik texnologiyalar bilan birgalikda qo'llash» talabi nimani ta'minlaydi? | 1 | Ta'lim jarayonining tezroq kechishini. |
| | | 2 | Ta'lim jarayonining qiziqarli bo'lishini. |
| | | 3 | Tahsil oluvchilarga individual yondashuvni. |
| | | 4 | Ta'lim jarayonining samarali tashkillashtirilishini. |
| 9. | Qaysi turdagi dasturiy vosita tahsil oluvchilarda loyihaviy tafakkurni rivojlantira oladi? | 1 | Konstruktor. |
| | | 2 | Elektron darslik. |
| | | 3 | Trenajyor-dastur. |
| | | 4 | Kompyuter o'yinlari. |
| 10. | Modellashtiruvchi dasturlar qachon qo'llaniladi? | 1 | Ma'lum hodisani reallikda kuzatish va o'rganish imkoniyati mavjud bo'lmasa. |
| | | 2 | Ma'lum hodisani auditoriya sharoitida o'rganib chiqish lozim bo'lsa. |
| | | 3 | Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish zarur bo'lsa. |
| | | 4 | 1 va 2-javoblar to'g'ri. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 11. | Kompyuter vositalarining interaktivligi deb nimaga aytiladi? | 1 | Kompyuterning tahsil oluvchi yoki o'qituvchi harakatlariga «javob berishlari», ular bilan «dialogga kirishishlari»ga. |
| | | 2 | Tahsil oluvchilar faollik darajasining yuqori bo'lishiga. |
| | | 3 | Tahsil oluvchilar o'zaro hamkorlikda ish olib borishlariga. |
| | | 4 | Kompyuterlar tarmoqqa ulangan holda ishlashiga. |
| 12. | Ta'lim jarayonida multimedia qanday imkoniyatlarni yaratadi? | 1 | Animatsiya, ovoz, videotasvir bilan ta'minlangan dasturlar bilan ishlash. |
| | | 2 | Videolavhalar tomosha qilish va tahlil o'tkazish. |
| | | 3 | Ma'lumotlarni ko'paytirish va uzatish. |
| | | 4 | Barcha ko'rsatilganlarni amalga oshirish. |
| 13. | Ta'lim jarayoni natijalarini diagnostika qilishda kompyuterdan qanday foydalaniladi? | 1 | Natijalarni ma'lumotlar bazasiga kiritish va saqlash. |
| | | 2 | Ta'lim jarayoni natijalarini oshirib borish. |
| | | 3 | Ta'lim jarayoni natijalarini to'liq nazorat qilib borish. |
| | | 4 | Monitoring rejimini qo'llash, natijalarni saqlash va tahlil qilish. |
| 14. | «Kompyuterli dars» tushunchasining ta'rifi qaysi qatorda to'g'ri berilgan? | 1 | Multimediadan foydalangan holda tashkillashtirilgan dars. |
| | | 2 | Kompyuter orqali katta hajmdagi materiallar berilgan dars. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 3 | Dars jarayonida ta'lim vositasi sifatida kompyuterdan foydalanilgan har qanday dars. |
| | | 4 | Ta'lim jarayonining natijasi kompyuter yordamida aniqlangan dars. |
| 15. | Tahsil oluvchilar sog'ligini muhofaza qilish maqsadida tahsil oluvchilar yoshiga mos holda kuniga qancha vaqt kompyuterda ishlashlari mumkin? | 1 | Boshlang'ich sinf o'quvchilari 30 daqiqa, o'rta bosqich sinf o'quvchilari 120 daqiqa, yuqori sinf o'quvchilari 220 daqiqa. |
| | | 2 | Boshlang'ich sinf o'quvchilari 50 daqiqa, o'rta bosqich sinf o'quvchilari 120 daqiqa, yuqori sinf o'quvchilari 200 daqiqa. |
| | | 3 | Boshlang'ich sinf o'quvchilari 30 daqiqa, o'rta bosqich sinf o'quvchilari 220 daqiqa, yuqori sinf o'quvchilari 300 daqiqa. |
| | | 4 | Boshlang'ich sinf o'quvchilari 50 daqiqa, o'rta bosqich sinf o'quvchilari 220 daqiqa, yuqori sinf o'quvchilari 300 daqiqa. |
| 16. | Masofaviy ta'lim (MT) nima? | 1 | Kompyuter yordamida o'qitish. |
| | | 2 | Internet orqali o'qitish. |
| | | 3 | Masofadan turib o'qitish. |
| | | 4 | Barcha ta'riflar to'g'ri. |
| 17. | MT samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarga kirmaydigan omil qaysi qatorda ko'rsatilgan? | 1 | O'qituvchi va tahsil oluvchi o'rtasida masofa bo'lishi. |
| | | 2 | Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar. |
| | | 3 | Qaytuvchan aloqaning samaradorligi. |
| | | 4 | O'qituvchi va talaba o'zaro hamkorligining samarali tashkillashtirilishi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 18. | MT kursining yaratilishida qaysi mutaxassislar ishtirok etadilar? | 1 | Muallif, psixolog, pedagog, dizayner, dasturlovchi. |
| | | 2 | Muallif, psixolog, operator, dizayner, dasturlovchi. |
| | | 3 | Muallif, uslubiyotchi, vebmaster, dizayner, dasturlovchi. |
| | | 4 | Muallif, psixolog, o'qituvchi, dizayner, dasturlovchi. |
| 19. | MTning samaradorligini aniqlash mezonlariga qaysi mezon kirmaydi? | 1 | Talabalarning MT haqidagi subyektiv fikrlari. |
| | | 2 | Ta'lim olish uchun sarflanadigan mablag'. |
| | | 3 | Talabalarda shakllantirilgan malakalar darajasi. |
| | | 4 | Ta'lim olish uchun sarflanadigan vaqt. |

## 2.5. Dars turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar

*6.2.5-jadval*

| | |
|---|---|
| O'quv mashg'ulotining shakli | Taqdimotli, muammoli ma'ruza mashg'uloti. |
| Ta'lim usullari | Muammoli, taqdimotli ma'ruza, munozara. |
| Ta'lim vositalari | Elektron o'quv dastrular turlariga namunalar, Intrenet tizimiga ulangan kompyuter, multimedia vositalari, test. |
| Ta'lim shakllari | Ommaviy, jamoaviy. |
| O'qitish sharoitlari | Multimedia vositalari bilan jihozlangan hamda Internet tizimiga ulangan kompyuteri mavjud auditoriya. |
| Monitoring va baholash | Talabalarning munozarada ishtiroki, test natijalari. |

## 2.6. Pedagogik jarayonda foydalaniladigan axborot texnologiyalari, didaktik materiallar va faoliyat mazmuni

*6.2.6-jadval*

| Ish bosqichlari va vaqti | O'quv jarayoni | |
|---|---|---|
| | ta'lim beruvchi | ta'lim oluvchilar |
| 1-bosqich. O'quv mashg'u-lotiga kirish (10 daq.) | 1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi, mashg'ulot muammoli ta'lim texnologiyasi, axborot ta'lim texnologiyalari asosida tashkillashtirilishini e'lon qiladi.<br>1.2. Talabalarni faollashtirish va mavzuga yo'naltirish uchun blits-so'rov o'tkazadi:<br>- *Ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan texnik vositalarni sanab bering.*<br>- *Zamonaviy kompyuter texnologiyalarini boshqa ta'lim texnik vositalardan farqi nimada?*<br>- *Ta'lim jarayonida texnik vositalar nima maqsadda qo'llaniladi?* | 1.1. Tinglaydilar, aniqlashtiruvchi savollar berishlari mumkin.<br>1.2. Savollarga javob beradilar. |
| 2-bosqich Asosiy (65 daq.) | 2.1. Talabalarga mavzu mohiyatini ochib berishga qaratilgan faoliyatni tashkillashtiradi. Talabalar oldiga asosiy muammoni qo'yadi: «Yaqin kelajakda dunyo ta'lim sohasi tubdan o'zgaradi va unda misli ko'rilmagan o'zgarishlar ro'y beradi, bunga kompyuter ta'lim texnologiyalari sababchi bo'ladi», deb | 2.1. Birinchi kichik modul mazmunini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradilar: o'zlaridagi mavjud bilim va tasavvurlarga tayangan holda asosiy muammoli savolga javob berishga |

| | | |
|---|---|---|
| | ta'kidlash nechog'liq to'g'ri?» va uning yuzasidan bahsli munozara tashkillashtiradi.<br>Asosiy muammoli savolga javob topishga yordam beruvchi kichik muammolarni aniqlash bo'yicha faoliyatni tashkillashtiradi, natijada quyidagi kichik muammolar shakllantiriladi:<br>- *Ta'lim axborot vositalari qaysi turlarga bo'linadi?*<br>- *Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan qanday foydalaniladi?* | harakat qiladilar, munozarada qatnashadilar, bahslashadilar;<br>kichik muammolarni shakllantirishda ishtirok etadilar – asosiy muammoli savolga javob berish uchun ularda mavjud bo'lmagan bilimlar doirasini aniqlaydilar. |
| | 2.2. Birinchi kichik muammo deb belgilangan «Ta'lim axborot vositalari qaysi turlarga bo'linadi?» savoliga javob topishga qaratilgan faoliyatni tashkillashtiradi:<br>- talabalarga birinchi kichik modul mazmunini taqdimotli ma'ruza usulida yetkazadi (qo'llanmaning tegishli mavzu matni qismi); | 2.2. Axborotni tinglaydilar, muhim ma'lumotlarni yozib boradilar; |
| | - ma'ruzaning birinchi kichik moduli bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash, nazoratni amalga oshirish maqsadida test o'tkazadi (qo'llanmaning tegishli mavzu bo'yicha «Nazorat savollari asosida tuzilgan test» qismi) va test kalitini taqdim qilib, talabalarga o'z bilimlarini tekshirishi uchun sharoit yaratadi. | test yechadilar, test kaliti yordamida o'z-o'zlarini nazorat qiladilar, xatolar ustida ishlash jarayonida qatnashadilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | Yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashtiradi va ularni to'g'rilash bo'yicha faoliyatni tashkillashtiradi: tetsni to'g'ri yechgan talabalarga so'z beradi, zarur holatda o'zi qaytadan ma'lumotni tushuntiradi. | |
| | 2.3. Ikkinchi kichik muammo deb belgilangan «Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan qanday foydalaniladi?» savoliga javob topishga qaratilgan faoliyatni tashkillashtiradi – talabalarga ikkinchi kichik modul mazmunini taqdimotli ma'ruza usulida yetkazadi, elektron o'quv qo'llanmalarning har xil turlarini namoyish qilib, sharhlaydi, talabalardan bu sohada ularda mavjud tajriba, tasavvurlari bilan o'rtoqlashishlarini so'raydi.<br>Ma'ruzaning ikkinchi kichik moduli bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash, nazoratni amalga oshirish maqsadida test o'tkazadi (qo'llanmaning tegishli mavzu bo'yicha «Nazorat savollari asosida tuzilgan test» qismi) va test kalitini taqdim qilib, talabalarga o'z bilimlarini tekshirishi uchun sharoit yaratadi. | 2.3. Axborotni tinglaydilar, muhim ma'lumotlarni yozib boradilar, o'z tajribalariga tayangan holda ularga tanish bo'lgan elektron o'quv dasturlar yuzasidan qisqa ma'lumotlar beradilar.<br>Test yechadilar, test kaliti yordamida o'z-o'zlarini nazorat qiladilar, xatolar ustida ishlash jarayonida qatnashadilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | Yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashtiradi va ularni to'g'rilash bo'yicha faoliyatni tashkillashtiradi: tetsni to'g'ri yechgan talabalarga so'z beradi, zarur holatda o'zi qaytadan ma'lumotni tushuntiradi. | |
| | 2.4. Talabalarda masofaviy ta'lim bo'yicha bilimlarni shakllantiradi:<br>- talabalarga uchinchi va to'rtinchi kichik modul mazmunini taqdimotli ma'ruza usulida yetkazadi (qo'llanmaning tegishli mavzu matni qismi);<br>- Internet tizimiga ulanib, bir necha ta'lim portallari, masofaviy ta'lim xizmatlarini amalga oshiruvchi saytlar sahifalarini talabalarga namoyish qiladi, taqdim etilayotgan saytlarni mashg'ulot davomida olingan nazariy ma'lumotlarga bog'lash vazifasini beradi, munozara tashkillashtiradi;<br>Ma'ruzaning uchinchi kichik moduli bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash, nazoratni amalga oshirish maqsadida test o'tkazadi (qo'llanmaning tegishli mavzu bo'yicha «Nazorat savollari asosida tuzilgan test» qismi) va test kalitini taqdim qilib, talabalarga o'z bilimlarini tekshirishi uchun sharoit yaratadi. | 2.4. Axborotni tinglaydilar, muhim ma'lumotlarni yozib boradilar, berilgan savol yuzasidan fikrlaydilar.<br><br>O'qituvchi tomonidan namoyish qilinayotgan Internet saytlar mazmuni, tuzilmasini tahlil qilib, mashg'ulot davomida olgan nazariy ma'lumotlarini amalda tekshirib ko'radilar – shu yuzasidan o'z fikrlarini bildiradilar.<br>Test yechadilar, test kaliti yordamida o'z-o'zlarini nazorat qiladilar, xatolar ustida ishlash jarayonida qatnashadilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | Yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashtiradi va ularni to'g'rilash bo'yicha faoliyatni tashkillashtiradi: tetsni to'g'ri yechgan talabalarga so'z beradi, zarur holatda o'zi qaytadan ma'lumotni tushuntiradi. | |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 daq.) | 3.1.Bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash maqsadida asosiy muammoli savol deb belgilangan «Yaqin kelajakda dunyo ta'lim sohasi tubdan o'zgaradi va unda misli ko'rilmagan o'zgarishlar ro'y beradi, bunga kompyuter ta'lim texnologiyalari sababchi bo'ladi», deb ta'kidlash nechog'liq to'g'ri?» savoliga javobni shakllantirishga qaratilgan bahsli munozarani tashkillashtiradi. | 3.1. Asosiy muammo yuzasidan o'z fikrlarini bildiradilar, ularni mashg'ulot davomida olgan nazariy ma'lumotlar, tahlil qilingan Internet saytlaridan misollar bilan isbotlashga harakat qiladilar. |
| | 3.2. Talabalarga mavzu bo'yicha mustaqil ta'lim vazifasini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar beradi. | 3.2. Mustaqil vazifani bajarish bo'yicha ko'rsatmalar oladilar. |

## 2.7. O'rta modulning mazmunini ifoda etuvchi matn ssenariysi

### Birinchi kichik modul

Axborot ta'lim vositalari taraqqiyotini quyidagi 5 bosqichga ajratish mumkin:

1. Kitob yaratilishigacha qadar qo'llanilgan yozuv.
2. Bosma axborot davri.

3. Ta'limning texnik vositalari.

4. Kompyuter davri.

5. Global kompyuter tarmoqlari davri.

Kitoblar chop etila boshlangan davr (1455-y.) **birinchi axborot inqilobi** deb ataladi. XX asr esa texnik va axborot vositalar, ularning ta'limda qo'llanilishi bilan bog'liq bo'lgan buyuk kashfiyotlar asri bo'ldi. Fotorafiya, kinematograf, radio, ovozni magnitli yozish, televideniye, videomagnitofon kabi vositalarning ixtiro qilinishi ta'lim jarayoniga yangidan-yangi imkoniyatlarni olib kirdi.

XX asrning 50—60 yillarida ta'limda tasvirni proeksiya qilib berishga qodir apparatlar, slaydlar, epiproyektorlar, o'quv kinofilmlari, o'quv teleko'rsatuvlari, avtomatlshtirilgan (elektromexanik) nazorat moslamalari, lingafon kabinetlar, videomagnitafon kabi uskunalar qo'llanila boshlandi.

**Ikkinchi axborot inqilobi** 1976-yilda shaxsiy (personal) kompyuterning yaratilishi bilan bog'liq. Kompyuterning ixtiro qilinishi madaniy rivojlanish jarayoniga kitob ixtirosidan so'ng vujudga kelgan o'zgarishlar bilan teng keladigan inqilobiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Axborot hajmi va uzatilish tezligi ming marotaba oshdi. Insoniyat yangi, axborot davriga qadam bosdi. Kompyuter jamiyat, ishlab chiqarishning barcha sohalariga jadal kirib keldi.

Global tarmoqlar va Internetning kashf qilinishi **uchinchi axborot inqilobi** bo'ldi. Olimlar fikri bo'yicha, hozir insoniyat jamiyatning industrial turidan axborotli turiga o'rish davrida turibdi. Bugungi kunda butun dunyo aloqa tizimlari bilan qurshab olingan. Shu sababli yoshlarning axborot texnologiyalarini bilishi, axborot madaniyatini egallashi muhimdir. Axborotga bo'lgan ehtiyojning o'sishi yangidan yangi axborot texnologiyalarining vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Kompyuter kommunikatsiyalari o'z ichiga bir necha shakllarni oladi:

– elektron pochta;
– elektron konferensiya aloqasi (forum);
– videokonferensiya aloqasi;
– Internet.

Telekommunikatsiya vositalari talaba va o‘qituvchilarga katta imkoniyatlarni yaratadi: har qanday hajmdagi va turdagi axborotni har qaysi joyga o‘sha zahotiyoq yuborish va qabul qilish; interfaollik va qaytuvchan aloqa; turli axborot manbalariga kirish imkoniyati; hamkorlikda telekommunikatsion loyihalarni amalga oshirish; elektron konferensiyalar orqali har qanday qiziqtirgan savolni berish mumkin.




| ATTlarning qo‘llanilishi natijasida: | |
|---|---|
| zaruriy ma’lumotlarni mustaqil izlab topa oladigan, ularni tahlil qila oladigan, taxmin qila oladigan, modellar yarata oladigan, tajriba o‘tkaza oladigan, xulosa chiqara oladigan, murakkab vaziyatlarda qaror qabul qila oladigan inson shakllanadi. | - o‘quv-tarbiya jarayoni jadallashadi;<br>- ta’lim samaradorligi va sifati oshadi;<br>- tahsil oluvchida ta’limga bo‘lgan intilishni kuchaytiruvchi va uning bilish faoliyatini faollashtiruvchi rag‘batlar (stimullar) ta’minlanadi;<br>- axborotlarni qayta ishlashda qo‘llaniladigan zamonaviy vositalar (shu jumladan, audiovizual vositalar)ni qo‘llash orqali fanlararo bog‘lanishlar kuchaytiriladi. |

Fanlarni o'qitishda ATTdan quyidagi darajalarda foydalaniladi:

- har xil toifadagi tahsil oluvchilarni o'qitishda kompyuterdan foydalanish;
- barcha fanlarni o'qitishda kompyuterdan foydalanish;
- real amaliy masalalarni yechishda kompyuterdan foydalanish;
- ta'lim jarayonida kompyuter o'quv dasturlari, multimedia materiallari, mustaqil ta'lim, trening, nazorat dasturlaridan foydalanish.

Kompyuter o'quv faoliyati boshqaruvini takomillashtirishga yordam beradi. Bunda kompyuterning interaktivlik faoliyati quyidagicha namoyon bo'ladi: ***tahsil oluvchi o'zi*** kompyuterli yordam shaklini, ya'ni ma'lumotlarni taqdim etish shakli, usulini tanlashi mumkin – ta'lim jarayonini o'zi boshqarishi mumkin.

So'nggi tadqiqotlarning ta'kidlashicha, inson xotirasida eshitgan ma'lumotlarining 1/4 qismi, ko'rish orqali qabul qilgan ma'lumotlarining 1/3 qismi, bir paytning o'zida ko'rish va eshitish orqali qabul qilingan ma'lumotlarning 1/2 qismi, yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari, agarda tahsil oluvchi ta'lim jarayoniga faol kirishgan bo'lsa ma'lumotlarning 3/4 qismi qolar ekan. Demak, ta'lim jarayonida kompyuterni qo'llash ushbu jarayon samaradorligini oshiradi.

O'qituvchining boshqarish-o'qitish faoliyati quyidagilardan iborat:

– kompyuter vositalarini qo'llashning umumiy strategik rejasini ishlab chiqish (uzoq muddatli pedagogik jarayonni maqsadlash, rejalashtirish). Bu bosqichda o'qituvchi didaktik modullar va bloklarni tanlaydi, tuzadi;

– mavzuiy taktik rejalashtirish;

– kompyuterni alohida o'quv mashg'ulotlarida qo'llashni rejalashtirish (nazariy mashg'ulot, amaliyot va hokazo);

— mashg'ulot vaqtida tahsil oluvchilarning ta'limiy faoliyatini boshqarish, an'anaviy va kompyuter vositalarini o'zaro bog'lab qo'llashni amalga oshirish;

— tahsil oluvchilar bilan shaxsiy muloqot (suhbat, maslahat, tarbiyaviy ta'sir).

Ta'lim jarayonini loyihalashtirishda o'qituvchi quyidagilarni e'tiborga olishi shart:

— qo'shimcha axborot kompyuter vositalari aniq uslubiy vazifani bajarishi kerak bo'lsagina qo'llanishi kerak;

— axborot texnologiyalarini pedagogik texnologiyalar bilan birgalikda qo'llash;

— axborot kommunikativ vositalarni qo'llashda tahsil oluvchilar salomatligini saqlashga e'tibor berish kerak;

— tahsil oluvchiga berilayotgan ma'lumotlarni cheklamaslik — tahsil oluvchi qancha ma'lumotni o'zlashtira olsa, barchasini unga taqdim etish lozim;

— kompyuter odamning imkoniyatlarini ko'p marotaba kuchaytirishi mumkin bo'lsada, uning o'rnini bosa olmaydi.

**Ta'limning dasturiy vositalari** deb, o'zida ma'lum fan sohasini aks ettirgan, ma'lum darajada uni o'rganish texnologiyasi amalga oshirilgan, o'quv faoliyatining har xil turlarini amalga oshirish uchun zaruriy shartlar ta'minlangan kompyuter mahsulotlariga aytiladi.

O'quv fanlarining dasturiy ta'minoti turli-tumandir: ***elektron darsliklar, trenejyor dasturlar, konstruktorlar, lug'atlar, ma'lumotnomalar, ensiklopediyalar, xrestomatiyalar, o'qish uchun kitoblar, muzeylar, ekskursiyalar, sayohatlar, o'yinlar, o'qituvchi uchun uslubiy materiallar, videodarslar, elektron ko'rgazmali qurollar kutubxonasi*** va boshqalar.

Masalan, **til va adabiyot** fanlari uchun trenajyor dasturlar — diktant, mashq, bayon, insho (kompyuter xatolarni tekshiradi);

**matematika** uchun: formulalar va hisob-kitoblar elektron jadvallarda, turli mavzular bo'yicha o'qitadigan dasturlar, «Jonli geometriya», dasturiy-uslubiy majmualar.

Bunday dasturlarda o'rganilayotgan obyektlar haqida fazoviy tasavvur muhim bo'lgan geometriya, kimyo, fizika, biologiya fanlarini o'qitish yangicha tamoyillarga asoslangan;

**chet tillari** ucun: chet tilini o'rganish bo'yicha interaktiv kurslar, leksik o'yinlar, multimedik trenajyorlar, elektron dasrliklar;

**fizika va astronomiya** uchun: tajribalar natijalarini elektron jadvallarda qayta ishlash, turli mavzularni o'rgatuvchi va modellashtiruvchi dasturlar («Jonli fizika», «Fizik eksperiment», «Interaktiv planetariy» va boshqalar).

### Ikkinchi kichik modul

Kompyuterning *ta'lim jarayonini individualashtirish va differentsiatsiyalashtirish* xususiyatlari asosida bilim olish texnologiyasining o'zgarishi pedagogik jarayonda o'qituvchi rolini tubdan o'zgarishini keltirib chiqaradi. Bunda o'qituvchi yordamchi, maslahatchi, navigator (yo'naltiruvchi) vazifasini bajaradi. «Bilim berish» shiori «O'qishga o'rgatish» shioriga o'zgartiriladi.

Kompyuter vositalarini ***interaktiv*** deb belgilanishining sababi, ular tahsil oluvchi yoki o'qituvchi harakatlariga «javob berishlari», ular bilan «dialogga kirishishlari» mumkin.

**Ta'limning guruhiy shakllari.** Individual shakllarning rivojlanishidan tashqari kompyuter vositasida hamkorlikda o'qish shakllari ham ta'limga kirib kelmoqda. Kelajakda maxsus kompyuter tarmoqlarining yaratilishi har xil o'quv muassasalari, hattoki regionlari tahsil oluvchilarga hamkorlikda ishlashga imkoniyat yaratadi.

**Axborotni taqdim etish.** Kompyuter axborotni taqdim etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Multimediadan foydalanish ko'rgazmalarni reallikka yaqinlashtira oladi.

**Kompyuterda modellashtirish** (tajriba o'tkazish) tabiiy bog'lanishlarni chuqur anglash va dunyoning tabiiy-ilmiy tasvirini shakllantirish uchun ayniqsa ahamiyatlidir. Kompyuter dasturi ma'lum bir tizimni ifodalashi, tahsil oluvchi esa ushbu tizimga turli ta'sirlarni amalga oshirib, ular keltirib chiqargan natijalarni o'rganib chiqishi mumkin.

**Multimedia.** Zamonaviy dasturiy ta'lim vositalari multimedialidir. U animatsiya, ovoz, videotasvir bilan ta'minlangan dasturlar bilan ishlashga imkon yaratadi. Multimedia qo'llanilganda insonning turli sezgi organlariga ta'sir amalga oshiriladi. Animatsiya (lot. *animatix*) – rasmlarni mashina grafikasi yordamida «jonlantirish» ma'nosini anglatadi.

## Multimedia vositalari yordamida o'tkaziladigan interfaol ma'ruzalarni tashkillashtirish uslubiyoti

O'qituvchining izohlari bilan birgalikda qabul qilinayotgan videoma'lumot yoki animatsiya talabalar diqqatini faollashtiradi. Ta'lim qiziqarli va emotsional bo'lib boradi, talabalarda estetik qoniqish paydo bo'ladi. O'qituvchi o'z o'rnida ma'ruzaning eng murakkab joylariga ko'proq to'xtalib, vaqtdan oqilona foydalanadi.

O'qituvchi ma'ruzaga tayyorlanish jarayonida «PowerPoint» dasturi yordamida zaruriy miqdorda slaydlar tayyorlaydi. Ma'ruza mazmunini yetkazish jarayonida o'qituvchi slaydlarni tasvir sifatida namoyish qiladi. Bu o'quv materialini o'zlashtirish sifatini oshiradi.

**Kompyuterli dars** – dars jarayonida ta'lim vositasi sifatida kompyuterdan foydalanilgan har qanday dars.

**Yangi materialni o'rganish** (tushuntirish). O'qituvchi ta'lim jarayonini boshqaradi, yo'naltiradi, tashkillashtiradi. Yangi ma'lumotni o'qituvchi tahsil oluvchilarga kompyuter yordamida yetkazadi yoki ular yangi ma'lumotlarni kompyuterdan mustaqil oladilar. Bu bosqichda guruhiy (frontal) o'qish tashkillashtiriladi (kompyuterli yoki kompyutersiz).

**Mustahkamlash.** Ta'lim jarayonida kompyuterni qo'llash mustahkamlash individual yoki tabaqalashtirilgan dasturini qo'llashga imkoniyat yaratadi. Bunda sinf ma'lum jihatlariga ko'ra guruhlarga ajaratiladi va har bir guruh o'z varianti bo'yicha ish olib boradi.

**Takrorlashda** bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish uchun kompyuterning grafik imkoniyatlari, trenajyor dasturlar qo'llaniladi.

**Bilimlarni nazorat qilish.** Kompyuter nazorati qator afzalliklarga ega:

– nazoratning individuallashuvi (vaqti, murakkablik darajasi bo'yicha);

– bahoning obyektivligi oshadi;

– tahsil oluvchi bajargan vazifalarida o'zi tomonidan yo'l qo'yilgan xato, kamchiliklarni aniq ko'ra oladi;

– baholanish mashg'ulot yakunida emas, balki har bir bosqichda, topshiriq bajarilganidan so'ng qo'yib boriladi;

– baholashga minimal vaqt sarflanadi.

### Uchinchi kichik modul

**Masofaviy ta'lim** bu masofadan turib o'qitish bo'lib, bunda o'qituvchi va talaba o'rtasida masofa mavjuddir. Masofaviy ta'limning asosiy jihati bu talabalarga mustaqil bilim olish imkoniyatining berilishidir.

Masofaviy ta'lim (MT) bu mashg'ulotlar matni emas, balki tizimlardan axborot izlash, o'zaro xatlar yozish, ma'lumotlar baza-

lariga, matbuotga murojaat qilishni o'z ichiga olgan yaxlit jarayondir. MT mohiyatan individual ta'limga asoslangan bo'lishiga qaramay, talabani o'qituvchi va boshqa talabalar bilan bog'lanishini, hamkorlikda faoliyat olib borishini inkor qilmasligi zarur.

Video va televizion ma'ruzalar, «yumaloq stol»lar, kompyuterli video va matnli konferensiyalarning o'tkazilishi, o'qituvchidan tez-tez maslahatlar olib turishning imkoniyati bo'lganligi o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlikni yanada intensivlashtirishga olib keladi. Bu, hattoki, elektron seminar va ishbilarmonlik o'yinlari o'tkazishni ham nazarda tutadi.

Internetning quyidagi jihatlari uning masofaviy ta'limda samarali qo'llanilishini belgilab beradi:

- axborot uzatish, axborotlarga o'zgartirishlar kiritish jihatlari;
- Internetdan olingan axborotni saqlash, chop etish, unga o'zgartirishlar kiritish imkoniyati borligi;
- multimediali axborot va tezkor qaytuvchan aloqa yordamida interfaollikning ta'minlanishi;
- turli ma'lumotlar bankiga kirishning mumkinligi;
- elektron konferensiyalar, audiokonferensiya va videokonferensiyalar o'tkazishning imkoniyati;
- Internetga ulangan har qanday boshqa inson bilan dialogga kirishish imkoniyati borligi;
- elektron konferensiyalar orqali har qanday savolga javob so'rash imkoniyati borligi;
- olingan axborotlarni disketaga olish hamda kerakli vaqtda va joyda ushbu axborotlarni ishlatishning mumkinligi.

Internet axborotni ommalashtirishda vaqt, masofa, pul bilan bog'liq bo'lgan to'siqlarni pasaytirishga olib keldi. Albatta, bu ta'lim uchun katta ahamiyat kasb etadi.

## To'rtinchi kichik modul

MT ning samaradorligi ko'p jihatdan o'quv materialining to'g'ri tashkillashtirilganligiga bog'liq. O'quv materiali o'qituvchi va talabalar, hamda talabalararo hamkorlik qanday tashkillashtirilishidan kelib chiqib tuziladi. Agar o'quv kursi mustaqil ta'limga mo'ljallangan bo'lsa, unda o'quv materiali bir ko'rinishda, ta'lim o'qituvchi va talaba hamkorligida tashkillashtirilishiga asoslansa, boshqa ko'rinishda bo'ladi.

Hamkorlik, birgalikdagi faoliyat haqida so'z yuritilganida bunday kurslar qator talablarga javob berishi kerak, bu talablar telekommunikatsion tizim sharoitida o'qituvchi va talabaning o'zaro ta'sirining xususiyatlaridan kelib chiqadi:

– umumdidaktik talablar;

– axborotni ekrandan qabul qilishning psixologik xususiyatlari;

– ergonomika talablari va boshqalar.

Tabiiyki, birinchi navbatda didaktik va bilish maqsadlaridan kelib chiqiladi. Ikkinchi navbatda, ta'lim oluvchilar xususiyatlari inobatga olinishi darkor.

MT samaradorligi o'quv materiallari va ushbu jarayonda qatnashayotgan o'qituvchilarning pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

Har qanday masofaviy o'qitishning samaradorligi to'rtta elementdan iborat:

a) o'qituvchi va talabaning o'zaro hamkorligining samarali tashkillashtilishi (ularning o'rtasida katta masofa bo'lsa ham);

b) qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar;

d) uslubiy materiallar va ularning yetkazilishi samarali tashkillashtirilganligi;

e) qaytuvchan aloqaning samaradorligi.

**Zamonaviy masofaviy kursni tashkillashtirishda e'tiborga olishi zarur bo'lgan pedagogik talablar:**

1. Ta'lim jarayoni markazida talabaning mustaqil o'quv faoliyati turadi (o'qitish emas – o'qish faoliyati).

2. Talaba turli axborot manbalaridan foydalangan holda mustaqil ta'lim olishni o'rganishi muhim.

3. Mustaqil ta'lim olish passiv xarakterda bo'lmasdan, aksincha, tahsil oluvchi jarayonning dastlabki bosqichidanoq faol bilish jarayoniga jalb qilingan bo'lishi shart.

4. Mustaqil ta'limning tashkillashtirilishi ta'limning ushbu shakliga mos keluvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni talab etadi. Bunda ayniqsa samarali qo'llaniladigan texnologiyalar deb, hamkorlikda o'qitish, loyihaviy ta'lim, muammoli ta'limlarni ko'rsatish mumkin.

5. Nazorat muntazam ravishda o'tkazilib turishi va tezkor qaytuvchan aloqaga asoslanishi darkor.

Lekin Internetda ma'lumotlarning nihoyatda ko'pligi, ularning umumiy tuzilmaga ega emasligi axborot izlashni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, Internetda talaba diqqati boshqa qiziqarli narsalarga tez chalg'iydi va nazoratsiz faoliyat olib borayotgan talaba umuman o'quv kursiga taalluqli bo'lmagan axborotlarga o'tib ketadi.

Bugungi kunda MT kursining quyidagi tuzilmasi keng qo'llaniladi:

- **kurs muallifi** va **tyutor** ismlari hamda rasmlari (bu audio yoki videorolik ham bo'lishi mumkin), ularning biografiyalari va asosiy ilmiy ishlari ro'yxati;
- **kirish** (kurs haqida ma'lumot: kimlar uchun mo'ljallangan, o'zlashtirish uchun zaruriy sharoitlar, jadval, kursning maqsad va vazifalari, kurs annotatsiyasi, kursning tashkiliy jihatlari, zaruriy adabiyotlar, ta'lim tartibi, boshqa fanlar bilan bog'liqligi);

- kalit so'zlar ajratib yozilgan, tasvirli modullar ko'rinishida bo'lgan **asosiy matn;**
- anketalar paketi, ma'lumotnomalar; monitoring bloki; yangiliklar, e'lonlar doskasi; aloqa uchun manzillar ro'yxati; testlar; forum; elektron kutubxonalar; FAQ (ko'p uchraydigan savollar); nazorat tizimi.

MT ning samaradorligini aniqlash uchun quyidagi mezonlar e'tiborga olinadi: tahsil oluvchilarning MT haqidagi subyektiv fikrlari; tahsil oluvchilarda shakllantirilgan malakalar darajasi; ta'lim olish uchun sarflanadigan vaqt; kursni o'qishni boshlagan tahsil oluvchilar va uni yakunlagan tahsil oluvchilar soni va boshqalar.

Internet orqali o'qishning kamchiliklaridan biri – Internetga bir vaqtda ulangan odamlar soni qanchalik ko'p bo'lsa, undagi bog'lanish sifati shunchalik yomonlashadi.

O'z yechimini kutayotgan yana bir masala bu MT yanada interfaol bo'lishining zarurligidir. O'qituvchi va talaba, talabalararo bog'lanishning bir necha shakllari bo'lsada, ulardan foydalanishning o'ziga xos qiyinchiliklari bor. Hozirgi kunda MT ni «virtual (xayoliy) sinfda o'qitishga» yaqinlashtirishga ehtiyoj sezilmoqda.

# XULOSA

Pedagogik texnologiyadan foydalanayotgan ko'pgina rivojlangan mamlakatlar o'z ta'lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga erishayotganliklari hayotda o'z tasdig'ini topmoqda. Ushbu o'quv va ilmiy-uslubiy qo'llanmada bayon etilgan ma'lumotlar pedagogik texnologiyaning salohiyati to'g'risida fikr yuritishga asos bo'ladi. Unga amal qilgan ta'lim beruvchilar ta'lim oluvchilarga bilim berishda, albatta, samarali natijalarga erishadi. Ayniqsa, bu ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlash, kasbiy mahorati, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda hamda boshqa tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshirishda muhim.

Pedagogik texnologiya doirasida yaratilgan turli xil ishlanmalar ta'lim samaradorligini oshirishga oqilona va ijodiy yondashishga, bunda ta'lim beruvchi o'z erkinligiga ega bo'lishi, darsda qo'llanilgan turli usullar, vositalar samaradorligini o'zi baholashiga imkoniyat yaratadi.

Ushbu o'quv qo'llanmani yaratishda «Pedagogik texnologiya — zamonaviy o'zbek milliy modeli» asos qilib olinib, hammaga ma'lum bo'lgan usullarning eng yaxshi tomonlari va PT tamoyillari bo'yicha o'quv mashg'ulotlari loyihasi ishlab chiqildi. Pedagogik texnologiyaning mazmun va mohiyati yanada hammaga ayonroq bo'lishi uchun «Pedagogik texnologiya» fani o'quv mashg'ulotlarining loyihalari to'liq keltirildi.

Ushbu o'quv qo'llanma magistr mutaxassisliklari va bakalavr yo'nalishidagi talabalar bilan birgalikda, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar, pedagoglar jamoasi, ilmiy tadqiqotchilar uchun zaruriy manba bo'lib, pedagogik texnologiyani ta'lim jarayoniga joriy etish masalasida barcha fanlar o'quv mashg'ulotlarining loyihalarini ishlab chiqishda andaza hamda ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha uslubiy yordam bo'ladi.

*1-ilova*

## Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

| Ishchi o'quv dasturining mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzulari | Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar | Hajmi (soatda) |
|---|---|---|
| Pedagogik texnologiyaning psixologik asoslari. | Mavzuga oid nazariy ma'lumotlarni o'rganib chiqish va «Ta'limga an'anaviy yondashuvning tubdan o'zgarishini keltirib chiqargan asosiy psixologik g'oyalar» mavzusida referat tayyorlash:<br>- referatga qo'yiladigan talablarga rioya qiling. | 2 |
| Pedagogik texnologiyalar ilmiy asoslari. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar tasnifi. Pedagogik texnologiyalarga qo'yiladigan asosiy talablar. Pedagogik texnologiya turlari. | Mavzuga doir adabiyotlarni tahlil qilish, shu asosda tayanch konspekt tayyorlash:<br>- tayanch konspekt tuzganda mos grafik tashkillovchilardan foydalaning;<br>- mavzu mazmunini to'liq yoritib berishiga alohida e'tibor bering. | 2 |
| Talabalar faoliyatini faollashtirish va intensifikatsiyalashga asoslangan ta'lim texnologiyalari. | • Muammoli savol yoki vaziyatlarni ishlab chiqish:<br>- kamida 10 ta;<br>• mutaxasassilik fani bo'yicha o'quv loyihasini ishlab chiqish, bunda: | 2 |

| | | |
|---|---|---|
| . | - mavzu, ta'limiy muammo, loyihaning amaliy ahamiyati asosnomasi, loyihani amalga oshirish bosqichlari aniq ko'rsatilishi lozim;<br>• ta'limiy o'yin ssenariysini ishlab chiqish, bunda:<br>- mavzu,<br>- o'yin qoidalari,<br>- o'yin bosqichlari,<br>- vositalar,<br>- talabalar faoliyatini baholash mezonlari aniq aks ettirilishi shart. | |
| Analitik tafakkurni rivojlantirish usulida ta'lim berish asoslari. | Analitik tafakkurni rivojlantirish usullarini qo'llashga misollar tuzish:<br>- ish talabalar tomonidan bajarilgan topshiriq natijasi ko'rinishida bo'lishi shart;<br>- usul tanlashda muayyan mavzuning ta'limiy maqsadi, uning mazmuni mohiyatidan kelib chiqing. | 2 |
| O'quv materialini diaktik takomillashtirish va rekonstruksiyalash asosidagi ta'lim texnologiyalari. | • Integrativ ta'lim g'oyalariga asoslanib, mutaxassislikka oid o'quv dasturi yoki bitta o'quv mashg'uloti mazmuni (matni) ishlanmasini yaratish:<br>- mashg'ulot ta'lim mazmuni fanlararo mantiqiy bog'lanishlarga asoslanishi kerak; | 2 |

| | | |
|---|---|---|
| | - mazmun sxema ko'rinishida beriladi, bunda uning alohida qismlariaro bog'lanishlar belgilar yordamida ko'rsatilishi shart;<br>• modulli ta'lim bo'yicha dastur yaratish. | |
| Dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalari. | Mutaxassisligiga oid bitta mavzuni dasturlash:<br>- dastur elektron vosita ko'rinishida bo'lishi talab qilinadi. | 2 |
| Axborot ta'lim texnologiyalari. | Mutaxassislik fani bo'yicha bitta o'quv mashg'ulotining to'liq axborot ta'minotini yaratish:<br>- mutaxassiligingizga oid muayyan mavzuning ta'lim maqsadi, mazmunidan kelib chiqib elektron ta'lim vositasi turini tanlang;<br>- vazifani bajarishda ta'lim vositalariga qo'yiladigan didaktik talablarni inobatga oling;<br>- ish elektron ma'lumot tashuvchilarda topshiriladi. | 2 |
| O'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish. | Mutaxassisligiga oid bitta mavzuni to'la loyihalash:<br>- mustaqil ish o'quv mashg'uloti modul ko'rinishida ishlab chiqilishi shart;<br>- o'quv mashg'uloti loyihasiga qo'yiladigan barcha talablarga javob berishi lozim. | 2 |
| Jami | | **16** |

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston|», 1992.

2. *Karimov I.A.* «Mamalakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi». O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi.//«Xalq so'zi» gazetasi, 13-noyabr 2010-y.

3. «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida Prezident Qarori. 2010-yil.//«Ma'rifat» gazetasi, 27 yanvar 2010-y.

4. *Karimov I.A.* Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008.

5. *Karimov I.A.* O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: «O'zbekiston», 1992.

6. *Karimov I.A.* «Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi». O'zbekiston Respublikasi Islom Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.//«Xalq so'zi» gazetasi, 22-yanvar 2011-y.

7. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni (1997-yil 29-avgustda qabul qilingan).//Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «O'zbekiston», 1997.

8. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»//Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «O'zbekiston», 1997.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 20-maydagi «Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1533-sonli Qarori.

10. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar». – T.: «O'zbekiston», 2000.

11. *Abu Rayhon Beruniy.* Tanlangan asarlar. – T.: «Fan», 1968.

12. *Abdulla Avloniy.* Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: «O'qituvchi», 1992.

13. *Azizxo'jaeva N.N.* Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, «Nizomiy», 2003.

14. *Avliyoqulov N.* Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – T.: 2001.

15. *Ziyomuhammadov B., Tojiyev M.* Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek milliy modeli. – T.: «Lider Press», 2009.

16. *Ziyomuhammadov B.* Pedagogik mahorat asoslari. – T.: «Turon-Iqbol», 2006.

17. *Беспалько В.П.* О возможностях системного подхода в педагогике. / «Сов. педагогика», 1990, №7.

18. *Боголюбов В.И.* Эволюция педагогических технологий // Школьные технологии, 2004, № 4.

19. Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения. –М.: «Педагогика», 1977.

20. *Бекмуродов А.Ш, Гольш Л.В, Пулатов М.Е, Хажиева К.Н.* Проектная технология обучения в вузе. Методическое пособие. – Т.: Ташкентский Государственный экономический университет, 2009.

21. *Golish L.V., Fayzullayeva D.M.* Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O'quv uslubiy qo'llanma// Ta'limda innovatsion texnologiya seriyasi. – T.: 2010.

22. *Давлетьшин М.Г.* Модульная технология обучения. – Т.: 2000.

23. *Данилов М.А., Эсипов Б.П.* Дидактика. – М., 1957.

24. *Jo'raev R., Samatov I., Qarshiboyev H.* Zamonaviy informatsion va pedagogik texnologiyalar asosida tabiiy fanlarni o'qitish. – T.: «Xalq ta'limi», 1-son, 2002-y.

25. *Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A.* Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: «O'qituvchi», 2004.

26. *Ishmuhammmedov R.* Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDPU, 2005.

27. *Кларин М.В.* Педагогическая технология в учебном процессе. – М.: «Знание». 1989.

28. *Лернер И.Я.* Внимание о технологии обучения // Сов. педагогика. 1990. № 3.

29. Русско-узбекский словарь. Том II. – Т.: 1984.

30. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.

31. *Mahmudov M.* Ta'limni didaktik loyihalash (risola). – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi «Xalq merosi» nashriyoti, 2002.

32. *Монахов В.М.* Аксиоматический подход к проектированию педагогической технологии. // «Педагогика», 1997, № 6.

33. *Ochilov M.* Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi, «Nasaf», 2000.

34. *Pardayev M.Q.* Iqtisodiyotga oid fanlarni yangi pedagogik texnologiya metodlarini qo'llab o'qitish (uslubiy ko'rsatma). – Samarqand, 2007.

35. Pedagogik ensiklopediya. 1965.

36. Pedagogika / Akad. S.R.Rajabovning umumiy tahriri ostida. – T.: «O'qituvchi», 1981.

37. Педагогические технологии / Под. ред. Кукушина В.С. – М.: 2006.

38. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: «Fan», 2006.

39. *Pirmuhamedova M.* Pedagogik mahorat asoslari. – T.: 2001.

40. *Питюков В.Ю.* Основы педагогической технологии. – М.: «ГномПресс», 2003.

41. *Tojiyev M., Ziyomuhammadov B.* Milliy pedagogik texnologiyaning ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbig'i va uni yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishdagi o'rni (monografiya). – T.: «Mumtoz so'z», 2010.

42. *Tojiyev M., Tolipov O'.Q., Seytxalilov E.A., Ziyomuhammadov B.* Pedagogik texnologiya – zamonaviy ilmiy-nazariy asosi. /OO'MKHTRM. – T.: «Ishonch M.S.», 2008.

43. *Tojiyev M., Alimov A.Ya., Qo'chqarov D.U.* Pedagogik texnologiya – ta'lim jarayoniga tatbig'i: o'quv mashg'ulotlarining loyihasi, I qism. – T.: «Tafakkur», 2010.

44. *Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M.* Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: «Fan», 2006.

45. *Tolipova J.O.* Pedagogik texnologiyalar do'stona muhit yaratish omili. – T.: YUNISEF, 2005.

46. *Sayidahmedov N.* Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: «Moliya», 2003.

47. *Сейтхалилова Е.А., Курбанов Ш.* Управление качеством образования. – Т.: «Шарк», 2004.

48. *Сластенин В.А., Подимова Л.С.* Педагогико-инновационная деятельность. – М.: 1998.

49. *Селевько Г.К.* Современные образовательные технологии. – М.: «Народное образование», 2004.

50. *Sultanova G.A.* Pedagogik mahorat. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: TDPU, 2005.

51. *G‘afforova T. va boshq.* Ta’limning ilg‘or texnologiyalari. – Qarshi: «Nasaf», 2003.

52. *G‘ulomov S.S., Peregudov L.V.* Fan va texnikada sistemaviy yondashish asoslari. – T.: «Moliya», 2002.

53. *Qurbonov Sh.* Kadrlar tayyorlash va milliy istiqlol g‘oyasi. – T.: «Xalq ta’limi» jurnali, 1-son, 2001.

54. *Forobiy.* Arastu falsafasi. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq so‘zi» gazetasi, 1993.

55. *Фаберьман Б.Л., Мусина Р.Г. и др.* Инструменты развития критического мышления. – Т.: «Минвуз», 2002.

56. *Юзявичене П.А.* Теория и практика модульного обучения. – Каунас, 1989.

57. *Гошанов М.А.* Гибкая технология проблемно-модульного обучения. – М.: «Народное образование», 1996.

58. *Шаталов В.Ф.* Эксперимент продолжается. – М.: «Педагогика», 1989.

59. *Xodiyev B.Yu, Golish L.V, Rixsimboev O.K.* Keys stadi iqtisodiy oliy o‘quv yurtidagi zamonaviy ta’lim texnologiyalari (ilmiy uslubiy qo‘llanma). – T.: Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, 2009.

60. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Uchinchi jild. – T., «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2010.

61. *Yan Amos Komenskiy.* Buyuk didaktika. – T.: «O‘qituvchi», 1966.

# MUNDARIJA

**Kirish** ... 3

**Milliy pedagogik texnologiya asosida «Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat» fani o'quv mashg'ulotlarining loyihalari** ... 6

1.1. O'quv maqsadlarini belgilash usullari ... 6
1.2. «Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat» fanining katta modullari, ulardan ko'zlangan maqsadlar va ular tarkibidagi o'rta modullar soni ... 11

**I. BIRINCHI KATTA MODUL**
**Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari: Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va pedagogik texnologiyaning rivojlanish tarixi hamda uning zamonaviy tasnifi** ... 15

*1. BIRINCHI KATTA MODULNING BIRINCHI O'RTA MODULI*
Ta'limni modernizatsiya qilish masalasining dolzarbligi va pedagogik texnologiya g'oyasining vujudga kelishi hamda kvantlar nazariyasi va sinergetika, majmular nazariyasi va majmuiy yondashuv tamoyili ... 15

1.1. Birinchi katta modul tarkibidagi birinchi o'rta modulning umumiy maqsadi ... 15
1.2. Birinchi o'rta modulning kichik modullarining nomlari va maqsadlari ... 16
1.3. Kichik modullardagi tayanch tushunchalar va ular asosida tuzilgan nazorat savollari ... 17
1.4. Kichik modullarning nazorat savollari asosida tuzilgan test ... 18
1.5. Kichik modullarning o'quv mashg'uloti turi va tipi, unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar ... 22
1.6. Kichik modullarning pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot-komunikatsion texnologiyalari va didaktik materiallar ... 22
1.7. O'rta modulning mazmunini ifoda etuvchi matn ssenariysi ... 26

*BIRINCHI KATTA MODULNING IKKINCHI O'RTA MODULI*
Ta'limga texnologik yondashuv mohiyati, o'qitish jarayoniga texnologik yondashish xususiyatlari va «Texnologiya» so'zining ma'nosi hamda pedagogik texnologiyaning zamonaviy ta'rifi, pedagogik texnologiyaning mohiyati ... 43

2.1. Birinchi katta modul tarkibidagi ikkinchi o'rta modulning umumiy maqsadi ... 43
2.2. Ikkinchi o'rta modulning kichik modullari nomlari va maqsadlari ... 44
2.3. Ikkinchi o'rta modulning tayanch tushunchalari va ular asosida tuzilgan nazorat savollari ... 44

2.4. Ikkinchi o'rta modulning nazorat savollari asosida tuzilgan test .......... 46
2.5. Ikkinchi o'rta modulning dars turi va tipi, unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar .......... 48
2.6. Kichik modullarning pedagogik jarayonda foydalaniladigan axborot-komunikatsion texnologiyalari va didaktik materiallar .......... 48
2.7. O'rta modulning mazmunini ifoda etuvchi matn ssenariysi .......... 51

*3. BIRINCHI KATTA MODULNING UCHINCHI O'RTA MODULI*
Pedagogik texnologiya tamoyillari va ularning izohlari, pedagogik maqsadlarni belgilash yo'llari, pedagogik maqsadlar taksonomiyasi va pedagogik texnologiya turlari .......... 58

3.1. Birinchi katta modul tarkibidagi uchinchi o'rta modulning maqsadi ... 58
3.2. Kichik modullarning nomlari va maqsadlari .......... 59
3.3. Tayanch tushunchalar va ular asosida tuzilgan nazorat savollari .......... 60
3.4. Nazorat savollari asosida tuzilgan test .......... 61
3.5. Dars turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar .......... 64
3.6. Kichik modullarning pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot-kommunikatsion texnologiyalar va didaktik materiallar .......... 64
3.7. O'rta modulning mazmunini ifoda etuvchi matn ssenariysi .......... 68

*4. BIRINCHI KATTA MODULNING TO'RTINCHI O'RTA MODULI*
Pedagogik texnologiya nazariy asoslari. Zamonaviy pedagogik texnologiya turlari .......... 75

4.1. Laboratoriya o'quv mashg'ulotining maqsadi .......... 75
4.2. Laboratoriya o'quv mashg'uloti rejasi, turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar .......... 75
4.3. Laboratoriya mashg'ulotining pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot texnologiyalari va didaktik materiallar hamda faoliyat mazmuni .. 76

**II. IKKINCHI KATTA MODUL**
**Talabalar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish (intensivlash)ga asoslangan ta'lim texnologiyalari** .......... 78

*1. IKKINCHI KATTA MODULNING BIRINCHI O'RTA MODULI*
Talabalar faolligi, muammoli ta'lim usuli, loyihalar usuli va o'yinli texnologiyalar .......... 78

1.1. Ikkinchi katta modul tarkibidagi birinchi o'rta modulning umumiy maqsadi .......... 78
1.2. Birinchi o'rta modulning kichik modullari nomlari va maqsadlari .......... 79
1.3. Kichik modullar tayanch tushunchalari va ular asosida tuzilgan nazorat savollari .......... 80

1.4. Kichik modullar nazorat savollari asosida tuzilgan test ........................ 82
1.5. Dars turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar ......... 85
1.6. Kichik modullarning pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot-komunikatsion texnologiyalar va didaktik materiallar ........... 86
1.7. O'rta modulning mazmunini ifoda etuvchi matn ssenariysi ................ 89

*2. IKKINCHI KATTA MODULNING IKKINCHI O'RTA MODULI*
Talabalar faoliyatini faollashtirish va intensifikatsiyalashga asoslangan ta'lim texnologiyalari ........................................................................ 100

2.1. Laboratoriya o'quv mashg'ulotining maqsadi ................................... 100
2.2. Laboratoriya o'quv mashg'uloti rejasi, turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar ........................................... 100
2.3. Laboratoriya mashg'ulotining pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot texnologiyalari va didaktik materiallar hamda faoliyat mazmuni ........................................................................................ 101

**III. UCHINCHI KATTA MODUL**
**Ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda qo'llaniladigan pedagogik usullar** ........................................ 103

*1. UCHINCHI KATTA MODULNING BIRINCHI O'RTA MODULI*
Interfaol usullar va ularning tavsifi, ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda qo'llaniladigan pedagogik usullar ........................................................................................ 104

1.1. Uchunchi katta modul tarkibidagi birinchi o'rta modulning umumiy maqsadi ........................................................................ 103
1.2. Birinchi o'rta modulning kichik modullari nomlari .......................... 104
1.3. Tayanch tushunchalar va ular asosida tuzilgan nazorat savollari ........ 105
1.4. Nazorat savollari asosida tuzilgan test ............................................ 106
1.5. Dars turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar ....... 109
1.6. Kichik modullarning pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot-kommunikatsion texnologiyalar va didaktik materiallar ....... 109
1.7. O'rta modulning mazmunini ifoda etuvchi matn ssenariysi .............. 114

*2. UCHINCHI KATTA MODULNING IKKINCHI O'RTA MODULI*
Ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda qo'llaniladigan pedagogik usullar ....................................... 124

2.1. Laboratoriya o'quv mashg'ulotining maqsadi .................................... 124
2.2. Laboratoriya o'quv mashg'uloti rejasi, turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar ............................................ 124
2.3. Laboratoriya mashg'ulotining pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot texnologiyalari va didaktik materiallar hamda faoliyat mazmuni... 125

**IV. TO'RTINCHI KATTA MODUL**
O'quv materialini didaktik takomillashtirish va rekonstruksiyalash asosidagi ta'lim texnologiyalari ........ 128

*1. TO'RTINCHI KATTA MODULNING BIRINCHI O'RTA MODULI*
Integrallashgan ta'lim texnologiyalari va modulli ta'lim texnologiyasi ....... 128

1.1. To'rtinchi katta modul tarkibidagi birinchi o'rta modulning umumiy maqsadi ........ 128
1.2. Birinchi o'rta modulning kichik modullari nomlari va maqsadlari ..... 129
1.3. Tayanch tushunchalar va ular asosida tuzilgan nazorat savollari ........ 130
1.4. Nazorat savollari asosida tuzilgan test ........ 132
1.5. Dars turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar ....... 134
1.6. Kichik modullarning pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot-komunikatsion texnologiyalar va didaktik materiallar .......... 134
1.7. O'rta modulning mazmunini ifoda etuvchi matn ssenariysi .............. 135

*2. TO'RTINCHI KATTA MODULNING IKKINCHI O'RTA MODULI*
O'quv materialini didaktik takomillashtirish va rekonstruksiyalash asosidagi ta'lim texnologiyalari ........ 143

2.1. Laboratoriya o'quv mashg'ulotining maqsadi ........ 143
2.2. Laboratoriya o'quv mashg'uloti rejasi, turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar ........ 143
2.3. Laboratoriya mashg'ulotining pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot texnologiyalari va didaktik materiallar hamda faoliyat mazmuni ........ 144

**V. BESHINCHI KATTA MODUL**
**O'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish** ........ 147

*1. BESHINCHI KATTA MODULNING BIRINCHI O'RTA MODULI*
O'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish ........ 147

1.1. Beshinchi katta modul tarkibidagi birinchi o'rta modulning maqsadi .... 147
1.2. Kichik modullarning nomlari va maqsadlari ........ 147
1.3. Tayanch tushunchalar va ular asosida tuzilgan nazorat savollari ........ 149
1.4. Nazorat savollari asosida tuzilgan test ........ 150
1.5. Dars turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar ....... 153
1.6. Kichik modullarning pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot-kommunikatsion texnologiyalar va didaktik materiallar ....... 154
1.7. O'rta modulning mazmunini ifoda etuvchi matn ssenariysi .............. 158

*2. BESHINCHI KATTA MODULNING IKKINCHI O'RTA MODULI*
O'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish ........ 170

2.1. Laboratoriya o'quv mashg'ulotining maqsadi ........ 170
2.2. Laboratoriya o'quv mashg'ulotining rejasi, turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar ........ 170
2.3 Laboratoriya mashg'uloti pedagogik jarayonida foydalaniladigan axborot texnologiyalari va didaktik materiallar hamda faoliyat mazmuni ........ 171

**VI. OLTINCHI KATTA MODUL**
**Dasturlashtirilgan va axborot-kommunikatsion ta'lim texnologiyasi** ........ 173

*1. OLTINCHI KATTA MODULNING BIRINCHI O'RTA MODULI*
Dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasi mohiyati, chiziqli dastur va tarmoqlashgan dastur ........ 173

1.1. Oltinchi katta modul tarkibidagi birinchi o'rta modulning maqsadi ... 173
1.2. Kichik modullar nomlari va maqsadlari ........ 174
1.3. Tayanch tushunchalar va ular asosida tuzilgan nazorat savollari ........ 175
1.4. Nazorat savollari asosida tuzilgan test ........ 176
1.5. Dars turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar ........ 178
1.6. Pedagogik jarayonda foydalaniladigan axborot texnologiyalar, didaktik materiallar va faoliyat mazmuni ........ 178
1.7. O'rta modulning mazmunini ifoda etuvchi matn ssenariysi ........ 181

*2. OLTINCHI KATTA MODULNING IKKINCHI O'RTA MODULI*
Axborot ta'lim texnologiyalari va masofaviy ta'lim texnologiyasi (MTT) .... 185

2.1. Beshinchi katta modul tarkibidagi ikkinchi o'rta modulning umumiy maqsadi ........ 185
2.2. Kichik modullarning nomlari va maqsadlari ........ 185
2.3. Tayanch tushunchalari va ular asosida tuzilgan nazorat savollari ........ 187
2.4. Nazorat savollari asosida tuzilgan test ........ 188
2.5. Dars turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik uslublar ........ 193
2.6. Pedagogik jarayonda foydalaniladigan axborot texnologiyalari, didaktik materiallar va faoliyat mazmuni ........ 194
2.7. O'rta modulning mazmunini ifoda etuvchi matn ssenariysi ........ 198

Xulosa ........ 210
Ilova ........ 211
Foydalanilgan adabiyotlar ........ 214

# PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA PEDAGOGIK MAHORAT FANINING O'QUV MASHG'ULOTLARINI LOYIHALASH

**(Pedagogik texnologiya milliy modelining amaliyotga tatbig'i)**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan barcha magistratura mutaxassisliklarining talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashri

*«Tafakkur-Bo'stoni»*
*Toshkent – 2012*

Muharrir *M. Saparov*
Musahhih *G'. Shirinov*
Sahifalovchi *Sh. Rahimqoriyev*

Litsenziya AI № 190, 10.05.2011-y.
Bosishga ruxsat etildi 01.07.2012. Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. TimesUz garniturasi. Bosma t. 14,0.
Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 10.

«Tafakkur-Bo'stoni» nashriyoti.
Toshkent sh., Yunusobod, 9-mavze, 13-uy.

«Tafakkur-Bo'stoni» nashriyoti bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Chilonzor ko'chasi, 1-uy.

18100-00

74
П507

ISBN-978-9943-362-64-2
9 789943 362512

«TAFAKKUR-BO'STONI»
NASHRIYOTI